

Bemehr qarindoshdan mehr bilgan yot yaxshi

Avvalgi bobdagi fikrimizni вЂњSilai rahm вЂќ deb ataluvchi, Allohga xush keluvchi yaxshi odoblardan biri haqidagi oyatlar, hadisi sharifdan namunalar, rivoyatlar va mulohazalar bilan davom ettiramiz.

вЂњBir qoringa siqqan bolalarim bitta uyga sig'masa-ya! вЂќ

Onalarning bunday faryodlari bizlar uchun yangilik emas. Qarindoshlar, yoki qo'ni-qo'shnilar xonadonida eshitganingiz bordir bunday nolalarni. Bazan esa... otamiz yoki onamiz yoki eng yaqin qarindoshimiz vafot etari oldidan вЂњmendanda keyin yuz kilo guruch damlab, osh tarqatlarin вЂќ, deyishmaydi. Men bunday vasiyatni eshitmaganman. Sizning ham qulog'ingizga chalinmagandir. Biroq, вЂњMendanda keyin ahil-inoq yashanglar вЂќ, deyishlari aniq. Ayniqsa oilaning to'ng'ich farzandiga вЂњSen kattasan, ukalaringning boshlarini qovushtirib tur вЂќ, deb so'nggi o'tinch bilan tikilishlarini ko'z oldimizga keltiraylik. So'ng esa... вЂњYigirma osh вЂќ yoki вЂњYul osh вЂќ deyilmish dabdabdan so'ng aka-ukalar, qarindoshlar orasida nifoq chiqishi, mehr rishtalari uzilishi hollarini ham unutmaylik.

Yana unutmaylik-ki, marhum ota-onamiz yoki qarindoshimiz bu oshlarga muhtoj emaslar. Ularning ruhlari bu ziyofatlardan shodlanmaslar balki, mehrning uzilishidan ozorlar chekarlar.

Bu bo'lgan voqea: bir qoringa siqqan aka-uka bir hovli-joyga sig'may qolishdi. Amakivachcha sanalmish bolalarning o'zaro janjallari uchun ularni ayblash noo'rin. Chunki ular yosh, ko'p narsalarga aqlari yetmaydi. Ziddiyatlarining asosida ayrim hollarda g'araz yoki shumlik yotmaydi, bu janjallar bolalarcha sho'xlikning oqibatida yuzaga keladi. Ammo, afsuskim, ayrim hollarda nafrat ham uchraydi. Bolalarga bu nafratni ota-onalari o'zlari bilmagan holda singdiradilar. Qanday qilib? Aytaylik, kechki ovqat paytida kunduzgi voqealardan gap ochiladi. Xotin ovsinining yomonligidan so'zlaydi. Nodon er akasining biron qiligidan noliydi. Shunday gaplari bilan amakivachchalar orasiga o'nnglanmas nifoq solayotganlarini bilmaydilar. Otasi va onasining gaplarini diqqat bilan eshitib o'tirgan bola uchun bitta narsa ravshan bo'ladi: amakisi yomon! Uning oilasi - xullas, hammasi yomon! Yomon... yomon... ulardan nafratlanish kerak. Shunday g'iybat sharobi ichilayotganda ayrim bolalar otasi va onasini qo'llash maqsadida amakivachchasining biron yomonligidan gapirib, olovga moy quyadi. Qalblardagi mehr o'rnini egallagan yara shu tarzda madda bog'laydi. Vaqt o'tgan sayin u qalblarni azobga soladi va mudhish kunlarning birida yoriladi.

Aka-ukaning gap talashishi so'kishga, haqoratlash esa birining ketmon ko'tarib hamla qilishiga aylandi. G'azabga mingan aka-ukani ajratishga harakat qilayotgan o'n olti yoshli o'g'il otasining qonga belanganini ko'rib, o'zini yo'qotadi, qo'lga chalg'i oladi. Uzoq davom etgan nifoq aka-ukaning fojiali o'limi va o'smirning qamoqqa tushishi bilan yakunlanadi. Qonga belanib yotgan aka-ukaning ko'zlari вЂњBu qanaqasi bo'ldi? вЂќ deganday ochiq qoldi. Bu dunyoga to'yolmagan ko'zlarni yopa olishmadi. Katta hovli-joyga sig'magan aka va ukaning har biriga ikki quloqli ikki lahad kifoya qildi. Bir hovlida yonma-yon yashashni istashmagan edi, qabristonda yonma yon qablardan joy olishdi. U dunyodagi ahvollari bizga nomalum. Ota-onalari bilan qiyomatda qay holda ko'rishishlari ham nomalum. Farzandlarining bu fojiasi tufayli ota-onaning ruhi to'qiyomatga qadar nechog'li azob chekmog'i ham yolg'iz Allohga malum.

Bizning ajablanishimizdan o'zga ilojimiz yo'q. Gap shundaki, aka-ukaning o'limi ikki oila o'rtasidagi nifoqni o'nnglamadi.

Ovsinlarning g'aflat uyqusidagi ko'zlari ochilmadi, qarindoshlar esa ibrat olishmadi. Aka-uka ekib ketgan nifoq urug'i unib chiqib bemehrlilik mevalarini beraverdi. Hasan Basriy (r.a.) Allohning kalomiga asoslangan holda вЂњQaysiki odamlarda ilm ko'rinib, unga amal qilishmasa, til bilan aytishni yaxshi ko'rishib, qalblari bilan g'azablanishsa, qarindoshlari bilan uzilishgan bo'lishsa, Alloh ularni lanatlaydi, kar qiladi, va ko'zlarini ko'rmaydigan qilib qo'yadi вЂќ, deganlarida aynan shu kabi insonlarni nazarda tutgandirlar? Vallohu alam.

Yana ajablanamiz: namoz o'qiyimiz va deymizki, bu ibodatni Alloh farz qilgan. Ammo qarindoshlar bilan uzilib ketamiz, bilmaymizmiki, Alloh bandalariga silai rahmi ham farz qilgan. Bilmasak, bilib olaylikkim, toki qiyomatda sharmanda bo'lmaylik. Abu Ayyub Ansoriy (r.a.) rivoyat qilishlaricha, bir arobiy Rasulullohga (s.a.v.) yaqinlashib so'radi: вЂњMeni jannatga yaqin va do'zaxdan uzoq qiladigan amallarni aytib berin вЂќ. Rasululloh unga dedilar: вЂњAlloh taoloning o'zigagina qullik qilasan, unga hech narsani sherik qilmaysan, Alloh buyurgan namozlarni vaqtida ado qilasan. Molingdan zakotni berasan va silai rahm qilasan вЂќ. Mazkur bayondagi topshiriqlar Islomning besh arkoni - besh farzni eslatmayaptimi? Silai rahm shu farzlar qatoridagi zarur ibodatlardan ekan.

Alloh taborak va taolo bandalariga marhamat qiladikim: вЂњAgar iymondan yuz o'g'irsangizlar, sizlar yer yuzida buzg'unchilik qilursizlar. Va qarindosh-urug'laringiz bilan ham aloqalaringizni, qarindoshlik rishtalarini uzarsizlar. Unday kimsalarni esa Alloh taolo lanatlagandir. Bas, ularning quloqlarini pand-nasihati eshitishdan kar, ko'zlarini to'g'ri yo'lni ko'rolmaydigan ko'r qilib qo'ygandir вЂќ. Muhammad surasidagi ikki oyatning mano tarjimasini bilan tanishgach, bu manoni aqlimizga singdirishga urinaylikda, so'ng yana avvalgi voqeaga qaytaylik: demak, kim buzg'unchilik qilarkan, kim qarindoshlaridan uzilib ketarkan? Iymondan yuz o'girganlar. Agar bir-birini o'ldirgan aka va ukada iymon bo'lsa ahil-inoq yashamasmidi? Farzandlarini ham silai rahm ruhida tarbiya etmasmidi? Albatta, marhumlar haqida yomon gapirish odobdan emas. Ularni iymonsizlikda ayblash esa rahmsizlik bo'lib ko'rinar. Ammo, nailoj, boshqalarga ibrat bo'lsin uchun haqiqatni aytishga majburmiz. Bunday kimsalarga Allohning lanati tushgani - shu fojiani yuz berganida ko'rinmaydimi? Lanat faqatgina aytishga o'lim emas, balki ular uy-joy talashishni boshlaganlaridayoq Allohning g'azabiga uchraganlar, biroq, iymondan holi onglari buni fahmlay olmagani. Hamonki bunday kimsalar Allohning lanatiga loyiq ekanlar, ularning oxiratlarini taxminan tasavvur qilish mumkin. Allohning bu ikki oilani lanatlashi hali tugaganini yo'q. Allohning lanatlashi o'z rahmatidan va hidoyatidan uzoq qilishi bilan bo'ladi. Ko'r va kar qilishi ham jismoniy emas, manaviy tomondan bo'ladi. Ko'zi hamma narsani sog'-salomat ko'rib turadi, lekin ko'rgan narsalaridan ibrat olmaydi. Qulog'i ham sog' bo'ladi, lekin o'zi eshitgan narsalaridan ibrat olmaydi. Chunki ularning qalb ko'zlari ko'r, qalblari qulflangan. Qalb qulf ekan, unga hech narsa, jumladan Qur'on nuri ham kirmaydi. Boshqacharoq aytsak, bunday qalblar Qur'on nuri bilan nurlanishga rag'bat ko'rsatmaganlari uchun ham oqibatda qulflanib qoladilar. Aka-ukaning fojiasidan ibrat olmagani ovsinlarning, amakivachchalarning taqdirleri shunday emasmi?

Alloh bandalarni ogohlantiradi: вЂњ...oralaringizdagi savol-javoblarda (yani o'zaro muomalada) nomi keltiriluvchi Allohning qahridan qo'rqingiz va qarindosh-urug'laringiz bilan ajralib ketishdan saqlaningiz. Albatta Alloh sizlarni kuzatib turuvchidir вЂќ.

(Mazkur oyatning mano tarjimasini bilan qiziqqanimizda uch tarjimada uch xillik ko'rdik. Aslan, so'zma so'z tarjima qilinsa o'zbekchada вЂњO'zaro so'rashadiganingiz Allohga va qarindoshlikka taqvo qiling вЂќ degan mano chiqarkan. Uch mutarjimning o'zbekcha so'z ishlatishlarida xatolik yo'q, mano ham buzilmagan, shu uchun erkinroq tarzda mano bayonini oldik. Ko'pchilik вЂњtaqov вЂќ atamasini вЂњXudodan qo'rqish вЂќ deb ishlatadi. Bu haqda avvalgi risolamizda fikr bildirgan edik. Bu o'rinda shu masalani eslash ehtiyoji tug'ildi. Allohni biz rahmli, mehribon, gunohlarni kechiruvchi, tarbiyalovchi, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi

kabi sifatlar bilan taniymiz. Shu bois, mehribon va rahmli zotdan qo'rqish mantiqsizday tuyuladi. Atamani to'g'ri tarjima qilish uchun вЪњg'azabidanвЪќ degan so'zni qo'shish ehtiyoji tug'iladi. Yani gunoh ishlardan qaytmay Allohning qahru g'azabiga uchrashdan qo'rqish. Gunoh ishlari uchun do'zax olovida yonishdan qo'rqish... Agar bu fikrimiz xatoga yo'yilmasa, oyatni вЪњqarindosh-urug'lar bilan ajralishib ketsangiz Allohning g'azabiga uchrasiz.

Allohning qahri g'azabiga uchrashdan qo'rqingizвЪќ, tarzida tushunsak to'g'ri bo'ladi.) Odatda, kishilar o'zaro mehr va lutfga erishmoqchi, o'zlariga nisbatan moyillik uyg'otmoqchi bo'lsalar, oraga Allohning nomini qo'shadilar. Allohning nomi bilan odamlar orasida o'zaro ahdnomalar tuziladi, vadaga vafo qilish so'raladi va hatto qasam ham aytiladi. Bazan ikki tomon orasida qarindoshlik rishtalari bo'lsa, qasam yoki ahdnomaga bu ham qo'shiladi. Bu borada Allohning g'azabidan qo'rqish - muqaddas aloqalarni ulug'lash, haq-huquqlarini ado etish, ularni muhofaza qilish, uzmaslik bilan ifodalanadi. Alloh barcha harakatlarimizni kuzatib turadi, yaqinlarimizga nisbatan ozgina xiyonat qildikmi, bas, jazo muqarrardir.

вЪњAlbatta Alloh adolatga, chiroyli amallar qilishga va qavm-qarindoshlarga yaxshilik qilishga buyurur hamda buzuqlik, yomon ishlar va zo'ravonliklardan qaytarur. U Zot shoyad ibrat-eslatma olarsizlar, deb sizlarga pand nasihat qilurвЪќ (Nahl surasidagi 90-oyatning manosi). вЪњMufassirlar shohivвЪќ deb ezozlangan Abdulloh ibn Mas'uddan (r.a.) qilingan rivoyatda u kishi вЪњQur'ondagi eng jamlovchi oyat shu oyatdir. Ergashiladigan yaxshilikni ham, chetlanishi lozim bo'lgan yomonlikni ham jamlab, zikr qilganвЪќ, deydilar.

Endi yana baxti qaro oilaga qaytaylik: bu ikki oilada o'zaro adolat bormidi? Adolat yo'q joyda bir-biriga chiroyli amallar (ehson) mavjud bo'lishi mumkinmi? Alloh yaxshilik qilishga buyurgan edi, ular-chi? Buzuqlik, yomonlik, zo'ravonlikdan qaytargan edi, ular qaytdilarmi? Biz buzuqlik (fahsh) deganda asosan er-xotin orasidagi nomusga oid muomalani tushunamiz. Aslida bu so'zning lug'aviy manosi вЪњhaddan oshishlikвЪќni anglatadi. Demak mazkur holatda bu ikki oilaning bir-birlariga dushmanlik bobida haddan oshganlarini tushunish mumkin. Yana afsuski, ular eng muhim narsani - Allohning pand-nasihatlarini quloqqa ilmadilar. Oqibati esa o'zingizga malum.

Shulardan voqif bo'lgach deylilik-ki:

-Ey ko'ngil! G'aflatdan uyg'on! Sen yuz o'girib ketmoqchi bo'layotgan kimsaning kimligini unutma! U akang yoki ukangdir, u orang yoki singlingdir. U eng yaqin qarindoshingdir. Ularga nisbatan qalbingda nafrat uyg'onsa, ulardan yuz o'girib ketishni ixtiyor qilganing damda bir daqiqa shoshma. Ha, seni do'zax olovidan asrab qolish uchun shu bir daqiqa kifoya qiladi. Shu bir daqiqa ichida Allohning buyurganlarini aql ko'zguna ko'rib olsang bas. Shu bir daqiqa ichida johillik uyqusidan uyg'onishga o'zingda kuch topsang bas. Ey ko'ngil, agar sen shaytonning yo'liga adashib kirib qolgan bo'lsang - qarindoshlaringdan uzoqlashgan bo'lsang, esingni yig'ib olginu Rahmon yo'liga qaytishga shoshil. Qarindoshlaring bilan sen talashayotgan narsa aslida seniki emas. Sen talashayotgan narsa senga ham, qarindoshlaringga ham vafo qilmaydi. Sen talashayotgan narsangga ega chiqish ham mumkin, ammo ko'p o'tmay uni baribir tashlab, boqiy dunyoga ketasan. Agar qarindoshlaringga silai rahm qilsang, sen oxiratga ularning duolari bilan borajaksan. Oxirat eshigini o'zingga hamisha hamroh iymon nu

Anas ibn Molikdan rivoyat qilishlaricha, uch toifa odam qiyomat kuni Arshning soyasida bo'larkan. Shulardan dastlabkisi silai rahm qiluvchi ekan. Bundan mano: uning umri va rizqi silai rahm bilan ziyoda bo'lgan deganidir. (Arshning soyasidagi ikkinchi toifa - eri o'lib, yetim farzandlarini Alloh behojat qilgunicha tarbiyalagan xotin, uchinchi toifa - taom tayyorlab, yetim miskinlarga yedirgan odam.) Odam bolasining Arshning soyasiga yetkazadigan silai rahm deganda biz nimalarni tushunamiz? Keling, ulamoning fikrlarini bir eslaylik:

Ulug'larimizning aytilishlaricha, silai rahmda o'nta maqtalgan xislat bor ekan:

Silai rahmda Allohning rizosi bor, chunki Alloh taolo shunga buyuradi.

Ularga (mo'minlarga) xursandchilik yetkazmoqlik bor. Chunki ular silai rahm bilan quvonadilar.

Silai rahmda maloikalarning ham xursandchiligi bor. Chunki ular ham silai rahmga guvoh bo'lgan onlarida quvonadilar.

Silai rahmda musulmonlar shaniga yaxshi maqto'v bordir.

Silai rahmda iblisga g'am yetkazmoqlik bordir.

Umrning ziyoda bo'lishida silai rahmning hissasi bor.

Rizqning barakali bo'lishini silai rahmsiz tasavvur etmoq qiyin. Bunga misol tariqasida bir rivoyatning qisqa bayonini beramiz:

Ota-onasi vafot etgan aka-ukaga bir qopgina bug'doy meros qoladi. Aka-uka meros haqiga xiyonat qilmay, uni teppa-teng bo'lib oladilar. Shu kuni akaning ko'ngli og'riydi: вЪњUkam hali uylanmagan, ham o'zini boqishi kerak, ham to'yga yig'ishi kerak.

Bolalarimning rizqini Allohning o'zi beravвЪќ, degan o'yda omborxonaga kirib o'ziga ajratib olgan ulushdan ukasining qopiga to'kadi. Shu kuni ukaning ham ko'ngli og'riydi: вЪњMen bitta qornimni eplab to'ydirib yurardim. Akamning oilasi qiynalib qolishi mumkinвЪќ, degan o'yda u ham omborxonaga kirib o'zining ulushidan akasining qopiga to'kadi. Bu hol har kuni takrorlanaveradi. Ammo ikkala qopdagi bug'doydan bir misqol ham kamaymaydi. Shunda aka-ukalar ajablanishib, bir donoga maslahatga borganlarida u bor gapni yashirmay aytilishlarini talab qiladi. Voqeadan xabar topgach esa вЪњBir-birlaringizga mehr-oqibatli bo'lganingiz uchun Alloh sizlarning rizqingizga shunday baraka beribdi. Oralaringizdagi silai rahm barqaror ekan, rizqingiz shunday mo'l bo'laveradivвЪќ, debdi. Bu xususda Rasululloh (s.a.v.) marhamat qilganlarkim: вЪњKim rizqi mo'l bo'lishini, ajali orqaga surilishini istasa, qarindoshlik aloqalarini uzmasinвЪќ.

Silai rahm tufayli vafot etib ketganlarga ham xursandchilik yetadi. Foni' dunyoni tark etgan ajdodlar ruhi avlodlarining silai rahm bilan bog'langanlaridan quvonadi.

Silai rahmda do'stlikning ziyoda bo'lishi bor. Bir sabab o'rtaga tushib, xursandchilik va g'amdan to'planishgan do'stlar bir-birlariga yordam beradilar va bu ulardagi do'stlikning ziyoda bo'lishiga yordam beradi (Bu xususda вЪњEng yaxshi do'stvвЪќ deb nomlanuvchi bobda batafsil fikrlashish niyatimiz bor).

Silai rahmda kishining vafotidan keyin ham ajrning ziyoda bo'lishi bor. Chunki qarindoshlar uni o'lganidan keyin ham duo qiladilar, yaxshiliklarini doimo eslab yuradilar. Buning aksi bo'lsa, rivoyatdagi holat yuzaga kelishi mumkinki, Alloh saqlasin! Yahyo ibn Salimdan rivoyat qiladilar:

вЪњMakkada biz bilan birga Xuroson ahlidan bo'lgan bir kishi bor edi. U solih kishi edi. Odamlar unga o'z omonatlarini ishonib topshirar edilar. Bir kishi unga o'n ming dirham pulini qoldirib o'zi safarga ketdi. Omonat qo'ygan kishi safardan qaytganida u solih odam vafot etgan edi. Shu bois omonatchi u kishining oilasidan molini so'radi. Oila ahli bundan bexabar edilar. Omonatchi olimlarga murojaat qilib, maslahat so'radi. Ular aytdilarkim: вЪњBizlar u xurosonlik birodarimizni jannat ahlidan deb umid qilamiz. Kechaning uchdan biri yoki ikkinchisi o'tgan onda Zamzam bulog'i yaqiniga kelgin va bu so'zlar bilan xabar bergin:

В ЁEy Falonchining o'g'li Falonchi! Men omonat egasiman! В Ёk Shunday desang, insha Alloh, javob eshitgaysan В Ёk. Haligi odam kelib, bu so'zlarni uch marta aytdi. Hech kim javob bermadi. U odam olimlarning huzuriga qaytib, voqeani bayon qildi. Ular dedilarkim: В ЁAlbatta, biz Allohnikimiz va Allohga qaytajakmiz! Bizlar u birodarimizning do'zax ahlidan bo'lmog'idan qo'rqaypmiz. Endi Yamanga borgin, u yerda bir vodiy bor. Uni Barxut deydilar. U yerda bir quduq bor, uni top va kechani uchdan biri yoki uchdan ikkisi o'tganida: В ЁEy Falonchining o'g'li Falonchi! Men omonat egasiman! В Ёk deb baqirgin В Ёk, U kishi Yamanga borib, vodiydagi quduqni topdi. Birinchi chaqiruvdayoq javob eshitildi. Shunda mol egasi afsuslanib: В ЁSho'ring qursin, seni bu yerga qaysi amallaring tushirdi? Axir sen yaxshilik egasi eding-ku? В Ёk dedi. Javob bo'ldikim: В ЁXurosonda mening ahli baytlarim, qarindoshlarim bor edi. O'lgunimga qadar ular bilan bordi-keldi qilmay, uzilishib ketdim. Alloh taolo meni shu azob bilan ushlab, bu manzilga tashladi. Ammo molingdan havotir olma. Men o'g'limga aytib qo'yishga ulgurmagan edim. Uyimning falon yeriga ko'milgan, o'g'limga aytgin, molingni kavlab olib, o'zingga qaytaradi В Ёk. Omonat qo'ygan odam molini qaytarib oldi. Shu mol bahona silai rahmning kuch-qudratini ham his qildi. O'tmishdan bugunga qaytib fikr qilaylik: u odam Xurosondagi qarindoshlaridan uzilgan ekan. Oradagi masofa necha oylik mashaqqatli yo'l bo'lsa-da, kishiga silai rahmni uzishga bahona bo'lolmas ekan. Biz-chi? Bir shaharda, hatto bir mahallada, hatto bir hovlida turganimiz holda jigarlarimizdan uzilib ketganimiz uchun Allohdan qanday jazo olamiz? Xasta ovozimiz qaysi sahroning qaysi qurib qolgan qudug'idan chiqar ekan? Alloh saqlasin! Shu fikrning o'ziyoq kishi vujudini qo'rquvga solib, qaqshatib yuboradi... Qo'rqmay ham bo'ladimi, axir Rasululloh (s.a.v.) В ЁSilai rahm qilmaydigan kishi jannatga kirmaydi В Ёk, deb ogohlantirganlar-ku? Tasavvur qilaylik-ki, qiyomatda kimdir umid bilan jannat sari boradi ammo unga jannatning hech bir eshigi ochilmaydi va hukm aytilarki: В Ёdo'zaxga kir! В Ёk deb. Qanday sharmandalik! Qanday fojia bu!

Yuqorida sanalgan o'n xislatni jamlab turib, silai rahm - yolg'iz Allohning roziligi uchun faqat xolis ravishda bajariluvchi ibodatlardan biri, desak ham bo'ladi. Silai rahmda tana, hasad, riyo, tama, kibr kabi illatlarga zinhor o'rin bo'lmaydi. Kimda bunday illatlardan bittasi bo'lsa ham silai rahmdan so'zlamog'i quruq safsata bo'lib qoladi. Abdulloh ibn Amr (r.a.) aytdilar: В ЁRasululloh (s.a.v.) В ЁAvval silai rahm qilgan kishiga keyin javob tariqasida silai rahm qiluvchi haqiqiy silai rahm qiluvchi emas. Chinakamiga silai rahm qilish deb silai rahm qilishdan bosh tortgan kishiga silai rahm qilishni aytdilar В Ёk, - dedilar В Ёk. Biz hayotimizda mazkur hadisga amal qilmaydiganlarni uchratib turamiz. В ЁFalonchi shifoxonada ekan, ko'rib kelaylik В Ёk, desangiz В ЁU men kasal bo'lganimda kelib ko'ribmidi, bormayman В Ёk, degan javobni eshitamiz. Bir kuni В ЁFalonchi birodarimiz vafot etibdilar, fotihaga borib kelaylik В Ёk, degan taklifga В ЁU odam otam o'lganida yigirma oshiga kelmagan edi, menam fotihasi bormayman В Ёk, degan javobni eshitib, hayratdan yoqa ushladik. Yaqinda bir kishining xolasi vafot etganini eshitib, taziya bildirganimizda undan В ЁHayotlik paytlarida bizga foyda-zararlari yo'q edi, o'lganlaridan keyin ham hech narsa yo'qotmagandaymiz В Ёk, degan ahmaqona javobni eshitdik. U odam qarindoshchilikdan foyda ko'zlab yashar ekan, Allohning rizoligini izlamas ekan. Uning o'tmas aqli xolasining o'z onasidan yodgor ekanini ham fahm etmas ekan. Xolasini ziyorat qilmay yurgani uchun onasining ruhi azob chekkanini ham o'ylab ko'rmagani aniq. O'zining yaqin qarindoshiga shunchalik bemehr odamning boshqalarga bo'lgan hurmatini soxta deyishga haqqimiz bormi?

Shifoxonada davolanayotganimda yon xonadagi badavlat va amaldor bemorni tanishlarimdan biri har kuni yo'qlardi. Amaldorning hech narsaga muhtojligi bo'lmasa-da, qog'oz xaltalarni to'ldirib, nimalardir olib kelardi. Bazi kunlari ikki marta yo'qlardi. Men uning bu serqatnovligidan g'ashlanmadim. Agar niyat xolis bo'lsa, bemorni yo'qlash ham savob. G'ashligim boshqa tomonda edi: uning ukasi, mening birodarim bedavo xastalikka chalilib, ikki yildan beri to'shakda harakatsiz yotardi. Uning dori-darmonidan birodarlari xabar olib turishardi. Allohga shukrlarkim, dunyoda iymon va insof egalari ko'p, nochorlar qarovsiz qolmaydi. Ammo achinarlisi, shifoxonadagi boy va amaldor odamni tinmay yo'qlayotgan bu В Ёserhimmat В Ёk o'z ukasidan xabar olmasdi. Bemorning xonadonidagi biron marosimga aytilsa, kelardi. Shunda ham В Ёikki barmog'ini burniga tiqib В Ёk kelardi.

Atrofdagilarga safsata sota-sota ketardi. В ЁEhtimol aka-uka orasida gap qochgandir, kelishmovchilik bordir? В Ёk dersiz? Yo'q, talashib-tortishish bo'lmagan. Faqat akada iymon yo'q. Ukasidan foyda kelmasligini bilib, uni mensimaydi. Afsuslarkim, bu dunyoda В Ёsendan ugina, mendan bugina В Ёk degan shior ostida yashaydiganlar ham bor, biz ularga Allohdan insof tilaylik-da, bu sharaflil hadisi yodga olaylik: Abdulloh ibn Abu Avf (Alloh undan rozi bo'lsin) aytdilar:

В ЁArofot kechasida Payg'ambar (s.a.v.) bilan birga o'tirgan edik. Aytib qoldilarkim: В ЁSilai rahmni uzgan kishi bu kecha men bilan birga o'tirmasin, bizdan ketsin В Ёk. Majlis ahlining poygagida o'tirgan kishidan boshqa hech kim o'rnidan turmadi.

Bir oz vaqt o'tganidan so'ng u kishi qaytib kirib, joyini egalladi. Shunda Rasululloh (s.a.v.) В ЁNima uchun sendan boshqa hech kim davramizdan turmadi? В Ёk deb so'radilar. U kishi aytdikim: В ЁEy Rasulalloh, sizdan boyagi tanbehni eshitib, xolamnikiga bordim. U kishi bilan janjallashib, oramiz buzilgan edi. Borganimda xolam menga В ЁNima uchun kelding, bunaqa odating yo'q edi-ku В Ёk, deb so'radilar. Men siz aytgan hadisning xabarini berdim. Mendan oldinroq xolam kechirim so'radilar, men ham uzrimni aytdim В Ёk. Rasululloh (s.a.v.) bu gapni eshitib dedilar: В ЁYaxshi qilibsan, bu kechani biz bilan birga o'tkaz. Ogoh bo'linglarkim, Allohning rahmati silai rahmni uzgan qavmga tushmaydi В Ёk. Tabaroniy hazratlari mazkur hadisni bunday sharh etganlar:

-Millat ichida qarindoshlik aloqalarini uzganlar bor bo'lsa, bu millatga farishtalar tushmaydi.

Yana Tabaroniy aytdilar: В ЁIbn Mas'ud bomdod namozidan keyin bir jamoat ichida o'tirardi. Dediki:

-Xudo haqqi, qon-qarindoshlik aloqalarini uzganlar bor bo'lsa, oramizdan turib ketsin! Biz Rabbimizga duo o'qimoqchimiz. Qon-qarindoshlik aloqalarini uzganlar bor joyda osmon eshiklari yopiq bo'ladi, duolar qabul etilmaydi.

Bu ogohlantirishga etibor beraylik: silai rahmni uzgan kishi faqat o'ziga jabr qilmay, uning kasri butun qavmga urar ekan. Demak, qarindoshchilikni uzgan birodarlarimizga vaqtida tanbeh berib turishimiz zarur ekan. В ЁGapirsam ranjiydi, qarindoshlar bugun bo'lmasa ertaga topishib ketishar В Ёk, degan istiholani yig'ishtirib qo'yib, oradagi silai rahmni tiklashga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak ekan. В ЁBugun bo'lmasa ertaga... В Ёk Bugun silai rahm uzilgan bo'lsa, umid qilganimiz ertaga kim bor, kim yo'q. Mayli, bemehr birodarimiz bizning bugungi tanbehimizdan ranjisin, biroq keyingi ogohlantirishimiz tasir etib qolar? Silai rahmni tiklasa, unga jannat eshiklarining ochilishiga hissamiz qo'shilgani uchun hech bo'lmasa qiyomatda bizdan rozi bo'lar?

Yuqorida bayon etganimiz hadisi sharif kabi yana bir hadisi sharif borki, mazmun bir oz o'xshasa-da, masala muhim bo'lgani uchun uni ham yodga olishni maqul ko'rdik.

Bir kishi Rasululloh (s.a.v.) huzurlariga kelib: В ЁMen qarindoshlar bilan silai rahm qildim, ular mendan uzildilar. Ularni afv etdim, menga zulm qildilar. Ularga yaxshilik qildim, menga yomonlik qaytardilar. Ularga endi xuddi o'zlaridek muomala qilaverayinmi? В Ёk -dedi. Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: В ЁYo'q, bunday qilsang, ularning gunohlariga sherik bo'lib qolasan. Sen ularga yaxshilik va silai rahm qilishda davom etaver. Shunda senga Allohdan quvvat davomli bo'ladi В Ёk. (Boshqa bir rivoyatda

Rasululloh (s.a.v.) arz qilgan kishi v Ё Ё Ular jabru jafu qilsalar ham men sabr etaman Ё Ё , deganida unga qarab bunday deganlar: v Ё Ё Agar gaping to'g'ri bo'lsa, ularning og'ziga qizdirilgan kulni solganday bo'libsang. Sen shu ishingni davom ettiraversang, Alloh taolo senga yordam beradi va ularning jabru jafosini daf qiladi Ё Ё .)

Hadisi qudsiyda deyiladiki: v Ё Ё Ey Odam farzandi, qarindoshlaringga yaxshilik qilib, qo'shilib yur, umringni uzun qilayv Ё Ё . Umrning uzaytirilishi masalasida ayrim olimlarimiz v Ё Ё Taqdir avvaldan belgilab qo'yilgan bo'lsa, masalan, umri falon yil bo'lsa, Alloh uni o'chirib, uzaytiradimi? Ё Ё degan savolni o'rta qo'yishsa, boshqalari dalil sifatida mana bu oyati Karimani keltiradilar: v Ё Ё Alloh O'zi xohlagan narsani (yani hukmni) o'chiruvchi va O'zi xohlagan hukmni barqaror qiluvchi. Ona kitob (boshqacha aytilsa - Asl kitob, yani Lavhul-Mahfuz) Uning huzuridir Ё Ё (Rad surasidan). Shunga ko'ra hadisi qudsiyini biz aslan, to'g'ridan to'g'ri tushunsak bunday mano o'qiyamiz: kim silai rahm qilsa, umridan uch kun qolgan bo'lsa ham, Alloh taolo uning umrini o'ttiz yil ziyoda qiladi. Agar silai rahmni uzgan paytida umridan o'ttiz yil qolgan bo'lsa, Alloh taolo uni uch kunga tushirib qo'yadi. Bu tushuncha bo'yicha biz - omilarning adashishimiz tabiiy, lekin ulamo ham ixtilof qiladilar. v Ё Ё Tanbehul g'ofiliy v Ё Ё da bu masalaga oydinlik kiritilgan ekan: bazilar aytadilar: v Ё Ё Kim silai rahm qilsa, umri ziyoda bo'ladi Ё Ё , degan xabar zohiriydir. Yana bazilar aytadilar: v Ё Ё Taqdir o'zgarmaydi, chunki Alloh taolo v Ё Ё Bas, qachon ularga ajallari yetsa, uni biron soat ketga ham, ilgari ham sura olmaydilar Ё Ё (Arof surasidan), degan. Lekin umrning ziyoda qilishning manosi o'limdan keyin uning savoblarini yozishda davom etmoqlikdir. O'limidan keyin ham unga savob yozilaverilsa, go'yoki umri ziyoda qilinganday bo'ladi. Mening Dilshod ismli birodarim bo'lardilar (Alloh uni rahmat qilsin). Birodarimning mo'minga xos fazilatlarini anchagina edi. Ammo bittasi haqida atrofdagi odamlar ham ko'p gapirardilar. Bu fazilati uning silai rahm odobini bekamu ko'st bajarishida ko'rinardi. Uning akasi besh singlisi va bir ukasi bor edi. Do'stim boshqa hovli-joy qilib chiqib ketgandilar. Ammo men uni kunda bo'lmasa ham kun ora ota hovliga, muhtarama onalarini ziyoratiga kelishlariga guvoh bo'lardim. Bazan xizmatda ushlanib qolsalar ham, v Ё Ё ertaga borarman Ё Ё , demasdan odatlarini kanda qilmay ziyoratga kelardilar. Onaga nisbatan bu qadar mehribonliklari uchun ajrlari bisyordir, insha Alloh. Ammo besh singilga bo'lgan mehribonliklari onaga bo'lgan ehtiromlaridan kam emasdi. Singillarini ham tez-tez yo'qlashni kanda qilmasdilar. Bir kuni v Ё Ё Singillarning ko'ngli yarimta bo'ladi. Ular har kuni uyalaridan bir odam kelishini kutib yashadilar. Mening qadam bosib borishdagi zahmatim ularning meni ko'rganlaridagi quvonchiga arzimaydi Ё Ё , deganlari eshmda.

U damlarda masalani diniy mohiyatidan bexabar edim. Keyinroq bilsam, do'stim Allohning farzlaridan birlarini ado etish bilan band ekanlar. Rasulullohning (s.a.v.) v Ё Ё Allohning g'azabidan qo'rqinglar va silai rahm qilinglar. Chunki u sizlar uchun dunyoda hamma

narsadan yaxshiroqdir, mustahkamroqdir. Oxirida sizlar uchun yanada yaxshiroqdir Ё Ё degan muborak so'zlarini hadis kitoblarida o'qiganimda shu do'stimni eslagan edim. v Ё Ё Oxirida sizlar uchun yanada yaxshiroqdir... Ё Ё Demak, do'stim oxirat saroyini tiklab yurgan ekan. Yana aytilgan ekanki: v Ё Ё Agar sizda biron qarindosh bo'lib, oyog'ingiz bilan yurib bormasangiz (yani ziyoratga bormasangiz deyilmoqchi), molingizdan biron narsa bermasangiz, bas, albatta undan uzilibsiz Ё Ё . Alloh taolo tushirgan bazi sahifalarida: v Ё Ё Ey Odam farzandi! Moling bilan silai rahm qilgin, agar o'zingda bor narsaga baxillik qilsang yoki moling kam bo'lsa, oyog'ing bilan borgin (yani ziyorat qilaver) Ё Ё deyilgan Ё Ё . Rasululloh (s.a.v.) bu xususda v Ё Ё Qarindoshchilikni bog'langlar, agar salom bilan bo'lsa ham Ё Ё , deb takid etganlar. Shu o'rinda ziyorat odobi masalasida ham fikrlashib olsak. Ayrim odamlar qarindoshlarini yo'qlashni niyat qilishadi-yu, lekin kamxarjlik bo'sidanmi yo bozorga tushishga erinibmi, v Ё Ё quruq boramanmi Ё Ё deb bu yaxshi amalni amalga oshirishni keyinga suraveradilar. Shaharlarda novvoylar ko'p, yo'l-yo'lakay to'rtta non olib kirib yo'qlash odat tusiga aylanib qolgan. Qishloqlarda ayollar ziyorat maqsadida maxsus non yopadilar yoki o'zlarining bog'laridan u-bu oladilar. Agar bularning ham iloji bo'lmasa salom berib kirib borishning o'zi ham uyat sanalmas ekan. Bugungi kunda yo'qlashning yangicha turlari ham mavjud. Maktub yozib, yoki telefonda hol-ahvol so'rab turish ham yaxshi. Xalqimizda yaxshi maqol bor: v Ё Ё Borsang - qarindosh, bormasang - begonav Ё Ё . Begonalikdan Alloh saqlasin! Men umrning ziyoda bo'lishini shu do'stim misolida ko'raman. Hozir shukrkim, akalari, ukalari, beshala singillari hayotlar. Shubham yo'qki, ular akalari har kuni mehr bilan eslaydilar. Uning haqqiga duolar qiladilar. Oilada silai rahmdan so'z ochilsa v Ё Ё tog'ang shunday mehribon odam edi, uning hayoti senlarga ibrat bo'lsin Ё Ё , deb farzandlariga tarbiya beradilar. Bu farzandlar vaqti kelib o'z farzandlariga v Ё Ё mening tog'am shunday musulmonsheva edilar Ё Ё deb ibrat qilib eslashlariga ham ishonaman. Kab-ul Axbor degan ekanlarkim: v Ё Ё Muso alayhissalom hamda bani Isroil uchun dengizni yorgan Allohga qasamki, albatta Tavrotda yozilgan: v Ё Ё Allohdan qo'rqing, ota-onaga yaxshilik qiling va qarindoshlarga silai rahm qiling, umringiz ziyoda bo'ladi. Yengilingizni yanada yengil qiladi, qiyinchilingizni ketkazadi Ё Ё . Keling, ayni damda kitobdagi satrlardan ko'z uzaylikda, do'stim Dilshod va unga o'xshagan barcha mo'min-musulmonlar haqqiga duo qilaylik:

-Yo Rabbimiz Alloh! Bizlarni silai rahmni uzmaydigan bandalarindan qil. Hayotlik choqlarida silai rahmni uzmagani birodarlarimizning oxiratlarini obod etgin. Qiyomatga qadar tug'ilib yashaydigan zurriyodlarini ham ular kabi mehribonlardan qilgin. Bizlarning qalblarimizdagi mehr-muruvvatni ham ziyoda et. Vaqtiki kelib, bu dunyoni tashlab, boqiy dunyoga ketganimizda ortimizda qolganlar bizlarni ham yaxshi fazilatlarimizni eslab, duolar qilsinlar!

Bazi birodarlarimiz qarindoshlaridan uzoqlashadilar-da, bu xatolarini yashirish uchun o'sha qarindoshlarini ayblaydilar. Bir ibodatli birodarimizning gaplaridan ajablangan edik. Ammalari haqida so'zlay turib aytdilar: v Ё Ё Men ammamnikiga qadam bosmay qo'ydim, o'zi ham, bolalari ham namoz o'qimaydi Ё Ё . Buni musulmonchilikka yo'yishi ayniqsa ajablanarli edi. Agar u chin musulmon bo'lsa, yaxshi odoblarini namoyon etib o'sha benamoz ammasini ziyorat qilavermaydimi, yaxshi fazilati bilan ibrat bo'lavermaydimi, tez-tez ziyoratga borib davat qilavermaydimi? To'g'ri, bir-ikki davat qilibdi, kitoblar olib borib beribdi. Lekin musulmon uchun bu kifoya emas-da! Alloh uning qarindoshlariga hidoyat bermaguniga qadar davatning keti uzilmaydi. Ehtimol, Alloh bu birodarimizning sabrini, dindagi sabotini sinamoqchi bo'lib, qarindoshlariga hidoyat berish pallasini keyinga surgandir? Bu birodarimiz kabi yanglishgan kishilarga Maymun ibn Mahron aytgan ibratni eslatishni joiz deb bildik:

v Ё Ё Uch narsada kofir va musulmon barobardir: kim bilan ahdlashgan bo'lsang, ahdingga vafu qilgin - xoh kofir bo'lsin, xoh musulmon. Albatta, ahd Alloh uchundir. Orada qarindoshchilik bo'lsa, silai rahm qilgin - xoh kofir bo'lsin, xoh musulmon. Kimiki senga omonat bergan bo'lsa, omonatini ado qilgin - xoh kofir bo'lsin, xoh musulmon Ё Ё .

Yana bir birodarimiz to'y qilayotgan yaqin qarindoshiga yordam berishni istamabdi. Sabab: to'y qilayotgan odam ziyofatni zamonaviy tarzda - dasturxonaga aroq qo'yish bilan o'tkazmoqchi bo'libdi. Birodarimiz buning nomaqbul ekanini aytsa-da, u ko'nmabdi. Bu masala yuzasidan fikr bildiruvchilar orasida v Ё Ё Yordam pulini beravermaydimi, yordam bergani uchun savob oladi, bu pulni nojoiz sarf qilgan odam esa gunohga botaveradi Ё Ё , deyishlari ham mumkin. Gap shundaki, o'sha qaysar odam boshqalardan qarz olib, niyatiga yetadi va oqibatda kamxarjligi tufayli oilasi bilan ozor chekadi. Badavlat qarindoshi pul bersa shu

ozordan holi bo'lardi, shundaymi? Shundaylikka shunday, ammo shariat nuqtai nazaridan qararak, birodarimiz pulining haromga sarf etilishini bila turib bersa durust bo'lmas edi.

Rabbimiz Alloh taborak va taolo rahmni yaratib, O'zining Rahmon sifati bilan marhamat etdiki: **ВЪНЪ**Men Rahmonman, sen rahmsan. Kim seni uzsa, uzilaman; kimiki senga bog'lansa, bog'lanaman**ВЪНЪ**. Arshdan o'rin olgan Rahm esa kecha va kunduz der ekanki: **ВЪНЪ**Yo Parvardigoro! Sening yo'lingda kimiki menga bog'lansa, bog'langin, kimiki Sening yo'lingda meni uzsa, uzilgin**ВЪНЪ**.

(Bizda ko'chalarga turli shiorlar osib qo'yish bor. Agar bu odat uyga ham ko'chirilsa aynan shu so'zlarni ibrat uchun yozib qo'yishni taklif qilgan bo'lardim. Chunki silai rahm uchun Allohning xayrli mukofoti bo'lgani kabi, bu odobni tark etgani uchun azobli jazosi ham borligini bir nafas ham unutmazligimiz zarur. Bu xususda hadisi sharifda takid etilganidek, azob-uqubat qiyomat kuniga asrab qo'yilganidan tashqari shu dunyoning o'zida ham insonning o'ziga jabr yetkazadigan gunoh - kishilarga zulm yetkazish va qavm-qarindoshlarga qilinadigan silai rahmni uzib qo'yishdir. Bu jazoni atrofdagilar ham ko'rib turishadi. Masalan, mavzu avvalida bayon qilganimiz mash'um hodisaga qo'shimcha sifatida aytishimiz mumkinki, qarindoshlaridan uzilgan odamning topgan-tutganlaridan baraka ketadi, farzandlari orasidan mehr qochadi, hali tiriklik chog'idayoq farzandlarining meros talashib yuzko'rmas bo'lib ketayotganlariga guvoh bo'ladi.)

Abdurrahmon ibn Avf (r.a.) Rasulullohdan (s.a.v.) rahm xususida eshitgan hadisni rivoyat qiladilar:

Rasululloh (s.a.v.) aytibdilar: **ВЪНЪ**Alloh taolo **ВЪНЪ**Men dunyodagi barcha borliqqa rahm qiluvchi Rahmonman va rahmni yaratib, Rahmon degan nomimning harflaridan tarkib topgan **ВЪНЪ**rahm**ВЪНЪ** so'zini unga ism qilib qo'ydim. Endi kim rahmni (qarindoshlikni) uzmasdan yursa, Men undan rahmatimni uzmayman va kim uni uzib qo'ysa, Men ham undan rahmatimni uzib qo'yaman**ВЪНЪ**, degan**ВЪНЪ**.

Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qilingan hadisda Rasululloh (s.a.v.) bu mavzuga yanada aniqlik kiritib, aytadilar:

ВЪНЪAlloh taolo xalqlarni yaratib bo'lganidan keyin Rahm turdi. (Bu o'rinda **ВЪНЪ**rahm**ВЪНЪ** atamasiga olimlarimiz qarindoshlar va bir-biriga bog'lanadigan nasab silsilasi nazarda tutiladi, deb izoh beradilar.) Alloh undan: **ВЪНЪ**Nega turding?**ВЪНЪ** deb so'rganida u: **ВЪНЪ**Ey Rabbim, men uzilib qolishdan panoh so'rovchi sifatida huzuringda turibman**ВЪНЪ**, deb javob berdi. Shunda Alloh taolo: **ВЪНЪ**Ey Rahm, seni uzgan kishilardan marhamatimni uzsam, shunga rozi bo'lasanmi?**ВЪНЪ** deb so'rganida Rahm: **ВЪНЪ**Ey Parvardigori olam, men bunga albatta roziman**ВЪНЪ**, degan edi. Shunda Alloh taolo unga **ВЪНЪ**Mening senga vadam shudir**ВЪНЪ**, dedib**ВЪНЪ**.

Abdulloh ibn Amr (r.a.) esa aytadilar:

ВЪНЪRasululloh (s.a.v.) bitta barmoqlarini egib: **ВЪНЪ**Rahim so'zi Alloh taoloning Rahmon nomidan shu barmog'imdek unib chiqqan bir shoxchadir. Uni birov uzmasa, Alloh taolo uzmaydi va kim uzib qo'ysa, Alloh ham uni uzib tashlaydi. Qiyomat kuni Alloh Rahmga fashohatli, o'tkir va ochiq so'zlaydigan til beradib**ВЪНЪ**, dedilar**ВЪНЪ**.

Demak, qiyomatda kim qarindoshlikni uzgan va kim uzmagani ochiq bayon qilish uchun Alloh rahmga til berar ekan va shu til bilan u kimlarningdir foydasiga va yana kimlarningdir zarariga o'z davosini isbot etarkan. Bu o'rinda Rasululloh (s.a.v.) barmoqlarini ko'rsatib juda go'zal tashbeh qilyaptilar. Chindan ham kishining barmog'ini birov uzmaydi. U faqat o'zining ehtiyotsizligi uchun biron nimada chopib olishi mumkin. (O'g'irligi uchun chopilsa ham o'zi aybdor.) Qarindoshlik zanjirini uzgani tufayli Allohning rahm-shafqatidan bebahra qolguday bo'lsa kishi o'zining ehtiyotsizligi yoki ahmoqligiga davo qilaversin. Qarindoshlar qanday sabablar bilan uzilish ketadilar?

ko'p hollarda meros talashish oqibatida;

ota-onalaridan meros qolgan bemehrlilik, loqaydlik, xudbinlik kabi illatlariga davo topolmaganlari tufayli;

kibr xastaligiga chalinganlari uchun. Bu holda boyroq qarindosh kambag'alroq jigarini mensimaydi. Bundan uning ko'ngli ranjidi. Silai rahm qilaman, degan niyatda bu kibrli qarindoshinikiga borganida u nimani ko'radi? Faqat takabburlikni ko'rsa ehtimol chidar. Ammo badavlat qarindoshining ko'zlarida **ВЪНЪ**Bu bir nimaga muhtoj bo'lib, tilanib keldimikin?**ВЪНЪ** degan havotirli savolni ko'rgach, chidashi qiyindir. Ammo bu ham Allohning bir sinovi, chidab sabr qilgani maqul.

hasad kasaliga bandi kambag'alroq qarindosh badavlatroq jigarini ko'ra olmaydi. Hatto **ВЪНЪ**Xudo nima uchun unga beradi-yu, menga bermaydi?**ВЪНЪ** deb Alloh bilan ham haq talashib qo'yadi. Yoki tinmay tamagirlilik qilaveradi. Yoki qarindoshi haqida g'iybat va ig'volarni tarqataveradi. Badavlat qarindosh undan bezadi. Ammo bu ham uning uchun bir sinov, chidab, sabr qilgani maqul. Hasadchi qarindosh bizga yomonlikni ravo ko'rsa, biz unga Allohdan insof tilab duo qilaylik. Allohning uni insof va hidoyat sari burgani bu sabrimiz uchun bizga bergan mukofoti bo'ladi.

qarindoshlar orasiga sovuqchilik tushishiga malum bir odamlarning bilib-bilmay aytib yuborgan gaplari ham sabab bo'lishi mumkin. Na ilojki, oramizda gap tashuvchilar kam emas. Gapni shunchaki tashib qo'ya qolsa mayli-ya, qo'shib, ko'pirtirib yuradiganlari ko'p. Shunday nomaqul gapni eshitganda ayrimlar **ВЪНЪ**bu bir g'iybat-dav**ВЪНЪ**, deb ortga tashlab yuborsalar - olam guliston! Lekin g'iybatligini bila turib ham g'azablana boshlaymiz. Holbuki, biron kishi qarindoshingizni yomonlasa, siz unga qo'shilishib yomonlamang. Aksincha, uning yaxshi tomonlarini eslay boshlang. Shunda vujudingizda uyg'onayotgan nafrat chekinadi. Nafratdan

qutula olmasangiz, o'zingizni qiynab yuravermangda, o'sha qarindoshingiz huzuriga boring.

ВЪНЪMenga qarshi shunday debsiz**ВЪНЪ** yoki **ВЪНЪ**Menga qarshi shunday ish qilibsiz, sababini tushuntiring, aybim bo'lsa men uzr so'ray, siz esa kechiring**ВЪНЪ**, deng. Balki sizga yomonlik istagan qarindoshning qalbi muhrlangandir, o'zi iymondan uzoqdir, u holda ko'p aytishmang, janjalga yaqinlashmang. Agar iymon egasi bo'lsa, yo'l qo'yilgan xatoni bartaraf etish choralari bo'yicha birgalikda fikrlashing. Ikki jigar orasida nifoq qo'zg'ovchilar orasida xotinlarni ko'p uchratamiz. Ovsinlarning bir-biriga nafrati kundoshnikidan yomonroq bo'ladi. Qarindoshlik zanjirini uzishga intiluvchi xotinlarni kaltafahmlikda ayblaymiz. Lekin ularning gaplariga laqqa tushib jigarlaridan yuz o'giruvchi erni-chi? Xotin **ВЪНЪ**akangiz (yoki opangiz) unday**ВЪНЪ** deb g'iybatni boshlaganida er **ВЪНЪ**To'xta, sen aytayotgan odam bilan biz bir qorindan tushganmiz. Shu odam menga yigirma (yoki o'ttiz) yildan beri aka. U mening beshigimni tebratgan. Uning kimligini, yaxshi-yomonligini sendan ko'ra men yaxshiroq bilaman**ВЪНЪ**, deb to'xtatsa, har qanday xotin ikkinchi marta o'yabroq gapiradigan bo'ladi. Yana shunday ayollar bor-ki, til bilan g'iybat qilganlari yetmaganday turli ilmu amal, jodular bilan qarindoshlardan qutulish choralari izlaydilar. Shukrki, bunday buzg'unchilardan ko'ra oqila ayollarimiz ko'proq. Bir birodarimiz ayollardan gap ketganida shunday degan edi:

-Xudo menga oqila ayol nematini berdi. Men akamdan ranjib bordi-keldini ham yig'ishtirmoqchi bo'lgan edim. Ahli ayolimga, farzandlarimga ham akamnikiga borishni taqiqlab qo'yg'an edim. Bir kuni ahli ayolim akamni tug'ilgan kunlari ziyorat qilib

kelibdi. Borib kelganini yashirmay o'zi aytdi. G'azablangan edim, bosiqlik bilan tushuntirdi: **ВѢЪ** Agar akangiz bilan yuzko'rmas bo'lib ketsangiz bilgan-bilmagan qarindoshlar, tanishlar birinchi navbatda meni ayblashadi. Chunki men kelinman. Jigarlar ozgina hafalashib yurishib keyin baribir yaqinlashib ketasizlar. Jigarni jigardan uzib bo'lmaydi. Akangiz yomon bo'lsalar siz yaxshi bo'lavering **Ѣќ**. Shu gapiga farishtalar omin deyishgan ekanmi, oradagi nifoq ko'tarildi.

kelajakda uzilib ketmaslik uchun quda bo'ladilar. Biroq, yoshlarning oilasi buzilishi natijasida yuzko'rmas bo'lib ketadilar. Aynan mana shu holat kishini o'yga toldiradi. Yaqin qarindoshlik zanjirini mustahkamlamoqchi bo'lgan aka-uka yoki opa-ukaning ayblari to'ydan keyin kashf etila boshlaydi. **ВѢЪ** Qizi unday ekan, yaxshi tarbiya bermabdi **Ѣќ**, deb bir tomon ikkinchi tomonga mag'zava ag'darsa, ikkinchi tomon ham tek turmaydi. Oqibat esa ravshan. Oilasi buzilgan yigit va qiz boshqa turmush qurib ketadi, biroq, uzilgan qarindoshlik tiklanmaydi. Bazan esa aksincha holat ham yuz beradi. Masalan, uka opasining yoki akasining o'g'lini kuyov qilish niyatida. Ochiq ayto olmaydi-ku, biroq tashriflarini behad quyuq qiladi. Bu uydagi har bir marosimda xotini bilan kelib xizmat qiladi. Keyin bir kuni orqavaroqdan eshitib qoladi-ki, u niyat qilgan yigitga qiz qidirishayotgan emish. Shunda yaqinlari orqali niyatini malum qilganda **ВѢЪ** Qarindoshdan kelin qilmayman **Ѣќ**, degan javobni eshitib, tashriflarini butkul uzmasa-da, avvalgi mehribonchiliklarini to'xtatadi.

Yana shunga o'xshagan turli katta-kichik sabablar ko'pki, bularning birontasi qiyomatdagi hisob chog'ida bizga bahona bo'la olmaydi.

Silai rahmni mukammal ravishda bajarishda qarindoshlik haqlarini ado etishlik ham bor. Alloh taolo bandalariga **ВѢЪ** Qarindoshlaringga, miskin va musofirlarga o'z haqqini ber! **Ѣќ** deb buyuradi. Isro surasidagi oyati Karimaning bu manosini Abdulloh ibn Abbos shunday tafsir qiladilar: **ВѢЪ** Bunda Alloh haqlarning eng zarurini berishga buyurdi. Mablag'i bo'lsa, amallarning eng afzali bo'lgan qarindoshlarga, miskin va yo'lda qolgan musofirlarga berishga davat qiladi. Agar mablag'i bo'lmasa, nochor kishilarga qanday muomala qilish lozimligini o'rgatadi: **ВѢЪ** Parvardigoringdan kutadigan rahmat (rizq) qo'lingda muayassar bo'lmay, ularga qaray olmasang, ularga muloyim gapir **Ѣќ**. Yani o'sha nochor odamni noumid qilmay **ВѢЪ** hozircha yo'q, ammo yana mol kelib qolar, shuni kutib turibman **Ѣќ**, kabi umidbaxsh so'zlar bilan yaxshi vada qilishga chorlayapti. **ВѢЪ** Qo'llaringni bo'yingga sirtmoqlab qo'yma, yani baxillik qilma. **ВѢЪ** Qo'llaringni juda ham yoyib yubormas **Ѣќ**, yani bor-yo'g'ingni berib yubormaki, u vaqtda malomatga qolasan. Chunonchi, keyin kelganlarga hech nima bera olmagan uchun seni malomat qiladilar. Hamma molingni olib ketganlar seni mashaqqatga solib qo'ygan bo'lishadi va sen toliqib qiynalib o'tiraverasan **Ѣќ**.

Demak, Qur'oni Karim ota-onaning farzanddagi haqqini bayon qilibgina qolmay, zikr etilgan oyatlarda qarindoshlarning ham bir-birlarida haqqi borligini bildirmoqda. Imkoni bor, o'ziga to'q kishida nochor, yordamga muhtoj qarindoshlarning haqqi bor. Bu haq ularga Alloh tomonidan berilgan. Boy-badavlat kishi o'z qarindoshlariga yordam berganida minnat yoki fazlni ko'rsatish uchun emas, balki Alloh amrini ado etish, Alloh belgilagan haqni berish uchun qilgan bo'ladi. Shuningdek, nochor qarindosh o'zining badavlat qarindoshidan biror narsa olganida uning huzurida xoru zor bo'lib emas, Alloh unga belgilagan haqni olayotganini tushunib, o'zini erkin tutib oladi.

Rum surasida ham bu masala yana takid etilib, **ВѢЪ** Allohning yuzini ko'rishni istaydiganlar uchun buning eng xayrli ish **Ѣќ** ekani bildiriladi. Rizq berish Allohning lutfi bo'lgach, rizqning kamayib qolishidan qo'rqmay, qarindoshlarga haqlarini berish kerak ekan. Yani, siz bilan bizning rizqimizda ularning ham haqlari bor ekan. Bu haqni tan olmasak, xasislik bilan o'zimizga o'zlashtirish choralarini istasak, bizga buyurarmikin?

Bazan aka-uka (yoki opa-singil) tutinganlarni uchratamiz (yaxshi amallardan hisoblanmish bu odob xususida do'stlikka oid bobda yana fikrlashamiz). Yusuf Hos Hojib hazratlari yozadilarki:

Qodoshliq kishi kusi chovi beduk,

Odoshliq kishi oti sovi beduk.

Qodoshing yo'q ersa yuri tut odash,

Odash ezgu bo'lsa, bu - buldi qodosh.

Deyilmoqchikim: qarindoshlari bor odamning shani shuhrati ulug'dir. Do'sti bor odamning esa so'zi ulug'dir. Kel, qarindoshing bo'lmasa, do'st tut. Yaxshi do'st qarindosh o'rnida bo'lur.

Chindan ham shunday. Ammo qarindoshidan uzilgan holda aka-uka tutinishni anglab yetish qiyin. **ВѢЪ** Qutadg'u bilig **Ѣќ** da yana shunday satrlar bor:

Yog'iz yer yashil suv yoroshti bila,

Oro yuz chechaklar yozildi kula.

Yarashiq yurisa qodosh yo odash,

Ulardin bo'lur qo qodoshqa bila.

Deyilmoqchikim: bo'z tuproq bilan ko'lmaq suv ittifoq bo'lgani uchun yuz xil gul-chechaklar kulishib ochildi. Qarindosh yor-birodarlar ittifoq bo'lishsa, undan tarqalgan go'zal jamoatlar vujudga keladi.

Barcha yaxshi xulqlar bo'yicha eng go'zal ibrat Rasulullohning sunnatlaridir. Abu Hurayra aytadilarkim: **ВѢЪ** Qur'oni Karimda **ВѢЪ** Ey Muhammad, sen o'zingga yaqin bo'lgan urug'-aymoqlaringni mening azobimdan qo'rqit, ularni ogohlantir **Ѣќ** (Shuaro surasidan), degan oyat nozil bo'lgan vaqtida Rasululloh turib: **ВѢЪ** Ey Kab ibn Luay bolalari, ey Abdu Manof bolalari, ey Hoshim bolalari, ey Abdulmuttalib bolalari! Sizlar o'zingizni do'zax o'tidan qutqaring! Ey Muhammadning qizi Fotima! Sen ham o'zingni jahannam o'tidan qutqaz! Menga etimod qilma, chunki qiyomat kuni tashvishidan men seni qutqazishga qodir emasman. Ammo sizlar bilan albatta qarindoshligim bor. Uni men sizlardan uzmayman **Ѣќ**, deb oshkora nido qildilar **Ѣќ**.

Rasulullohning (s.a.v.) shu xutbalarini unutmasak, yuqorida zikr etilgan oyatlar va hadislar manosini chaqib, ularga amal qilsak, insha Alloh, qiyomatda sharmanda bo'lmagaymiz. Mazkur mavzu so'nggida yana duoga qo'l ochaylik:

-Oliy, Alo, Vahhob sifatli Rabbimiz pokdir! Bizlarga hidoyat berguvchi yo Rabbimiz Alloh, bizlarni qarindoshlardan begonalashtirmayotgan uchun O'zingga shukrlar qilamiz. Vafot etgan qarindoshlarimizga lozim darajada silai rahm qila olmagan bo'lsak, bu gunohlarimizni kechir, oxirtda ular bilan rizolikda ko'rishmoqlikni nasib et. O'zimizdagi silai rahm odobini mukammal qilganing holda zurriyodlarimizni ham bu nemat bilan nematlantir.

Ularni qarindoshlarning mehr-muhabbatlaridan bahra olib yashashlarini nasib et. Agar shu kunlarda silai rahmni bilib-bilmay uzib qo'ygan bo'lsak, yoki shayton uzishlikka vasvasa qilayotgan bo'lsa, bizlarni u lanati iblis yo'lidan qaytar. Berahmliigi uchun

qarindoshlari duoibad qilmaslaridan avval ularga uzr aytib boradigan solihlardan qilgin bizlarni. Omiyn yo Rab al-olamiyn! Azizlar, bu suhbatimiz sizlarga maqul keldimi yo yo'qmi, bilmayman. Har holda maqul kelishiga umidim bor. Agar shunday bo'lsa, har birimiz o'tgan kunlarimizni eslab ko'raylik. Ehtimol, qaysidir qarindoshimizdan ozmi-ko'pmi uzoqlashgandirmiz. Shunday bo'lsa, hadisi sharifda zikr etilgan, xolasi bilan yarashib kelgan odam singari bugunmi yo ertagami, har holda ko'p kechiktirmay, uning huzuriga boraylik.

Jamiyatning durru gavhari

Oilani biz qanday tushunamiz, qanday himoya qilamiz? Rashk - do'stimizmi yo dushmanimizmi? Shular haqida fikr yuritishga hozirlanaylik. Alloh bizlarni adashtirmasin.

Oilani mo"jazzgina bir jamiyatcha deb faraz qilsak, butun insoniyat jamiyatining daxlsizligi aynan shu v Ёњjamiyatcha Ёќning jipsligiga bog'liq. Demak, qaysiki jamiyatdagi oilalar mustahkam emas ekan, bu jamiyat harbiy qudrati va boyligidan qat'i nazar, halokatga mahkumdur. Oilaviy muhabbat odamlar orasida keng tarqalgan eng mustahkam muhabbatdir. Shuning uchun ham u kishilar hayotiga tasir ko'rsatish jihatidan odamning eng muhim va eng hayotbahsh tuyg'usidir. O'z uyida baxtli bo'lgan kishigina chinakam baxtlidir. Xarob uydagi baxtsiz odamlardan tashkil topgan jamiyatning halokatga mahkumligi shundan kelib chiqadi. Har bir insonning oila oldida, oilaning jamiyat oldida mas'uliyati bor. Bu ikki ijtimoiy tushunchani bir-biridan ayirish qiyin. Avvalgi boblarda zikr etganimiz - ishq, ota-onaga muhabbat, silai rahm va keyingi bobda fikr yuritadiganimiz do'stga muhabbat ham jamiyat manaviy olamiga o'z tasirini o'tkazadi. Ammo oila bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etadi. Sodaroq qilib aytilsa, oilasida halovati yo'q odamning xizmat joyida ham halovati bo'lmaydi. Demak, ishidan baraka ketadi, xizmatdoshlari bilan qo'pol muomalada bo'la boshlaydi. Yoki aksincha, ishda omadi yurishmagan, xo'jayinlardan so'kish eshitgan odam uyga qaytganda alamini oila azolaridan oladi. Agar hayotimizning barcha maqsad-mazmuni oiladagi shaxsiy baxtimizdan iborat bo'lganida, shaxsiy baxtimiz birgina oiladagi muhabbatda o'z ifodasini topganda edi, unda hayot deganlari chindan ham qop-qorong'u sahroga aylanib qolgan bo'lardi. Inson uchun yurakning manaviy olamidani tashqari hayotning yana bir buyuk olami - ijtimoiy faollik olami ham bor. Buni inkor etish yoki chetlab o'tishga urinish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun ham ahli kitoblar Allohning bu masaladagi buyruqlariga g'oyat jiddiy munosabatda bo'lganlar. Payg'ambarlar ummatlarini pok va halol oila qurishga davat etganlar. Insoniyat tarixi davomida yashab o'tgan donishmand faylasuflarning diqqat-etiborlaridan ham bu masala chetda qolgan emas. O'tmish ustozlarning fikrlari bizlar uchun hamisha qadrlidir. Ammo ular o'z davrlaridagi jamiyat talablaridan kelib chiqib, oilaga turlicha talablar qo'yganlar. Masalan v ЁњOilaviy hayot inqilobchining g'ayrat-shijoatini susaytiradiv Ёќ, degan ahmoqona fikr yigirmanchi asrda yuzaga chiqdi va o'zbek tilidagi axloqqa oid kitoblarda qayta-qayta zikr etildi. O'tgan asrning yigirmanchi-o'ttizinchi yillaridagi badiiy asarlarda sevishganlar to'y haqida so'z ochishsa v ЁњShoshilma, avval jahon inqilobi g'alaba qilsin!v Ёќ deb inqilobga sodiqliklarini namoyish qilishgan. Bunaqa tentaklarning qanchasi jahon inqilobining g'alabasini kutib, to'y ko'rmay o'tib ketdi ekan. Esizgina umr! Shunga o'xshagan holat bizda ham uchrardi. Faqat bizdagi oshiq-mashuqlar to'yni jahon inqilobi g'alabasigacha cho'zishmasdi. Ashulalar bo'lardi: v ЁњBo'yularingga bo'yulari, qachon bo'lar to'yulari?v Ёќ deb so'ralsa v ЁњAvval kolxoz paxta planini to'ldirib olsinv Ёќ, deb javob berishardi. Kolxoz paxta planini bajarsa-ku, xo'p-xo'p, bo'lmasa yigit bechora to kelasi kuzgacha yulduz sanab, yostiqli quchoqlab yotaveradimi? Agar sevgan qizi suluv bo'lsa-yu, biron chapdast yigit chiqib paxta plani bajarilishi kutib o'tirmay, uni ilib ketsa! Urdu Xudo! Bu hozir bizga kulgili tuyuladi, lekin oila bilan jamiyat manfaatini bu xilda talqin etish befahmlikning bir ko'rinishi edi. Jamiyat manfaati birinchi o'rinda turadimi yoki oila manfaatimi, degan savolga bir xilda, qat'iy javob berish ham mumkinmas. Chunki ayrim o'rinlarda oila, bazan esa jamiyat manfaatlari birinchi darajali masala bo'lib qoladi. Ayrim hollarda jamiyatning oiladan so'rovlarini bor, yana bir hollarda oilaning jamiyatdan talablari bo'ladi. Bu masalani ham bitta qolipga solib taqdim etish mumkinmas.

Oilani o'z xohishicha yashashi kerakmi yoki jamiyat talablarini bajarishga majburmi? Agar jamiyat talablariga bo'ysunib yashashi shart bo'lsa, oilaning hech qanday haq-huquqi yo'q ekanda?

Bu o'rinda ham savol umumiy tarzda emas, aniq masalalar bo'yicha o'rtaga qo'yilishi kerak. Yani: jamiyat oilaning pok bo'lishini talab etadimi, demak, bu talabga bo'ysunishi shart. Jamiyat oiladan oqil farzand tarbiyasini talab etadimi, demak, bu talabni ham so'zsiz bajarmog'i zarur. Lekin bu talablarni barcha oilalar bir xilda bajarmaydilar. Chunki barcha oilalarning bu sohalaridagi tushunchalari, hayotiy tajribalari turlicha. Har bir xalqning, hatto har bir mamlakatdagi har bir viloyat, shaharning o'ziga xos urf-odatlarini oila va jamiyat orasidagi munosabatlarni o'ziga xos ravishda belgilaydi.

Ruslarning ulug' yozuvchisi Lev Tolstoyning v ЁњAnna Kareninav Ёќ deb nomlangan asariga ko'zingiz tushgan bo'lsa, u shunday satrlar bilan boshlanadi: v ЁњBaxtli oilalarning hammasi bir-biriga o'xshaydi, baxtsiz oilalarning esa har biri o'zicha baxtsizdirv Ёќ. Bu yaxshi falsafiy fikrga o'xshagani bilan bahslashish mumkin. Chunki baxtni ham har bir oila o'zicha tushunadi. Masalan, harom yo'llardan qaytmay boy yashayotgan oila haromdan parhez qilib, o'ziga qanoat qilayotgan qo'shnisini baxtsiz deb hisoblaydi. Bu qo'shni esa uning oxirini o'ylab, baxtsizligidan afsuslanadi. Demoqchimizki, oilalarning baxti va baxtsizligi ham faqat o'zlariga xos, bir-biriga o'xshamaydi. Hatto bir oila azolarining baxt haqidagi tushunchasida ham farq bo'ladi. Er baxtni ilm olishda, deb bilsa, xotin bilakni bezovchi tilla bilakuzukda deb hisoblaydi. Qani, barcha tushunchalarni bitta qolipga solib ko'ring-chi!

Turli xalqlardagi oila va baxt tushunchasi haqida so'z ochdik, asosiy gaplarimizga o'tishdan oldin kichik bir misolga murojaat qilaylik.

Tilga olganimiz asardagi Anna Kareninaning oilasi va uning o'limi bilan Kumushbibining oilasi va o'limi orasida qanday farq bor? Ikki yozuvchining tasviriga qaraganda bu ayollarning ikovi ham g'oyat go'zal, ikkovida ham muhabbat bor, ikkovlari ham sevgi qurboni. Har ikki asar ham bu ikki loharlarning o'limlari bilan nihoyasiga yetadi. Lekin ularning muhabatlari va oilaga sadoqatlari bir xilmi? Anna -oilali juvon, begona erkakni sevdi. Oqibatda o'zini halok qildi. Uning bir gunohi ikki bo'ldi. Kumushbibi - masuma ayol. U jufti haloliga sodiq. Uni hatto kundoshidan ham qizg'anadi. Balki ana shu qizg'anishi, rashkining chegarasidan chiqqani uchun o'lim topgandir? Bu ikki ayol o'limi sababchilari - Annaning sevgilisi (Eri emas!) bilan Kumushning kundoshi - Zaynab taqdirida qanday yaqinlik bor? Hech qanday! Kumush-zaynablar taqdirini yevropaliklar hayotidan izlab topolmaymiz. Keling, ikki o'limga doir ikki bayonga diqqat qilaylik:

v Ёњ...yaqindagina hayot jo'sh urib turgan, endi esa kazarma stolida, yotu begonalar ko'zida Annaning jasadini ibosiz bir ravishda qonlarga belanib yotardi; sog' qolgan chakkalari, gajakli boshi, og'ir kokillari orqaga tashlangan; go'zal chehrasida, yarim yumuq qizg'ish lablarida achinarli, tinib qolgan ochiq ko'zlarida vahimali bir ifoda bor edi; bu ifoda urishib qolishganda Vronskiyga v ЁњShoshmang, hali pushaymon bo'lasizv Ёќ, degan o'sha dahshatli so'zni aytib turganga o'xshardi... v Ёќ

Bu bayondagi v ЁAnnaning jasadi ibosiz bir ravishda qonlarga belanib yotardi Ёk, degan tasvirga alohida etibor qaratmoq lozim. Muhabbat degan bahona bilan oilaga xiyonat qilgan, ibosiz hayot kechirgan ayolning jasadi ham begonalar ko'zi oldida ibosiz holatda yotardi. Bu ham ibosiz hayot uchun berilgan bir v Ёmukofotv Ёk emasmi! Endi bu tasvirga diqqatingizni tortamiz: v Ё...Hoji Kumushning boshiga kelib o'lturdi. Otabek va onasi oyoq ustida edilar. Kumushning ko'zi yumuq, sochlari yuzi ustida parishon edi. Hoji o'z qo'li bilan sochlarini tuzatib Kumushning ko'kimtil tovlangan yuzini ko'rди va va manglayini bosdi... -Oyim... Oyim! - dedi Hoji. Kumush ko'zini ochib, besaranjom unga nazar tashladi va tanib... qo'zg'almoqchi bo'ldi.

-Qo'zg'almang, oyim... qo'zg'almang!

Kumushning ko'z yoshisi chakkasidan oqib tushdi... Hoji ham o'zini to'xtatolmay, Kumushning yoshini artib, boshini siladi:

-Xudo shifo berar, bolam!

Kumush jomga qo'zg'aldi, Otabek kelib qo'ltiqldi, Hoji ham uning boshini tutdi... Bu gal qusuq qonga aylangan edi, burnidan ham bir necha tomchi qon oqdi... Qusub yotgach, ko'zi yarqillab ochilib ketdi va tevaragiga betoqat qarandi:

-Oyi... dada...-so'ngra, - begim, - deb ingrandi... Erining yuzini yuziga qo'ydi, uyalgansumon ko'zini yumdi...v Ёk

Ustoz Abdulla Qodiriy qalamlaridan ko'chgan bu tasvirning har bir nuqtasiga diqqat bilan razm solaylik. Biz istaymizmi, istamaymizmi, oila masalasini anglashda g'arb va sharq tushunchalari orasida keskin farqlar borligini tan olishga majburlamiz. Buni yuqoridagi ikki bayon ham tasdiqlab turibdi.

Kumush v Ёerining yuzini yuziga qo'ydi, uyalgansumon ko'zini yumdi...v Ёk Bu holat oddiy muhabbat tasviri emas, balki o'limi oldidan ham erining martabasiga rioya qilinishining ifodasidir. v ЁIslomda insonga sajda qilish yo'q. Agar bo'lganida, ayollarning erlariga sajda qilishlarini buyurgan bo'lardimv Ёk, mazmunli hadisning manosida ayol kishi eriga butunlay itoat etishi lozimligi anglashiladi.

Eri qay paytda ayolini yoniga chaqirsa, ayol albatta itoat qilishi va har qanday ishni to'xtatib, erining yoniga borishi shart.

Sharqdagi oilalar asrlar bo'yi shu odat bo'yicha yashaganlar. Bu odat buzilgan onlarda shu oilada ixtilof chiqqan. Hozirgi kunimizda ayollarimiz yoshlik qilibmi, yoki g'arbning tasiridami, bu odatni rad etishga intilishadi. Er chaqirganda v Ёhozirv Ёk deb qo'yadilar-da, ishlarini qilaveradilar. Biron ish bilan mashg'ul bo'lishsa, uzrlidir, lekin telefondagi uzundan uzoq gaplarini bas qilmasliklari, televizordagi Meksikaning behayo filKjmlaridan ko'z uzgilar kelmay qimirlamasdan o'tirishlari ayb sanaladi. Bu gaplarni osmondan olib yozayotganim yo'q, yosh oilalarning qo'ydi-chiqdilarida ishtirok etganimda deyarli har birida xotonga nisbatan shu ayb aytiladi. Bu o'rinda v Ёdemak, er xo'jayin, xotin - cho'ri martabasidami?v Ёk degan fikrdan uzoq bo'lish kerak.

Erga xizmat qilish cho'rilik emasligini to'ydan oldin qizlarimizga yaxshilab tushuntirib qo'yishimiz kerak. Afsuski, biz qizlarimizga sep to'plashga berilib ketib, odob boyligini berishni unutib qo'yamiz. Oiladagi er o'rnini to'rt-besh erkak bamaslahat belgilab bermagan. Bu martaba Allohning irodasi: v ЁErkaklar xotinlari ustidan (oilada boshlig'i sifatida) rahbardirlar. Bunga sabab Alloh ularning birovlarini birovlaridan (yani erkaklarni ayollardan) ortiq qilgani va erkaklar (xotinlari va oilalari uchun) o'z mol-mulkularidan sarf-xarajat qilganlaridir. Bas, ibodat-itoatli va (erlari) yo'qligida Allohning hifzi himoyati bilan (erlarining mol-mulkularini va o'z iffatlarini) saqlovchi xotinlar - yaxshi xotinlardirv Ёk (Niso surasidan). Qaerda, Allohning bu irodasiga qarshi chiqilsa, yoki o'zgartirishga urinish bo'lsa, bilingkim, bu oilani avvalo totuvlik tark etadi oqibat esa ajralishgacha borib yetadi.

Yangi turmush qurayotgan farzandlarimizning barchasi bu oyatni bilishlari kerak. Chunki mazkur oyati Karimada oiladagi er bilan xotinning o'rnini aniq belgilab berilgan. Shariat hukmicha, er avvalo oilaning barcha moliyaviy va manaviy taraflariga javobgar, uni chetdan bo'ladigan har qanday xurujlardan himoya qiladigan shaxsdir. Mana shular evaziga va erkak kishi uchun fazilat sanalmish og'ir-bosiqlik, oila tebratishdagi tadbirkorlik kabi sifatlar sababli u oilaning boshlig'i sanaladi. Yaxshi xotin esa diyonatli, erning uyini obod qiladigan va unga bir umr sadoqatli bo'lgan ayoldir.

Ezgu zotli Hafsa bint Umar yaxshi xulqli Fotimaga dedilarki:

-Sen nechun eringga bu qadar bo'ysunursan?

Hazrati Fotima aytdilarki:

-Mening erimga bo'yinsinib xizmat etmagimdan murodu maqsadim Alloh taoloning rizosidir. Shu asnoda erimning davo qilmish narsasi ham tugaydi. Yani erimga ko'p xizmat qilmog'im Alloh uchundir. Shu yo'sin men erimning dunyo va oxirat davosini ado etaman. Buning uchun erim mendan xushnud bo'ladi.

Yana dedilarki:

-Bir xizmat bilan ikki toat yengil bo'ldi. Biri - Alloh rizoligi. Ikkinchisi - erimning shod bo'lgani. Kishi bir xizmat bilan bunday ulug' savoblarga muyassar bo'lgach, nima uchun Alloh buyurganga bo'yinsunmas ekan? Holbuki, Alloh taolo xotinlarga erlariga bo'yinsunmoqni buyuradi.

Demak, oilada erning ayoliga nisbatan o'ta jiddiy o'z mas'uliyati bor ekan. Ayolning yeb-ichishi, kiyinishi va uy-joy bilan taminlanishiga mas'ul ekanliklarini unutgan ayrim birodalarimiz borki, ularni g'aflat uyqusidan uyg'onishlari vaqti kelmadimikin? Takror va takror eslatamiz: oilani moddiy jihatdan taminlash ham erning vazifasi. Hatto biron sabab bilan ayol bolani emizishni xohlamasa, emizadigan enaga topib, bolani ulg'aytirish ham erning burchi. Islom dinimiz oilada mana shunday bir muvozanatni qaror toptiradi. Er-xotinning bir-birlariga munosabatlarini aniq belgilab berilgan. v ЁOnalar bolalarini to'la ikki yil emizadilar. (Bu hukm) emizishni kamoliga yetkazishni istovchilar uchundir. Ularni (onalarni) meyorida oziqlantirish va kiyintirish otaning

(erning) zimmasidadir. Hech kimga toqatidan ortiq (mas'uliyat) yuklanmaydib Ёk (Baqara surasidan). Islom dinimiz er kuch va quvvatli deb, ayolni er tarafidan ezdirmaydi; ayolni axloqsiz va beor bo'lishiga ham yo'l qo'ymaydi. Bazi bir erlar deyishsaki:

v ЁMen xotinimning haqqini bilmayman. Men xo'jayinman. Ikki gapning birida so'kmasam xumordan chiqmayman. Urmasam qo'lim qichib turadib Ёk. Shundaymi? Yaxshi, istagingizni qilavering birodar. Ammo bu uchun oxiratta albatta jazoga tortilishingizni unutmang. Alloh bizlarni ogohlantiradi: v ЁU kunda kishi o'z og'a-inisidan ham, onasi va otasidan ham, xotiniyu bola-chaqasidan ham qochurb Ёk. Ajab! Nega oxirat kuni er o'z xotinidan qochar ekan, o'ylab ko'rmaganmisiz? Chunki foni dunyoda uni nohaq urdi, unga to'g'ri yo'lni ko'rsatmadi, moddiy tamin etmadi... Endi vaqt keldiki, xotin haqqini talab etadi. Agar shunday bo'lishiga ishonmasangiz qanday yashagingiz kelsa yashayvering. Alloh hozircha ixtiyoringizga qo'yibdi. Oxirat shundayki, bu dunyoda qul martabasida yashaganlar xo'jayinidan ko'ra yuqoriroq darajaga yetishadi. Bu dunyoda kerilib yurgan janoblar mensimagani, sariq chaqaga olmagani, haqoratlagani, xo'rlagani, qul o'rnida ko'rgani odamning ham shafogatiga muhtoj bo'lib qoladi. Xotini haqiga rioya qilmagan erning oqibati ham shundan o'zgacha bo'lmaydi. v ЁXotinlarning haqlariga rioya etingiz. Ular bilan mehr-shafqat ila muomalada bo'lingiz. Ularning haqlari xususida Allohdan qo'rqingiz. Xotinlar sizlarga Parvardigorning omonatidib Ёk. Payg'ambarimizning, alayhissalom Vado xutbalaridagi bu vasiyatni har bir er doimo dilida saqlashi va amal qilishi shart. Bu Parvardigorning omonatlariga xiyonat qilishdan o'zni saqlamak kerakdir, degani bo'ladi.

Eshitgan edim, rostmi yolg'onmi, bilmayman: lo'lilarning qaysi bir urug'ida to'y chog'i kuyov bola gulxan atrofida o'tirar ekan. Kelin esa bo'yniga xurjun osib olib uning atrofida aylanib vЂњO'lgunimcha seni boqaman vЂњ, deb qasam icharkan. Shu zaylda uch marta aylanib, qasam ichgach, kuyov unga uylanishga rozilik berarkan. Bozorlarda katta-katta va og'ir-og'ir xaltalarni ko'tarib yurgan ayollarimizni ko'rganimda shu odat esimga tushadi. Bizda nikoh chog'i er zimmasiga oila tashvishi yuklanadi. Agar uzoq safarga otlansa ham, taminotni mukammal qilib ketishi kerak. Ayollarning ro'zg'or xarajatlarini ko'tarib chiqishlari er uchun bir uyat bo'lsa, tijorat maqsadida begona yurtlarga begona erlar bilan yuborishi undan battar uyatdir. Tijorat maqsadida uzoqqa borgan ayollarimiz haqida turli mish-mishlar yuradi, biz ularni maqullamoqchi emasmiz. Agar shunday desak, pokiza opa-singillarimizga tuhmat qilib qo'ygan bo'lamiz. Lekin rizq qidirib uzoqqa bormaslik va tanmahramsiz yurmaslik haqidagi buyruqlarga amal qilsalar o'zlariga nisbatan ortiqcha gap orttirib olmaydilar. Undan tashqari bizni ranjitadigan narsa - ayollar musofirlikda qiynalib, og'ir yuklar ko'tarib yuradilar, yo'l azobini ko'radilar, o'z mas'uliyatiga rioya qilmayotgan erlar esa choyxonada oshxo'rlik qilib yotadilar.

O'tgan asrda Yevropada er-xotin o'rtasida tenghuquqlilik degan masala ko'tarildi. Sovet jamiyati bunga alohida etibor berdi. Ammo ayollarni erlar bilan tenghuquqli qilaman, deb ularni aksincha cho'ridan battar holatga aylantirdi. Tenghuquqlilik degani er nima ish qilsa ayol ham bajarsin, degani emas. Er qurilishda g'isht terdi - ayol ham, beton quydi - ayol ham, traktor mindi - ayol ham. Bu o'taketgan insofsizlik-ku! Yevropada ko'tarilgan masala boshqacha edi. O'tgan asrlarda zavodda aynan bitta ishni bajargan erga ko'proq, ayolga esa kamroq haq to'langan. Ayollarning xalqaro harakati haq to'lashdagi tenghuquqlilikni talab qilgan. Afsuski, tenghuquqlilikni noto'g'ri tushunish hozir ham davom etib kelyapti. O'rni kelganda aytib ketaylik: shtanga, kurash, boks, futbol... kabi sport turlarida qiz-juvonlarning qatnashishlari bizningcha durust emas. Agar diqqat qilib kuzatsak, bugungi jamiyatlarda adolatli muvozanatlarning buzilishi kuzatilmog'di. G'arbda ayollar o'ta axloqsiz, behayo bo'lib ketishgan. Yuz yil avval Anna Kareninaga o'xshaganlar barmoq bilan sanarli bo'lsa, endi kishining aqli hisobdan adashib ketadi. Bunday holatlarni biz xorijga qilgan safarlarimiz davrida o'z ko'zimiz bilan kuzatdik. G'arbnikino filmlari ham fikrimizni isbotlaydi. G'arb ayollari o'zlarini erlar bilan teng huquqli deb bilishadi. Dinimizda bunday emas. Oilada er va ayolning o'z o'rni muvozanat va adolat bilan belgilab berilgan. Bu muvozanat buzilgan jamiyatlarda vЂњErkin muhabbat vЂњ degan ahmoqona, aytish mumkinki, hayvonlarga xos tushunchalar tug'ildi. Yani er-xotin birgalikda yashayverdi, ammo xotin ko'ngli tusagan erkak bilan, er esa ko'ngliga yoqqan ayol bilan zino qilaveradi. Agar bola tug'lsa, qaysi erdan tug'ilganini aniqlash uchun irsiyat sohasidagi mutaxassislariga murojaat qilishadi. Bu ham yetmaganday erkakning erkak bilan ayolning ayol bilan nikohlarini rasmiylashtirish boshlandi va bu hayvoniy qo'shilishni ham muqaddas nom - vЂњoilavЂњ deb atayaptilar. (Bu haqda fahsh bobida kengroq to'xtalarnimiz.)

Dinimizning jinsiy munosabatlar xususida g'oyatda maqul, nihoyatda maqbul tavsiyalari bor. Birinchidan, nikoh sunnat va savobdir; nikohlangan kishining savobi ortadi. Uylangan kishi uyiga bir hissa yegulik va ichgulik olib kelsa, yetti yuz hissa savob beriladi. Ro'zg'or tebratish uchun qilingan sarf-xarajatlari jihatidan qilingan qilish bilan barobar hisoblanadi. Hatto nikohdagi er-xotinning jinsiy aloqasida ham savob bor. Rasululloh (s.a.v.) shu haqda gapirganlarida sahobalar: vЂњYo Rasulalloh, biz nafsimizning, shahvatimizning orzusini qondiramiz, bundan ham savob topamizmi? vЂњ deb so'rashganlarida javob berdilarkim: vЂњAlbatta! Shunday qilmasangiz, gunoh yo'li bilan qondirishingiz mumkin... Shuning uchun ham savobdir vЂњ.

Islomda inson tabiatiga, fitratiga, yaratilishiga g'oyatda mos bir xatti-harakat mavjud. Erning xotini yoniga uzoq muddat yaqinlashmasligi ham durust emas. Chunki u ayolning ham jinsiy xohishlari bor, uning ham ehtiyojlarini qondirish kerak, degan manoda adolat qilishga chaqirganlar. Shuning uchun Islomda shar'iy jinsiy muammoga etibor berishgan, uni aslo ayb sanashmagan. Bazan er-xotinning ajralishi sabablarini diqqat bilan o'rgansangiz, oilani buzilishiga olib keluvchi jiddiy holatlarni uchratmaysiz. Bizda oilaning buzilishiga aynan jinsiy munosbatlardagi yetishmovchiliklar ham sabab bo'lishi mumkinligi sira aytilmaydi. Bu ayb sanaladi. Hatto ayrim erlarning yoki ayollarning zinoga yurib ketishlariga ham bir-birlaridan qoniqmaganlari sabab bo'ladiki, buni etibordan chetda qoldirish mumkinmas.

Shabiy (r.a.) aytadilar:

vЂњBir ayol hazrati Umarning (r.a.) huzurlariga kelib: vЂњEy amiral mo'minin, sizga insonlarning eng yaxshisi ustidan shikoyat qilgani keldim. U shunday odamki, yaxshi amal borasida unga yetadiganlari oz. Kechalari tonggacha namoz o'qiydilar va kunduzlari doimo ro'zador bo'ladilar vЂњ, deganidan keyin uyulib, aslida aytmoqchi bo'lgan gaplarini aytolmadi va: vЂњEy mo'minlarning amiri, meni kechiring vЂњ, - dedi.

-Yaxshi, - dedilar hazrati Umar. - Alloh sendan rozi bo'lsin. Sen u odamni juda yaxshi sifatlar bilan maqtading. U haqda bundan ortiq biror narsa gapirishingga hojat yo'q.

Ayol chiqib ketgach, Kab ibn Surr (r.a.) dedilar:

-Ey amiral mo'minin, ayol uyulib, shikoyatini so'zlay olmadi.

-Ayolning qanday shikoyati bor edi?

-Ayol eridan vЂњZavjiyat (yani er-xotinlik) haq-huquqlariga rioya etmayotir vЂњ, deb shikoyat qilmoqchi edi.

Bu gapni eshitganlaridan so'ng hazrati Umar (r.a.) ayolni orqaga qaytarib, uning eriga ham xabar yubordilar va ayolning eri kelgach, Kabga:

-Oralarida sen hakamlik qil, - dedilar.

-Siz shu yerdaligingizda men qanday hakamlik qilaman?

-Men tushunmagan narsaga sening aqling yetdi. Binobarin, ularni eshitib, oralarida hukm etmoq sening haqqingdir, - dedilar xalifa.

Shunda Kab xaligi odamga:

-Alloh subhanahu va taolo erlarga xitoban: vЂњAgar yetimlarga adolatli bo'la olmaslikdan qo'rqsangiz, sizlar uchun (nikohi) halol bo'lgan ayollarga ikkita, uchta, to'rttadan uylanaveringlar vЂњ, deya marhamat qilganiga ko'ra, ko'pi bilan uch kun (nafli) ro'za tutishing mumkin. To'rtinchi kuni tutmasliging kerak va ko'pi bilan uch kecha tonggacha ibodat qilishing mumkin. To'rtinchi kecha ayolingning yonida yotishing lozim, - dedilar.

Er-xotin ketishgach, hazrati Umar Kabga:

-Sening bu topag'onliging boyagisidan ham go'zaldir, - dedilar va Basraga qozi etib tayinladilar vЂњ.

Bu rivoyatda go'zal bir donolik ham charaqlab turibdi: hazrati Umar erga to'g'ridan-to'g'ri vЂњErlik vazifangni bajar vЂњ, deb amr qilmadilar va buni dono birodarlariga topshirdilar. Kab ham o'ta noziklik bilan tushuntirdi. Chunki u kishi ham vЂњIbodatingni yig'ishtirib, xotining bilan birga bo'lvЂњ, deya olmasdilar.

В ЁУylanishdan, xotin olishdan hammaning maqsadi bir xil emasdir ЁК, deyilsa, bu fikr dastlab g'alati tuyulishi mumkin. Bazilar aysh-ishrat qilish, shahvat nafsini qondirish uchun uylanmaydilar? Shu niyatda eng suluv qizlarga yetishmoq uchun ne-ne shumliklar qilmaydilar? Bu shumlikni oqibatini biz ЁУoilav ЁК deya olmaymiz. Bazilar esa boy bo'lish maqsadida boy xotinga tuzoq qo'yadilar. Buning natijasi ham ЁУoilav ЁК emas. Yana bir xil odamlar farzandtalab bo'ladilar va shu maqsadda oila quradilar. Bazi odamlar gunohdan saqlanish uchun uylanadilar. Yana bir qanchalari uy-ro'zg'or, saranjom-sarishtalıkları uchun uylanadilar.

Oila qurishda ulug' savoblar borligini yana takid etamiz. Shunday insonlar borki, savob uchun atayin uylanishadi, savob istagida turmushga chiqishadi. Bir ilmi odam bir qizni so'rab sovchi yuboradi. ЁУAllohning amri, hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v.) sunnatlariga muvofiq qizingizga uylanmoqchilar. Biz roziligingizni olmoqqa keldikv ЁК, deyishadi sovchilar. ЁУU kishi jonimni so'rasalar jonimni beray, ammo qizim u zotga munosib emas. Chunki qizimning ikki oyog'i shol. U muhtaram zotga esa xizmatlarini ado etuvchi sog'lom jufti halol kerakv ЁК, deydi qizning otasi uzr bilan. Sovchi qo'ygan kishi qizning ahvolidan xabardor edi. ЁУBu qiz nogiron bo'lgani sababli unga hech kim uylanmaydi. Sog'lom va chiroyli bo'lganida hamma ketidan chopib, holi-joniga qo'ymasdi. Men shu bechoraga uylanib, ko'nglini ko'tarayv ЁК, degan qaroridan qaytmaydi.

Shunga o'xshash boshqa voqea: Shuhrat Umarov ismli shoir birodarimiz bo'lardilar. (Alloh rahmat etsin!) Shuhrat aka talabalik yillarida yiqilib, bellari mayib bo'lib yotib qolgan edilar. Bu holdan xabar topgan shoira singlimiz Nasibaxon taqdirini shu nogiron shoir taqdiri bilan bog'lashga qaror qildilar. Yosh va go'zal qizning bu qarori ko'pchilikni taajjubga soldi. Taajjublanganlar Nasibaxonning tashqi go'zalliklarini ko'rardilaru ammo qalb go'zalliklarini, iymon go'zalliklarini his qila olmasdilar.

Biz shunaqamiz: nogiron faqat nogiron bilan turmush qurish kerak, degan bemani tushuncha bilan yashaymiz. Sog'lom yigit shol yoki ko'zi ojiz qizga uylansa ajablanamiz. Go'zal qiz nogironni sevsa ishonqiramaymiz. Demaymizki, Alloh roziligi uchun qilinayotgan bu amallar naqadar go'zal! Shuhrat aka bilan Nasibaxonga Alloh solih o'g'il farzand berdi. Shuhrat aka hali yosh o'g'illariga ЁУonangni Haj ibodatiga olib borasav ЁК, deb vasiyat qilgan ekanlar. Behzod ulg'aygach, ota meros avtomashina sotilib, vasiyat bajarildi - Alloh ona va bolaga ulug' ibodatni nasib etdi. Nasibaxon baxtlarini aynan shu oilada topganlariga ishora emasmi bu!

Ulug'lik deganimiz ham shu, qahramonlik deganimiz ham shu! Oilaning muqaddas tushuncha ekaniga ham misol shu. Tilimizda ЁУoila qurdiv ЁК yoki ЁУoila barpo etildiv ЁК kabi iboralarni ko'p uchratamiz. Shuning qatorida ЁУoila buzildiv ЁК yoki ЁУoilasi barbod bo'ldiv ЁК deganlari ham bor. Demak, oila umr yo'lidagi go'zal bir saroyga o'xshatilyapti. Demak, uni qurish kerak. Qurganda ham poydevorini mustahkam qilib, zilzilayu do'llarga bardosh beradigan tarzda bino qilish shart. Demak, ЁУoilav ЁК yoshlar qo'lga tantana bilan tutqaziladigan zarqog'ozga o'ralgan shirinlik emas. Afsuski, ayrim badavlat ota-onalar oilani shunday tushunadilar. Farzandlarini moddiy tomondan to'la taminlab oila qurildi, deb xotirjam bo'ladilar. To'g'ri, oila saroyini qurishda ota-onaning vazifasi mavjud. Ammo to'laligicha qurib bera olmaydi. Bu qurilishda er-xotinning o'zi ham faol ishtirok etmas ekan, bu saroy dastlab shokolad kabi bo'lishi mumkin, ammo sal vaqt o'tib, eriy-eriy yo'q bo'lib ketadi. O'zicha erib ketsa, taqdirga tan berilar, ammo bu shokolad qasrni yalashga ishqibozlar ham topilib qolsa-chi? ЁУUylanishdan oldin ikkala ko'zingni ham katta och, uylanganingdan keyin bittasini yumv ЁК, degan yozilmagan bir qoida borki, ko'pchilik unga amal qilmaydi. Avvalo yigitning ham qizning ham ikkala ko'zlarini katta ochishlariga ota-onalari yo'l qo'yamaydilar. Keyin esa yosh xotinning harakatlarini kuzatishda bitta ko'zni yumish o'rniga to'rt-beshta ko'z bilan qaray boshlaydilar. Ahmad Donish aytgan ekanlarkim: ЁУAgar kelin-kuyov birovlarining gaplariga, fisqu fasodlariga kirar ekanlar, ularning shirin turmushlari buziladi, oralariga sovuqlik tushadiv ЁК.

Yigit va qiz yostiqdosh bo'lgunlariga qadar bir-birlarining odatlari, fel-atvorlari va ruhiyatlarini mukammal o'rganishmasa oilani baxtiyorlik poydevoriga qurishlari oson bo'lmaydi. Chunki yaxshi oila qurish uchun birgina muhabbat kifoya emas. Orada do'stlik va ishonch ham bo'lishi kerak. Shunday oilalarni uchratamizki, er-xotin bir-birini sevadi, turmush qurishni esa bilmaydi. Oila qurishda malum bosqichlarda birgalikdagi kurash, mashaqqatlarni birgalikda yengib o'tish talab etiladi. Deydilarki: ЁУMuhabbatning ko'zi ko'r bo'ladiv ЁК. Yani bir-biriga ko'ngil qo'ygan yigit va qiz uncha-muncha xato va kamchiliklarni sezmaydilar, sezsalor ham etibor bermaydilar. Muhabbatning ko'zi ko'r bo'lsa, oilaning ko'zlari hamisha ochiq bo'ladi. U hatto tunlari ham yumilmaydi. Ilgari arzimasi hisoblangan kamchiliklar jiddiy ahamiyat kasb eta boshlaydi. Ota-onalarning esa boshlari qotadi: axir bir-birlarini yaxshi ko'rishardi-ku? Yigit ЁУshu qizdan boshqasiga uylanmaymanv ЁК, deb qancha ЁУnomzodlarni rad etgan edi-ku? (Qiz ham boshqa yigitlarni xushlamagan edi!)

Bir-birini bilish - bir-biri haqida hamma narsani bilish emas. Bu bir-biriga nisbatan ishonchli va yoqimli munosabatda bo'lish, bir-biriga ishonish demakdir. Odam boshqa shaxsning ruhiy olamiga bostirib kirishga urinmasligi kerak. Ayol bilan tanishish uchun bir necha daqiqa yetarli, uni yaxshi bilish uchun esa yillar kerak. Ayrim donolarning fikricha, ayolni to'liq bilish uchun esa u bilan ajralish kerak ekan. Albatta biz bu fikrni hazil manosida qabul qilamiz. Lekin, ayrim er-xotinlar ajralishib ketishganlaridan so'ng, ayniqsa boshqa oila qurganlaridan keyin bir-birlarining qadrlariga yeta boshlaydilar. Yaxshi erning qadriga yetmagan xotinga Alloh yanada zolimroq erni, soliha ayolning qadriga yetmagan erga esa kuydirguvchi xotinni ro'para qilib qo'yadi. Chunki er yoki xotin shayton vasvasasiga kirib Rahmon yo'lini unutganlari uchun shunday jazoni olishlari tayin.

Alloh buyuradiki: ЁУEy iymon keltirganlar! ...ular (xotinlaringiz) bilan totuv turmush kechiringlar. Agar ularni yomon ko'rsalarigiz (bilib qo'yingki) balkim sizlar yomon ko'rgan narsada Alloh (sizlar uchun) ko'pgina yaxshilik paydo qilavv ЁК (Niso surasidan). Alloh iymon keltirganlar, deb murojaat etyapti. Demak, iymon keltirdingmi, endi iymon shartlaridan biri bo'lmish oilang haqqiga rioya qil, totuv yasha. Bo'lar-bo'lmasga janjal chiqarma. Xotinni yangilashga (yoki erni) oshiqma. Oilani qayta-qayta buzish iymonsizlarga xosdir.

Yevropaliklarda ЁУerlar ayollar uchun birinchi bo'lishni, ayollar esa erlar uchun so'nggisi bo'lishni orzu qiladilarv ЁК, degan gap bor. Bir qaraganda aqlli gapga o'xshaydi. Ammo bu o'sha tomon uchun aqlli, ularning oila haqidagi buzuq tushunchalariga mos keladi. Deyilmoqchiki: er uylanmoqchi bo'lgan qizning avval boshqa erkak bilan bo'lmaganini orzu qiladi. Agar zinoga aralashgan bo'lsa, farqi yo'q, bu yog'iga halol yursa bas. Xotin esa ЁУerim mengacha yurgan bo'lsa yurgandir, endi yurmasinv ЁК, deb orzu qiladi. Etibor beryapsizmi, orzu qilyapti! Islomda esa bunday buzuq holda oila qurish man etiladi. Oila nomusiga gard ham qo'nmasligi kerak.

Hozirgi kunimizda g'arb mamlakatlarida oilaga munosabat yomon tomonga o'zgarib ketgan. Holbuki, avvalgi zamonlarda ularda ham oila muqaddas deb hisoblangan. Oilaga ЁУerkinlikv ЁК martabasini berilishi jamiyatni ham bora-bora izdan chiqaradi. Chunki ЁУerkinlikv ЁК tushunchasi ЁУnima istasang qilaveriv ЁК, degani emas. Alloh ЁУMendan uyalmasang, nima istasang qilaveriv ЁК, deb bekorga ogohlantirmagan. Allohdan uyalmadimi, demak, ota-onasidan ham, qarindoshlari, atrofidagi boshqa

odamlardan ham uyalmaydi, kengroq manoda olsak, jamiyatdan uyalmaydi. Uyalmadimi, jamiyat oldidagi burchini unutadi. Jamiyat qonunlaridan yuz o'g'irgan oilalar ko'paysa bu jamiyatning holiga voy emasmi! G'arbda bugungi kunda oila bobidagi bir qancha buzilishlar mavjud:

odamni hayvondan ajratib turuvchi narsa ongli ravishda pokiza oila qurish. Oila deganda biz er va ayolning qo'shiluvini anglaymiz. Lekin erkak bilan erkakning, ayol bilan ayolning qo'shiluvini вЂњoilavЂќ deb atash odamzotni hayvonot olami bilan teppa-teng qilib qo'yamaydimi? Bu fikrni ikkinchi bor qayta takid etishimiz bejiz emas. Bu holatni hayvonot olamiga o'xshatyapmizu, ammo urg'ochi bilan urg'ochining, nar bilan narning qo'shiluvi hayvonlarda ham yo'q. Erkakning erkakka intilishi ko'p yuz yillardan beri mavjud, biroq, jamiyat bundaylardan nafratlanib kelgan, ko'payishiga yo'l qo'ymagan. Lut alayhissalom qavmlariga yuborilgan ofatni eslasak kifoya qilar? Endilikda esa bunday вЂњoilavЂќ qurishga turli mamlakatlarda qonun yo'li bilan ruxsat berishga intilish bor.

oilam qurmay yakka-yolg'iz yashashga intilish kuchli. Malumotlarga ko'ra, jahon bo'yicha amerikaliklar bu sohada ham peshqadam ekanlar. Erkakning yoki ayolning oila qurishdan bo'yin tovlab yolg'iz yashashi ham oqibatda jamiyatni jar yoqasiga keltirib qo'yadi. Ilgarilari sobiq ittifoqning yevropa qismida shunday odamlar rag'batlantirilardi. вЂњMatKj odinochkavЂќ deganlari bo'lardi. Yani bolaning onasi boru otasi yo'q. Bu xonimcha mutlaqo oila qurmasdan kimdandir bola orttirganlar. Shu uchun unga navbatdan tashqari uy berishgacha borganlar. Mana endi Rossiyada aholi keskin kamayib ketyapti, deb bong urib o'tirishibdi. O'tmish g'arb faylasuflaridan EngelKjs xotinning erga bo'ysunishi faqat iqtisodiy qaramlikka bog'liq. Yani, er moddiy taminotchi, agar xotin o'zini o'zi taminlay olsa, erga bo'ysunmay qo'yadi, degan g'oyani ilgari surgan edi. Bu g'oya oradan yuz yil o'tib, o'sha tomonlarda o'z isbotini topyapti. Lekin bu g'oyani hayotiy haqiqatga asoslangan, deb bo'lmaydi. Qaysiki oilada ruhiy-manaviy tushkunlik hukmron bo'lsa, bu g'oya ham yashaydi. Tanho yashovchi odamning (u xoh erkak, xoh ayol bo'lsin) hayoti qanchalik yaxshi taminlaganidan qat'i nazar qashshoqlikdan iboratdir.

biz tomonlarda oila buziladigan bo'lsa, er taloq qiladi yoki xotinni er tashlab ketadi. Yevropada esa aksi: erni xotin tashlab ketadi. Ruslarda вЂњBroshenniy mujvЂќ degan ibora bor. Ularda xotini tashlab ketgan er nima qilishi kerak, degan muammo ham mavjud. Xotin erni tashlab ketdi, degani otasining uyiga borib turibdi, degani emas. Xotin erni nima uchun tashlaydi? Sevmay qolgani uchun. Ularda sevib qolish ham oson, sevgidan aynish ham oson. Xotinga boshqa erkak yoqib qolsa, eriga: вЂњRanjimagin, men boshqani sevib qoldimvЂќ, deb ketaveradi. Bu o'rinda oila faqat buzuqlik tufayli buziladi. Birinchi holat ham, ikkinchi-uchinchisi ham yuqumli xastalikka o'xshaydi. Tez tarqaladi, davosi esa g'oyat mushkul. Oqibat esa millatning yo'q bo'lib ketishigacha olib borishi hech gap emas. Demoqchimizki, bizda ham bu kasallik nishonalari ko'rinib qolyapti. Ziyraklikni boy bersak, kechikib qolishimiz mumkin. Qishloqlarda sezilmaydi, ammo shaharlarda erdan ajralganidan keyin вЂњagar er shunaqa bo'lsa, erning beti qursin, jonimni qiynamay, ersiz o'taman bu dunyodanvЂќ, deb boshqa turmush qurmay yashovchi ayollar soni kamayayotgani yo'q. Biz bu ayollarni buzuqlikda ayblashdan yiroqmiz. Lekin oila bilan yashasalar o'zlari uchun ham, jamiyat uchun durustroq bo'ladi. Yashirishning hojati yo'q, agar kim вЂњfalonchining qizi erdan ajrab ko'p qavatli uyda yolg'iz yasharkanvЂќ, deb eshita, xayoliga darrov shum fikr keladi. Qo'shni ayollar ham yolg'iz yashovchi bu xotinni tinmay kuzatishadi. Agar biron begona erkakning mehmon bo'lganini bilishsa, tamom вЂњdostonlarvЂќ bitilaveradi. Turmush qurmay yolg'iz yashash g'arbliklar uchun yangilik emas. Nasroniy dini tobelari orasida tarkidunyochilik odati bor. Nasroniyalar buning uchun maxsus dayr (rohiblar yashaydigan monastir)lar quradilar. Rohiblarga uylanish, rohibalarga turmushga chiqish man etiladi. Ular вЂњUylanish va farzand orttirish kishini Haq xizmatidan va Xudoga yaqin bo'lishdan chetlashtiradivЂќ, degan aqidaga asosan turmush qurmaslikni komillikdan deb biladilar. Oila qurish, uning tashvishlari muqobilida erkin yashash rohati turadi. Agar odamzot ixtiyori o'zida bo'lganida shu rohatdan boshqasini istamagan bo'lardi. Ammo Yaratgan Alloh ham er, ham ayol mijoziga shahvatni qo'shib berkanki, ana shu shahvat taqozosiga ko'ra birga bo'lishni istab, oila quradilar. Shu sababli bashariyat nasl Allohning irodasiga ko'ra oxiratgacha saqlanib qoladi. Shahvat taqozosi deganimiz bir sabab. Aslida oila qurishni, nasl qoldirishni Alloh iroda etgan, bandalarga farz qilgan. Baqara surasida bu xususda shunday manolarni o'qiyimiz: вЂњXotinlaringiz sizlarning ekinzor yerlaringiz bo'ladi. (bu so'zlar bilan Qur'on er-xotinning yaqinlashuvidan birinchi muddao - farzand talab qilish ekaniga ishora qilmoqda) Ziroat yerlari urug' sepganda samara beradi. Xotin ham ekinzordir va hosili - farzand. Bas, o'z xotinlaringiz bilan farzand niyatida aloqa qiling va kelajakda o'zlaringiz uchun farzand tarbiyalang. Allohdan qo'rqing, Uning qahriga ilinmangiz. Bas, tug'ilish va visol uchun bergan quvvatni bekor qoldirmang va zoe qilmang. Ey Muhammad, saodat mujdasini (jannat xushxabarini) iymonlilarga berginivЂќ. Demak, uylanish va oila qurish iymon talablaridan biri ekan. Buni dunyoviy misol bilan sharhlasak: bir odam ijaraga yer oldi, dehqonchilik qilaman, degani uchun unga bank mablag' ham berdi. Ammo bu odam vadasiga xiyonat qildi. Yerga qaramadi, mablag'ni boshqa narsaga sarf qildi. Mamlakat qonuniga ko'ra u jinoiy javobgarlikka tortiladimi, qamaladimi? Demak, erlik quvvatiga ega odam bu quvvatni ishlatishda Lut qavmiga o'xshasa yoki boshqa buzuqliklar qilsa Alloh belgilagan qonunga xiyonat qilgan bo'ladi va shunga yarasha jazosini oladi. Anas (r.a.) rivoyat qilgan bir hadis bor. Nabiy (s.a.v.) dedilarkim: вЂњXudo haqqi, men sizlardan ham ko'proq parhezkor va Allohdan qo'rqadigan odamman, lekin ro'za tutaman, iftor qilaman, namoz o'qiyman, uxlayman va uylanaman. Kim bu sunnatdan yuz o'g'irsa, u mening ummatim emavЂќ. Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qilingan hadisda Rasululloh (s.a.v.) вЂњSizlarning eng yomonlaringiz xotin olmagan kishidivЂќ, deb marhamat qiladilar. Uylanishni istamaganlar ilohiy qonunlarga qarshi ish tutganlari sababli Payg'ambarimiz alayhissalom shunday qattiq hukm chiqarganlar. Said Abu Hilol (r.a.) rivoyat qilishlaricha, Nabiy (s.a.v.) вЂњUylaninglar va o'z nufuzlaringizni ziyoda qilinglarkim, qiyomat kuni men sizlarning ko'pligingiz bilan faxr qilamanvЂќ, deganlar. Bu bejiz emas. Chunki millatlarning kuch va shavkatu etibori ularning nufuziga ham bog'liq. Yevropaliklar buni yaxshi anglaganlari uchun ham doimiy ravishda aholisi o'sishini kuzatib boradilar. O'sish yetarli bo'lmasa olimlari: вЂњHoy vatandoshlar!

Ko'zingizni oching, millatimizning sharafu etibori susaymoqda. Bu ketishda millatimiz nest-nobud bo'ladi. Sharafimizni, vatan va millatimizni himoya qilish uchun arzanda farzandlarni ko'paytiranglar! вЂќ deb jar soladilar. Tarixda Pol Demar ismli fransuz sotsiologi va iqtisodchisi yashagan. U millatining o'n to'qqizinchi asrdagi yani yuz yillik davridagi sonini tadqiq qilgan ekan. Uning hisobicha, aholining o'sishi bo'yicha fransuzlar ingliz yoki olmonlardan ortda qolishibdi. 1810 yilda Fransiya aholisi 28 million, Angliyaniki 10, Olmon aholisining soni 18 million ekan. Yigirmanchi asr boshiga kelib Olmon aholisi 59, Angliya aholisi 62 milyonga yetibdi. Fransiya aholisi esa 39 milyonga yetibdi. Bu degani 80-90 yil mobaynida inglizlar 52, olmonlar 41 million

oshganlari holda fransuzlar 11 milyonga oshibdi. Olimni bu hisob qoniqtirmay millat qayg'usida shunday yozgan ekan: вЂњAgar ahvol shunday davom etaversa, biz nafaqat vatan muhofazasidan, balki hayot orzusidan ham mahrum bo'lamiz. Bugun biz - fransuzlarning mamlakati va millati jar labiga kelib qolgan. Bu chuqurga tushib ketishimizga oz qolibdi. Lekin hali ham kech emas, millat va vatanni bu halokatdan qutqarish uchun himmatimiz va say-harakatimiz kerak вЂќ. Yevropa olimlari millatlarining kamayishidan shu darajada qo'rqadilar. Endi Pol Demarning tadqiqotini davom ettirsak, bu holatga duch kelamiz: o'tgan asrning yetmishinchi yillariga kelib Angliyadagi aholi soni 45,3 milyon, Germaniyada 76,5 milyon Fransiyada esa 53 milyonni tashkil etgan. Bu raqamlarni solishtirishdan avval orada ikki marta Jahon urushi bo'lib o'tganini, millionlab odamlar o'ldirilganini hisobga olishimiz kerak. Demak, keyingi 60-70 yil ichida Angliya aholisi kamayibdi, olmonlar va fransuzlar esa ko'payibdi. Lekin shunga qaramay ularning olimlari hanuz tashvish bilan bong uradilar. Chunki ko'payish ayni shu millat vakillari hisobiga bo'lmayapti. Ikkinchi jahon urushidan keyin bu mamlakatlarga boshqa qit'alardan odamlarning ko'chib kelishi ko'paydi. Garchi millionlab osiyoliklar, afrikaliklar ham shu mamlakat fuqarosi hisoblansalar-da, ayni shu millat shanini belgilamaydilar. Fikrimizning isboti uchun shu mamlakatlar futbol terma komandalariga nazar tashlaylik: asl inglizlarga nisbatan kelgindi xalqlar vakilini ko'proq uchratamiz. Ilgari bu mamlakatlarning mustamlakachilari osiyolik va afrikaliklarni zo'rlab, qul qilib haydab kelgan bo'lsalar, endilikda bu qit'alardan yopirilib kelayotganlar yo'lini to'solmay garanglar. Tabir joiz bo'lsa, qadim qullarning avlodlari bugunga kelib quldorlar yurtini zabt etyaptilar.

Mazkur risola oqqa ko'chirilayotgan paytda Germaniyada chiqadigan вЂњVelkjtвЂќ gazetasi o'tkazgan bir tadqiqot bilan tanishib qoldim. Bu tadqiqotda 35 yoshgacha bo'lgan nemis ayollari ishtirok etganlar. Muxbirlar ularga bittagina savol bilan murojaat etishgan: nemis ayollari nima uchun farzand ko'rishni mumkin qadar orqaga cho'zishadi (paysalga solishadi)? Bu savol bekorga kun tartibiga qo'yilmagan. Kuzatuvlarga qaraganda, nemis ayollari keyingi yillarda birinchi farzandlarini 29 yoshga yetganlarida ko'rishar ekan. Vaholanki, o'n besh yil muqaddam bu ko'rsatgich ancha past bo'lgan. So'rovga javob berganlarning 44 foizi er va ayollarning bir-biriga bo'lgan ishonchsizligini va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi bandligini asosiy sabab sifatida ko'rsatishgan. Germaniya hukumati farzand ko'rayotgan onalarning ijtimoiy himoyasini yildan yilga kuchaytirib borishiga qaramay, ahvolning bu darajaga tushib qolishi jamiyatni tashvishga solyapti. Chunki Germaniya demografik ko'payish jihatidan dunyodagi oxirgi o'rinlardan biriga tushib qolibdi. вЂњNahotki pul topishga bo'lgan qiziqish oilaviy baxtdan yuqori tursa? вЂќ вЂњBerliner saytung вЂќ gazetasi jamiyat tashvishini shu savol orqali kun tartibiga qo'yibdi.

Yuqorida Rossiya aholisining kamayib borishidan mamlakat rahbariyatining tashvishlanayotganini bayon qilib edik. 1982 yilda Latviyada bo'lganimda shu yerlik bir yozuvchi вЂњYaqin yuz yil ichida mening millatimdan nom-nishon qolmaydi вЂќ, deb afsuslangan edi. Chindan ham o'sha paytda latviyaliklar soni bir milyonni tashkil qilardi. Tug'ilish darajasi esa past edi. Millatni saqlab qolish uchun har oila kamida uch farzandni dunyoga keltirishi kerak.

Ikkita farzand - o'ringa o'rin qoldi, demak. Bitta farzand - millatning keskin kamayishidan darak. Farzandsiz oila - millatning fojiasi. Yevropa olimlari o'z millatlarining taqdiridan tashvishlanib, ko'payish jihatdan sur'ati tez millatlarda tug'ilishni kamaytirish choralarini ko'rishga harakat qiladilar. Shu niyatda turli xalqaro anjumanlarga yig'ilishib, turli xalqaro bitimlar, qarorlar imzolaydilar.

Shulardan biri ayollarning homilador bo'lishlari oldini olish, abortga rasmiy ruxsat beruvchi qonunlar qabul qilishga davat qilish kabi urinishlardir. Bu harakatlarga Islom olami qat'iy qarshilik bildirdi. Rim papasi ham bu urinishlarni Xudoning xohishiga qarshi harakat sifatida baholadi. Zotan xotin va farzand Xudovandi Karimning ulug' nematlaridan sanalgani uchun bu nematlarga kufr keltirmoqlikdan saqlanish shart. Xulosa chiqadiki, farzandlar balog'at yoshiga yetganida ularni uylantirish (turmushga uzatish) ota-ona zimmasidagi farz, bajarilishi shart bo'lgan vazifa. Agar ota-ona vafot etgan bo'lsa bu farz yaqin qarindoshlar zimmasiga o'tadi. Agar ular ham bo'lmasa bu vazifani mahalla, qo'ni-qo'shnilar, do'stlar bajaradilar. Hozir ayrim ota-onalar bahona topadigan bo'lib qolganlar. вЂњAvval o'qishni bitirib olsin вЂќ, вЂњBir-ikki yil ishlasin вЂќ... O'qishni bitirish, ishlash orqaga surilsa zarari yo'q. Lekin uylanish - tabiiy zarurat, uni orqaga surish oila uchun uyatli holatlarga olib kelishi mumkin. To'ysiz, nikohsiz, ota-ona roziligisiz uylanib olayotganlar boshqalarga ibrat bo'lmaydimi? Bir birodarimiz qiziga kelayotgan sovchilarni sababsiz qaytaraverar ekan.

Aytishicha, qiziga hali mebel olmabdi. Shu qizi sevgan yigiti bilan mebelsiz, eng muhimi ota-ona roziligisiz nikohdan o'tib olsa kimni ayblash kerak bo'ladi?

Oilaning barpo etilishi go'zal hodisa: to'yu tamoshalar bilan nishonlanadi, bu kunlarga yillar tayyorgarlik ko'riladi. Barbod etilishi esa xunuk manzara, bunga ham uzoq oylar yoki yillar tayyorgarlik ko'riladi. Faqat odamning o'zi buni sezmaydi. Hech kim ozgina birga yashab keyin ajralishib ketayin, degan maqsadda oila qurmaydi. Lekin...

Lekin nima uchun oila buziladi? Bunga aniq bir javob berish qiyin. Har bir holatda o'ziga yarasha sabab yoki bahona bo'ladi.

Lekin alohida bir sabablarni umumiy tarzda birlashtirib turuvchi sabablar ham mavjudkim, shular haqida fikrlashsak:

Sir emas, oilalarning buzilishi hollari bizda ham ko'payib boryapti. Buni ayrimlar iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog'lashyapti.

Lekin men bu fikrga qo'shilmayman. Bu fikr bizni oilaga xos bo'lgan asosiy masalalardan chalg'itishi mumkin. Yaqin tariximizda mashaqqati jihatidan g'oyat tengsiz hisoblanuvchi qahatchilik, ocharchilik, qimmatchilik, urush yillari bo'lgan. Bu baloyu ofatlar mashaqqatlarini o'z boshlaridan kechirgan otaxonlar-onaxonlar aytishsin: o'sha og'ir yillarda oilaning buzilishi bugungiday ko'p bo'lmagan-ku? Men buni o'z oilamiz misolida ham aytishim mumkin. Dadam rahmatli Marg'ilondan, ayam rahmatli Andijondan Toshkentga o'qishga kelishib, shu yerda turmush qurgan ekanlar. Besh farzand ko'rib, barchalarini o'qitganlar. Kamina beshinchi farzandman. Qariyb yigirma besh yil mobaynida bizning o'z uyimiz bo'lmagan. Ijara uylarda yashab kelganmiz. Oilaning yagona bisoti eski sandiq uydan uyga ko'chaverish natijasida shalag'i chiqib ketayotgan edi. Gilam degan matohni orzu ham qilganmiz. Men o'sha o'tmishni eslasam, вЂњhammamiz ijara uylarda tug'ilganmiz вЂќ, deb hazillashib qo'yaman. Holbuki, bu hazil emas, haqiqat edi. Hukumat tomonidan hovli berilib, bir uy, bir dahliz qurib ko'chib kelganimizdan keyin ham mashaqqatlar davom etgan edi. Kuz, qish, bahor chakka o'tgan uylarda diydirab yashardik. Men bu o'rinda shunchaki xotiralarni bayon qilayotganim yo'q. Bizga o'xshab azoblanib yashagan oilalar juda ko'p edi. Lekin вЂњqiyinchilik vajhidan oilasi buzilibdi вЂќ, degan gaplarni kam eshitardik. Ota-onalarimiz qurgan oilani nima ushlab turardi? Sabr-bardoshmi? Bir qishloqda aytib berishgan edi: qiyinchilik yillari qishloq raisining uyida bitta atlas ko'ylak bilan bitta toza to'n saqlanarkan. Turmush qurayotgan kelin va kuyov shu sarponi bir kunga olib turishar ekan. Shunday holatda oila qurganlarning nabiralari endi nikohga вЂњmercedes вЂќ, вЂњlimuzin вЂќlarda borishni talab qilishyapti.

Mayli, borishsa borishsin. Biz farzandlarimizga qiyinchilik tilamaymiz. Bizning uyimizda gilam bo'lmasa, ularning uylari qo'sha-qo'sha gilamlar bilan to'lsin. Lekin bu moddiy taminot nima uchun farzandlarimizning baxtli turmush kechirishlarini tamin eta

olmayapti? Biz shu haqda ko'proq o'ylashimiz shartga o'xshab qoldi. В Ў Kimga yaxshi kuyov uchragan bo'lsa, u odam o'g'illik bo'libdi. Kimga yaramas kuyov yo'liqqan bo'lsa, u odam qizini yo'qotibdi Ў, deyдилar. Xuddi shuni В Ў Kimning uyiga yaxshi kelin kelsa, qizlik bo'libdi, yomon kelin kelsa o'g'lidan ajrabdi Ў, deb izohlasak ham bo'ladi. Kelin va kuyov tanlash huquqi biz - ota-onalarda bo'laturib, nega shoshilamiz, nega o'ylamay qadam bosamiz? Yoshlarni-ku, hayotni bilmaydi, g'o'r, deymiz. O'zimiz-chi? O'zimiz ham hayotni bilmaymizmi?

Bizda shu kunlarda ikki hil nikoh mavjud. Biri davlat tomonidan rasmiylashtiriladi. Nikohning muqaddasligini o'zi ham his eta olmagan, hali hayot tajribasiga ega bo'lmagan go'zal xonimlar ikki-uch daqiqaning ichida ishlarini bajaradilar. Diniy nikohimiz ham undan qolishmaydi. Domlani qisqagina savol-javobi bilan xutbasi taxminan shuncha vaqt oladi. Duo qiladi-yu, o'ziga atalgan tugunni qo'ltiqlab jo'nab qoladi. Nikoh o'qiyotgan domlamiz muqaddas va muazzam saroy poydevorini qo'yishga vosita bo'layotganlarini o'zlari ham his etmaydilar. Nikohlangan ayrim yoshlar iymon kalimasini ham bilmaydilar. Islomdagi nikoh va oilaning muqaddasligi nimalardan iborat ekanini tasavvur ham qila olmaydilar. Ko'plarining fikricha nikoh jinsiy aloqaga ruxsatdan iboratdir. Jinsiy aloqaning ijozat etilgan va man qilingan jihatlari mavjudligini bilmaydilar, tarbiya beruvchi otalari ham bundan bexabar bo'lsalar ehtimol. Xabardor bo'lgan taqdirilarida ham o'g'il bilan bu mavzuda suhbat qurish odati bizlarda yo'qim, bu afsusli holdir. Islom ilmidan oz bo'lsa-da xabari bor domla nikoh chog'ida Qur'on oyatlari asosida bu xususda malumot berib qo'yishi shart deb o'ylaymiz. Chunki g'arbning behayo filKjmlarini ko'rayotgan yoshlarning ayrimlari jufti halollaridan o'sha kinoda ko'rganlariga o'xshash aloqani talab qiladilar. Bunday aloqani o'zi uchun sharmandalik deb bilgan kelinlarning uylariga qaytib ketib qolish holatlari ham uchrab turibdi. Ketib qolmagan taqdirilarida ham, kuyov bolaning tashqaridan nafsini qondirishga urinishi boshlanib qolyapti. Bizning yosh oilalarimizga g'arb shunday balolar daf qilyaptiki, biz kattalar g'ofil bo'lmaylik. Bu o'rinda, otaning o'g'luga nasihati muhim. Shu bois, azizlar, bu mavzuda so'z ochish uyat yoki odobdan emas, degan istiholaga bormang. To'g'ri, siz daf'atan В Ё sen shunday behayolik qilayotgan emishsan Ё, deya olmaydilar. Bunga asosingiz yo'q. Kelingiz hech qachon sizga shikoyat qilmaydi. Agar shunday holatlar yuz berayotgan bo'lsa u onasiga aytishi va qudalar orqali malum bo'lishi mumkin. Lekin bunday hodisa yuz berishini kutib o'tirish shart emas. O'g'lingiz bunday behayolikdan uzoq bo'lsa ham, umumiy tarzda В Ё bazilar kinoda ko'rganlarini xotinidan talab qilar ekan, bu gunoh hisoblanadi Ё qabilida, eslatma tarzida aytib qo'yilsa zarar qilmaydi.

Nikoh o'qiyotgan domlamiz yoshlarga taloqning manosini ham anglatib qo'yishlari kerak. Ko'pchilik taloqning manosini bilmay yashaydi va kunlarning birida g'azablanib В Ё uch taloqsan! Ё deb yuboradi. Shu bir og'iz hukm bilan oila buziladi. Keyin yarashmoqchi bo'lib borishsa, domlamiz В Ё uch taloq Ё qayta nikohlanmaydi, deb qattiq turib oladilar. Bu masalada ozgina mulohazamiz bor: bu oila shar'iy hukmlar asosida yashamadi, shariat nimaligini bilmaydi, shuning barobarida er ham xotin ham taloq tushunchasidan bexabar. Erning bilgani: В Ё uch taloqsan, uyingga jo'na! Ё Xotin ham bitta bo'g'chasini tugib, bolasini yetaklab yig'i-sig'i bilan otasinikiga qaytaveradi. Ularda В Ё iddav Ё, В Ё mahar Ё degan tushuncha ham yo'q. Agar oila buzilsa, birinchi galda xotinni ayblashga ko'nikib qolganmiz. Qaysidir birodarimizning ajralishganini eshitsak, В Ё xotini yomondirdav Ё deb qo'yamiz. Kamdan-kam hollarda В Ё o'zi yomondav Ё deymiz. Oila buzila boshlayotganini eshitsak В Ё er-xotinning orasiga ahmoq odam tushadiv Ё, deb o'zimizni olib qochamiz. Bu tanani noo'rin deb bilasizmi? Unda eslab ko'raylik-chi, qaysi oilani o'nglab qo'yishga harakat qildik? В Ё Battar bo'lmaydimi! Ё deb bazan shu to'xtamga ham kelamiz. Axloqqa doir ko'p kitoblar ko'rishga to'g'ri keldi.

Oilaning buzilishi masalasi ko'rilganda ularda ham asosiy ayb xotinlar zimmasiga yuklanadi. Nahotki erkaklar farishta kabi beayb bo'lsalar? Kunda mast-alast yursa ham er В Ё yaxshiv Ё. Xotinini do'pposlasa ham er В Ё yaxshiv Ё -xotin yaxshi bo'lsa kaltak yermidi! Xotini topib kelganini so'vursa ham er В Ё yaxshiv Ё. Yaxshi... yaxshi... ming marta yaxshi! Hatto oilasiga xiyonat qilish zino ustida qo'lga tushsa ham er В Ё yaxshiv Ё. В Ё Na, endi yigitchilikda shunaqa sho'xlik bo'lib turadi-da! Ё deb qo'ya qolamiz. Hech mahal В Ё Alloh zinoni harom qilgan edi, bu gunohi uchun toshbo'ron qilinishi kerak Ё demaymiz. Islomda erkakning zimmasiga moddiy taminot va jismoniy himoyadan tashqari xotiniga adolatli bo'lish, uning haqqiga rioya qilish mas'uliyati yuklangan. Xotin kechki ovqatni pishirib qo'yib, erning kelishini kutadi, er ishi ko'pligi bahona, buzuqlikda yurmasa ham, oshnalari bilan choyxonada palovxonto'ra bilan tillashadilar. Nima deymiz, bu adolatdanmi? Er oilada hukmron ekanligini yaxshi anglaydi, hukmron martabasida turib xotiniga faqat qo'pol muomala qiladi. Xotinning shirin so'z eshitishga haqqi yo'qmi? Nima bo'lganda ham В Ё Qars ikki qo'ldan chiqadiv Ё degan gap bor. Agar oila buzilish jari yoqasiga kelib qolsa, aybni har ikki tomondan izlash kerak. Shunda oilani saqlab qolish imkoni kengayadi. Agar ayb bir tomonga ag'darilaversa, tarozining bir pallasi dosh berolmay qolishi mumkin.

Alloh taborak va taolo marhamat qiladi: В Ё Agar biron ayol eri tomonidan ko'ngilsizlik yoki yuz o'girib ketish sodir bo'lishidan qo'rqsa, u holda ikkovi o'zaro bir sulhga kelishib olishsa (yani ayol erining holi va xohishiga qarab o'zi uchun erga malol keladigan darajada nafaqa talab qilmasa, shu bilan barobar er ham xotinni tashlamaslikka, unga zulm qilmaslikka rozi bo'lsa) zararsizdir. Sulh (ajralib ketishdan) yaxshiroqdir. Nafslar qizg'anishga hoziru nozir bo'lib turadilar. Agar (ayollaringizga) chiroyli muomala qilsangizlar va Allohdan qo'rqsangizlar (o'zingizga yaxshidir). Zero, Alloh qilayotgan amallaringizdan xabardor bo'lgan Zotdir Ё. Oyatni durustroq fahm etmog'imiz uchun ulamoning tafsirlariga murojaat qilishga to'g'ri keladi:

Malumki, turli sabablarga ko'ra erda xotiniga nisbatan nafrat paydo bo'lishi mumkin. Natijada er xotinidan ajralmoqchi yoki undan yuz o'girib, taloq ham qilmay, muomala ham qilmay tashlab qo'ymoqchi. Xotin eridan ajrashni xohlamasa, yarashishga urinadi. Erning nafratiga yoki yuz o'girishiga sabab bo'lgan ishlarni bartaraf etish bilan uni rozi qilib, ajralmay qolishga tirishadi. Misol uchun, hatto o'z qonuniy haqqi bo'lmish mahrning hammasidan yoki bir qismidan voz kechib yuborishi mumkin. Nafaqa bermasang ham mayli, yoki ozroq nafaqa bersang ham taloq qilmasang bo'ldi, deyishi mumkin. Shunga o'xshash holatga qarab turli taklif va murosalar bilan sulh tuzib ajralmay qolishda gunoh yo'q ekan. Shuning uchun ham oyatning davomida: В Ё Sulh yaxshidir Ё, deyilmoqda. (Bu tafsir shariat hukmi bo'yicha yashaydigan oilalarga xos. Bugungi kunda mahr nima, nafaqa nimaligini bilmay yashayotganlar nima qilishlari kerak? Oraga sovuqchilik tushishiga sabab bo'lgan holatni aniqlab, muolaja qilishdan boshqa choralari yo'q. Bunaqa paytda ko'proq ayol kishining yon bosishi lozim bo'ladi.)

Islomda turli usullarni qo'llab oilani saqlab qolishga harakat qilinadi. Ushbu choralar ham mazkur rag'batdan kelib chiqqan. Oyatning davomida nafslarning qizg'anishga hoziru nozir ekanliklari takid etilmoqda. Yani inson tabiatida qizg'anishga moyillik mavjud. Odam molu mulkni, chiroyli narsalarni yoki mansabni qizg'anadi. Ana shu tabiiy hol etiborga olinsa, xotin tomondan taklif qilingan molu mulk yoki ayrim qulayliklar erdagi qizg'anish tabiatini qo'zg'ab, ajralmay qolishga undashi mumkin. Lekin insoniy aloqalar faqat molu mulk yoki bazi bir manfaatlar asosidagina qurilmaydi. Balki yaxshilik, savob ishlar qilish kabi holatlar ham ko'p. Jumladan, xotinidan nafratlanib, uni taloq qilmoqchi bo'lgan yoki yuz o'girib tek tashlab qo'ymoqchi bo'lgan erkak shu

xotinning ajralish istagi yo'qligini bilgach, unga yaxshilik qilib, taqvo yuzasidan o'zi bilan olib qolsa, yaxshi bo'ladi. Alloh unga ajr va savob beradi.

Har narsaning meyor bo'lganidek, erni mol-mulk bilan ushlab turishning ham chegarasi bor. Agar xotin badavlat oiladan bo'lsa-yu, har janjalda kuyov bolaning ko'nglini ovlash uchun biron nima sovg'a qilib turilsa: bir safar uy, keyin avtomashina... Ayrim bemorlar bir xil dorini ichaverishsa, avvaliga shifo bergan shu dori oqibat tasir etmay qo'yadi. Mol-mulk bilan ko'ngil ovlash ham shunday bo'ladi. Yoki kuyov bola qimmatbaho sovg'alarga o'rganib, kanaga o'xshab qolishi mumkin.

Hazrati shayx Hotami Asomning xotinlari ham soliha va karomati zohir ayol edilar. Bir kuni Hotam hazratlari g'azotga ketmoqchi bo'lib, ayollariga:

-Men to'rt oylik safarga ketgayman, shu to'rt oylik muddatga qancha nafaqa istaysan? - deb so'radilar.

-Tirik qolishimga yetgulik nafaqa qoldiring, - dedilar ayollari.

-Tirikliging va o'liming mening qo'limda emas, Haq taoloning izmidadir.

-Unday bo'lsa, mening rizqim ham sizning qo'lingizda emas, janobi Haqning izmidadir.

Hotam hazratlari bu javobni xush ko'rdilar va ahli ayollarini duo qildilar. Qo'shni xotinlar kelib v ЁњEringizdan nechun nafaqa so'ramadingiz? Ёњќ deb ajablandilar. Javoban dedilarkim: v ЁњUl ham men kabi rizq yeguvchidir, berguvchi emasdir Ёњќ.

Er-xotinlik o'rtasida Alloh huzuridagi tenglik shunday bo'ladi. Buni anglagan oilaga buzilish xavf solmaydi. Er o'z mas'uliyatiga, xotin o'z mas'uliyatiga teng javobgarligini his etish kerak. Teng huquqlilik shundan iborat. Er bilan teppa-teng gap talashish, teppa-teng olishish - tenghuquqlilik emas, nodonlik. Yengil vazndagi bokschi hech mahal og'ir vazndagi bokschi bilan olishmaydi. Oilada ham mana shu qoidaga amal qilinsa yaxshi.

Nikoh er va xotinning hayotda sherik bo'lishlari xususidagi ahd-paymondur. Ahd-paymon va sheriklik turli soha vakillarida ham uchraydi. Aytaylik, hunarmandchilikda, tijoratda, ziroatda... Agar sheriklar ahdlariga vafo qilsalar xayrli nematlarga ega bo'ladilar.

Oraga xiyonat, g'araz yoki tama aralashsa ishlaridan baraka ketadi. Har ikki tomon ham zarar ko'radi. Nikoh bilan bog'langan oila ham shunga o'xshashdir. Er ham, xotin ham ahdiga vafo qilsa oilada baraka bo'ladi va bunday oilani biz v Ёњfarishtali xonadon Ёњќ deb sifatlaymiz. Urush-janjaldan bo'shamagan oilani esa v Ёњshayton vasvasasidagi xonadon Ёњќ, deb tariflaymiz.

Agar oiladagi nafrat o'ti mehr va muhabbat gulini so'ndiradigan darajaga yetsa nikoh - dastlabki ahd-paymon bekor qilinadi va bu bitim shariat tilida v Ёњtaloq Ёњќ deb ataladi. Taloq xususida qisman so'zlagan edik, yana mavzuga qaytishga hojat sezildi. To'g'ri, oiladagi janjal toqat qilib bo'lmas darajaga yetgandan so'ng orada taloq bo'lmasa erning ham xotinning ham butun umri g'am va qayg'uga sarf bo'lib qoladi. Islom dinimizda taloq er va xotinni shunday balodan asrash uchun qo'llaniladi. Bazan shunday bo'ladi: xotinning niyati yaxshi. Nodonligi yoki tajribasizligi, qaysarligi yoki uquvsizligi tufayli uy ishlaridami yo bola tarbiyasidami yoki eriga munosabatidami xato-kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Bunday ayollarni kechirish, ularga marhamat ko'rsatish kerak bo'ladi.

Lekin xotin eriga adovat va xusumatini doimiy ravishda kuchaytirib boraversa-chi? Bu holatda ham darrov taloq berilmaydi. Bu xususda Alloh buyuradiki: v Ёњ...avvalo ularga pand-nasihah qilinglar, so'ng (yani nasihat kor qilmasa) ularni yotoqlarda tark qilingiz (ular bilan bir joyda yotmang, yaqinlashmang) so'ngra (shunda ham sizga bo'ysunmasalar) uringlar! Ammo sizga itoat etsalar ularga qarshi boshqa yo'l axtarmanglar. Albatta Alloh eng Yuksak va Buyuk Zotdir Ёњќ (Niso surasidan). Endi mazkur oyat mag'zini tushunishga urinib ko'raylik: demak, xotin tomonidan oilaning yo er-xotinning tinch-totuvligiga rahna soladigan biron holat sodir bo'lsa, erning vazifasi birinchi galda nasihat qilib, to'g'ri yo'lga davat etishi lozim ekan. Ayollarning ko'ngillari tabiatan yumshoq va ehtirosli bo'ladi. Ko'pincha maqul so'zlar va do'stona o'gitlardan ayollar tasirlanib, yomon ishlardan va amallaridan qaytadilar. Lekin nasihatlar foyda bermasa-chi? Unda jazo sifatida o'rni boshqa qilib, unga ikki-uch kecha yaqinlashmaydi va shu harakati bilan qattiq noroziligini bildiradi.

Aqli bor xotin bu holatni qat'iy ogohlantirish o'rnida qabul qiladi. Chunki ikki-uch kun o'rni bo'lak qilgan er, oqibatda butunlay ajrashib ketishi ham mumkin. Demak, bu oddiy araz emas, ajralish ehtimolidan ogohlantirish. Endi dili qotib qolgan ayolga bu vosita ham tasir etmadi. U vaqtda xotinni qattiq ozor bermaslik sharti bilan urish joizdir. Har kim anglashi zarurki, xotin rohatlanish uchun urilmaydi, balki uni to'g'ri yo'lga solish maqsadidagina qo'l ko'tarishga ijozat beriladi. Lekin tabiiyki, erga itoat etishni o'zi uchun burch deb bilgan ayol va o'zidan Quadratli Zot -Alloh ko'rib turganiga iymoni komil bo'lgan er bu oxirgi choraga yetib kelmaydilar. v ЁњUrrib, dabdala qilaman Ёњќ, degan fikrdan er nari bo'lishi kerak. Unga hech kim xotinini dabdala qilishga ijozat bermagan. (Xotinni urish faqat bizda emas, taraqqiy etgan mamlakatlarda ham bor ekan. Yaqinda Yevropaning bir necha mamlakatida xotinini urganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortish haqida qonunlar qabul qilindi.) Payg'ambarimizdan (s.a.v.) hadisdirki: v ЁњAgarda xotinlaringiz shar'iy va savob ishlarda sizlarga bo'ysunmasalar, ularni majruh qilmasdan va ko'kartirmasdan, qattiq ozor bermasdan uringlar Ёњќ.

Xotin bu choralardan keyin bemani harakatidan tiyilsa, er boshqa bahona qidirmasdan haddidan oshmasligi kerak bo'ladi. Erkak bo'lganidan mag'rurlanib, asossiz gumonlarga borib, ayoliga zulm va jaf qilishi man etiladi. Asossiz jaf qilar ekan, jabr chekkan ayolning o'chini Alloh oladi. Bazi birodarlarimiz xotinlarini tez-tez uradilar va bu harakatlarini oyat hukmi bilan izohlaydilar. O'tmishda ham shunday holatlar uchray turgan ekan. Ustoz Abdurauf Fitrat bu haqda 1914 yilda shunday yozgan ekanlar: v ЁњNiso surasidagi o'ttiz to'rtinchi va o'ttiz beshinchi oyatlar tarjimai va izohi bilan mashg'ul bo'lib o'tirganimda bir do'stim muloqot uchun keldi. Men shu mavzuda muloqot qilmoqni orziqib kutar edim. Shu masalani uning huzurida bayon qilib, oyatni o'qib berdim. U kulib aytdi: v ЁњEy Abdurauf, xotinlarni urish va haqoratlash biz buxoroliklarni umumiy odatlarimizdir. Lekin bugungacha bu yaramas harakatimiz shariatga muvofiq ekanini bilmasdik. Shukrkim, bugun sen buning mumkin ekanini tushuntirding. Insha Alloh bundan keyin xotinlarimizni ko'proq va yaxshiroq uramiz Ёњќ. Dedim: v ЁњAzizim! Masalani to'g'ri tushuntira olmadim shekilli!? Islom dini ayollarni urishni man qiladi, balki erkaklarga xotinlaringizga marhamat va murosayu madora qilib, hurmat qilinglar deb amr qilgan. Yuqorida men bu masalani bayon qilgan edim. Lekin senga bayon qilgan bu masala alohidadir. Faraz qilaylikki, bir yomon xislatli va badaxloq ayol bor. Bechora er xotininining unga adovati borligini bilib, uning halovatini buzayotganini tushuntiradi. Xotin quloq solmaydi. Ikki-uch kun xotinidan uzoqlashadi. Xotin shunda ham xulosa chiqara olmaydi. Shunda siz ham bilasizki, erning xotiniga taloq berishdan boshqa iloji qolmaydi. Biroq Islom dini taloqni man qilmoqchi bo'lib, erga: v ЁњTaloq berishga shoshilmagin Ёњќ, deb amr qiladi. Xotinning azolarini mayib qilmay va lat bermay uni ozgina urg'in, zora yomon ishdan tavba qilsa va munosabati o'zgarsa. Mening izohimdan bildingki, Qur'on hukmi maslahat yuzasidan bo'lib, ahli Islom oilalari uchun, xususan, musulmon ayollariga buyuk marhamatdir Ёњќ. Men bu shaxsiy suhbatni shuning uchun yozdimki, boshqalar ham mening bayonotimni shu do'stinga o'xshab tushunib, xotinlarini urish uchun bahona qilib olmasinlar Ёњќ.

To'qson yil avval bayon etilgan bu fikr haligacha qadrini yo'qotmagan va Qur'on hukmini noto'g'ri anglab yurgan birodarlarimizga

14 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

hali ham ibratdir.

Er oilani saqlab qolishning barcha choralarini ko'rdi, ammo foydasi bo'lmadi, birga yashashning sira iloji qolmadi. U holda, nachora, ajralishsin, taloqqa ruxsat beriladi. ВЪЪAgarda er-xotin tinchlik va rozilik bilan ajrashsalar, Alloh keng marhamati va karami bilan ularni bir-biridan behojat qiladivЪќ (Niso surasidan). Ammo zaruratsiz, balki nafs havosining taqozosi bilan taloq berilsa, albatta gunoh va haromdir, gunohkor jazosini oladi. Demak, taloqqa ijizat bor. Lekin Islom dinimizda xush yoqmaydigan muboh (mumkin) amallardan hisoblanadi. Bu haqda Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qilingan hadisda Nabi (s.a.v.) marhamat qiladilar: ВЪЪAlloh oldida eng yomon muboh - taloqdirvЪќ.

Bazan oiladagi yomon sharoit, erning zulmi va boshqa qabih odatlari xotinning sillasini quritadi va uning o'zi eridan taloq talab qiladi. Bu jarayon tez bo'lmaydi. Har qanday ayol avvaliga sabr qiladi. Ehtimol yillar bo'yi bardosh berar. Oxiri sabr-bardosh to'g'oni o'pirilish darajasiga kelgach, taloq so'raydi. Lekin uning talablari ham asosli bo'lishi kerak. Birorta mish-mish yoki gumonlarga ishonib yoki boshqa erkakka ko'ngil qo'ygani sababli o'z eri bilan ajrashni qasd qilmasligi kerak. Bu xususda sahoba Suhbon (r.a.) rivoyat qilgan hadisda Payg'ambarimiz alayhissalom marhamat qiladilar: ВЪЪQaysi xotin bezarurat va ehtiyojsiz eridan taloq talab qilsa, jannat va Allohning rahmati unga tegmaydivЪќ.

Ayrim singillarimiz ota-onalarining xohishi bilan o'zlari ko'ngil qo'ymagan yigitga turmushga chiqadilar. Oilada keyinroq boshlanadigan kelishmovchiliklar zaminida xotinning aynan shu ko'ngilsizligi yotadi. Ayrim ayolllar shu ko'ngilsizlik sababli xiyonat ko'chasiga ham kirib qoladilar. Ana shundaylarga soliha bir ayolning gaplarini eslatmoqchimiz: hakimlardan biri yosh va go'zal bir ayolni imtihon etish uchun bunday debdilar:

-Senday go'zal bir ayolning shunday xunuk eri bo'lishi yaxshi emas.

Bu go'zalning eri chindan ham xunuk, bu ham kamlik qilganday hamisha kir yuradigan, noxush odam edi. Go'zal xotin ulamoning gapiga bu go'zal javobni berdi:

-Ey Hakim! Siz ko'p yanglish so'zladigiz! Gapingiz to'g'ri emas. Bunday so'zlarni sizday odamdan eshitib ko'p ranjidim. Chunki erimning Alloh taolo oldida bir savobi borligidan bo'lsa kerak, meni ul savobga nisbatan bir mukofot o'laroq nasib etgandir. Balki men biror ish qilgan bo'lishim mumkin. Haq taolo bu gunohimning jazosi sifatida meni unga bergandir. Janobi Haqning bergan taqdiriga rozi bo'lish kerak.

Bu javobdan mamnun bo'lgan ul olim go'zal ayolga debdi:

-Bolajonim, men seni dindor va aqlli bir ayol ekanligingni sezgan edim. Shuning uchun imtihon qilib ko'rayin, degan edim. Qizim, ayollarda jannatga kirish uchun eng buyuk nishon -alomati erlarining yomon fellariga sabr qilmoqdir. Bu sabr ularni jannatga olib boradi. Jannati soliha ayolning nishoni va alomati eriga itoat etmog'i, erining xotirini xush tutishi, eri yo'qligida xayr-duo etmog'i va erining mol-mulkini saqlab, ehtiyot qilmog'i kabi

xususiyatlardan iboratdir. Mening bu aytganlarim soliha ayolning jannatga kirishi uchun bir nishondir.

Har kishining ayoli shunday soliha bo'lishini Alloh nasib etsin. Er qadrini bilmaydigan jahannami xotinlarga Alloh insof-tavfiq bersin!

Er-xotinning ajrashi birgina oilaga xos masala emas. Oilaning buzilishiga jamiyat befarq qarab turolmaydi. Har tomondan oilani saqlab qolishga urinishlar bo'ladi. Shu o'rinda er-xotinning janjalidan o'zlarini olib qochuvchi birodarlarimizga ham Allohning amrini eslatib o'tishimiz joiz: ВЪЪAgar er-xotinning oralari buzilib ketishidan qo'rqsangizlar, erning urug'-aymog'idan bir hakam, xotinning urug'-aymog'idan bir hakam chaqiringiz. Agar ular isloh qilishni istasalar, Alloh er-xotin orasiga ittifoqlikni solur. Albatta Alloh Bilguvchi va Xabardor ZotdirvЪќ (Niso surasidan). Bu oyati karimada gap ham er, ham xotin tomonidan kelishmovchilik chiqqan paytida ko'riladigan chora haqida ketyapti. Shunday holat yuzaga keldiki, endi oilaning sirini tashqariga chiqarmasdan hal etishning iloji yo'q. Endi boshqalarning aralashuvi bilan oilani saqlab qolish chorolari ko'rilishi shart. Er o'zi rozi bo'lgan qarindosh-laridan, xotin ham o'zi rozi bo'lgan qarindoshlaridan hakam tayin etadi. Agar oila hali yosh bo'lsa, bu vazifani ota-onalar bajarishadi. Mufassirlar bu o'rinda ВЪЪo'zi rozi bo'lganvЪќ deb alohida takid etishadi. Bunga sabab ular tayin etgan hakamlar davolarni eshitib, shunchaki nasihat qilib qo'yish bilan cheklanishmaydi. Ular hukm ham chiqaradilar va er ham xotin ham ularning hukmiga rozi bo'lishlari kerak. Hakamlar tanlanganida aqlari, turmushning pastu balandidan o'tib kelgan tajribalari inobatga olinadi. Eng muhimi har ikki tomonning hakami Allohdan qo'rqqan holda adolatli hukm chiqarishga harakat qilishlari kerak bo'ladi. Agar o'rtada taqvo bo'lmasa, ikki tomon o'zi tomonga og'ib ketaversa, unda adolat qaror topa olmaydi. Bu o'rinda taqvo adolatni yuzaga chiqaruvchi muhim omildir. Hakamlarning asosiy vazifasi eru xotin orasini isloh qilishdir. Shuning uchun ham oyati karimada ВЪЪagar ular isloh qilishni istasalarvЪќ, deb ularga islohchilik nisbati berilyapti. Ayrim ulamo ВЪЪHakamlarga faqat yarashtirish - isloh huquqi berilganvЪќ, deydi. Yana ayrimlari ВЪЪIsloh qilishning iloji yo'qligiga amin bo'lishsa, eru xotinni ajratib qo'ysalar ham haqlari bor, shuningdek, ular tegishli jazo choralarini, molu mulkka oid masalalarni ham hal qilishadivЪќ, deydi. Albatta, hakamlar o'zlarining insoniy cheklangan ilmlari va imkoniyatlari doirasida hukm chiqaradilar. Hakamlikka nomzod mo'ljalaganda bular ham etiborga olinmog'i shart. Er yoki xotin tomon hakamlikka qarindoshlaridan birlarini tanlashgach, unga ajralishga sabab bo'layotgan hodisa yoki gapni bayon qila boshlaydilar. Shubhasizki, mag'zava qarshi tomonga ag'dariladi. Hakamlarni qiyin ahvolga solib qo'yadigan holat ham aynan shunda. Hakam donishmand bo'lsa, aytilganlarning mag'zini chaqib ko'radi, mantiq tarozisiga solib chamalaydi. Aravani quruq olib qochadiganlardan bo'lsa, qarshi tomonni ayblashdan bo'shamaydi. Bazan bir-biriga mutlaqo zid ravishda fikrlaydigan hakamlar uchrashib qoladilarki, yarashishga umid qilib o'tirgan er-xotin oqibatda tamoman teskari bo'lib ketadilar. Shunday voqealardan biri: yosh oila yarim yil ichida buzilish jari yoqasiga kelib qoldi. Kuyov bola ajralishga asosiy sabab deb kelinning kiyinish madaniyatini ko'rsatadi. Yani kelin shim kiyarkan, erning hijobga kirish haqidagi talabini rad etarkan. Bir qaraganda talab to'g'ri. Xotin er xohlaganday kiyinib yurishi kerak. Chunki xotin birinchi galda eriga chiroyli va yoqimli ko'rinish harakatida bo'lishi kerak. Bizda ko'pincha teskari holat kuzatiladi: ayollarimiz uyda o'zlariga qaramaydilar, ko'chaga chiqadigan bo'lsalar pardoz-andozni boshlab yuboradilar. Xullas, yigit tomon uning talablarini mutlaqo haq deb turishibdi. Kelin tomondan tayinlangan hakam ellik yoshlardagi gapga chechan ayol zamonaviy tarzda kiyingan. Yoshiga yarashmasa ham shim kiygan, boshda ro'mol yo'q. U shubhasizki, o'z dunyoqarashi asosida kelinni himoya qiladi. Kuyov tomonni feodallikda ayblaydi. ВЪЪShu qiz birinchi uchrashuvga chiqqanida ham shim kiyib olgan edi, o'shanda nima uchun indamadingiz?vЪќ deb kuyovga savol beradi. Kuyov ВЪЪkeyinroq to'g'ri yo'lga solib olishga umid qilganinivЪќ aytadi. Durust, kuyovning shunday yaxshi niyati bor ekan. Ammo bir odamni o'zgartirish uchun yarim yil kifoya qilarmikin? Kelin hijobga kirishi uchun avval Islomni o'rgana boshlashi kerak. Talablarini bilib, unga ko'nika borishi kerak. So'fiy Ollohyor aytmoqchi:

Zamona xotununi yo'lga solmoq

Erur oson ul ishdin jang qilmoq...

Deyilmoqchikim, bu zamonda xotinlarni to'g'ri yo'lga solmoq bir qal'ani jang qilib olmoqdan mushkuldir.

Bu sharoitdagi ikki hakam go'yo suv bilan olov kabi edi. Er-xotin chetda qolib ular o'zaro dahanaki jangni boshlab yuborishdi. Bu jangda hech kim g'olib kelmadi, oila barbod bo'ldi xalos. Demoqchimizki, hakamlikka gapga chechanlarni emas, sermulohaza, dono odamlarni tanlash kerak. Shu xususda yana bir voqea: er xotinini buzuqlikda ayblab ajrashmoqchi. Islomda shunchaki birovning gapi yoki gumon bilan o'z ayolini bunday ayblash mumkin emas. Guvohlar bilan zino ustida ushlagina davosi o'rinli bo'ladi. Ajrashmoqchi bo'layotgan er ayblaydi, xotini bu aybni rad etib, qasam ichadi, ayni choqda erini tuhmatda ayblaydi.

Hakamlar ishtirokidagi munozara

uzoq davom etadi. Shunda mahallaning dono oqsoqoli hisoblangan hakamlardan biri erni tashqariga imlab chaqiradi-da, nimadir deydi. Er tashqarida bir oz o'ylanib turgach, iziga qaytib, xotini bilan yarashajagini malum qiladi. Bu hol ko'pchilikni ajablantiradi, oqsoqoldan v Ёyigitga nima devdingiz? Ё Ё deb qiziqishadi. Ammo oqsoqol oradagi sirni ochmaydi. Oradan ko'p yillar o'tdi, oila tinch-totuv yashadi, farzandlar ko'rdi. To'ylar qilishdi.

Ajrashmoqchi bo'lgan o'sha er avtomobil halokatida jon bergandan keyin, bir kuni otaxon menga sirni ochdilar. Erni fikrdan qaytargan gap bunday ekan: v Ё O'g'lim, bu xotinni qo'ysang, endi baribir senga bokira qiz tegmaydi. Bitta yoki ikkita erdan chiqqan xotinga uylanasan. Ehtimol, sen uylanadigan xotin eridan chiqqanidan keyin chakki yurib, yana qancha erkaklarni ko'rgandir. Sen v Ё xotinim bitta odam bilan yuradi v Ё, deb gumon qilyapsan. Gumoning to'g'ri chiqqanda ham shu xotining keyin keladiganidan pokizaroq bo'lib chiqadi-ku? Undan ko'ra gumonni boshingdan chiqarib tashla. Xotiningning chin so'ziga ishon. Xudo ham shunga buyuradi v Ё. Otaxonning donoligi shundaki, bu gapni ko'pchilikning orasida aytganida er quloq solmagan bo'lardi. Aksincha v Ё Hali qarab turasiz, onasi o'pmagan qizga uylanaman! v Ё deb ko'kragiga urgan bo'lardi. Albatta har bir oilada o'zaro rashk bo'ladi. Aslida rashkning bo'lgani ham yaxshi. Chunki ulug'larimizdan So'fiy Ollohyor aytmoqchi:

Jami' jonvorlar tushsa ko'zga

Hamiyyatlik bo'lur to'ng'izdin o'zga.

Deyilmoqchikim, barcha hayvonlarda ham rashk bor, faqat to'ng'izda yo'q, modasini qizg'anmaydi.

Taajjub fitnalikdur bu zamona

Tushubdur erlar ahvoli yamona.

Deyilmoqchiki, ajab fitnalar ko'pdir bu zamonda. Erler o'zlarini yomon ahvolga solganlar. Yani ularda g'ayrat va rashkdan asar ham qolmay, xotinlarini bozorlarga pardasiz yuborurlar. Xotinini sira rashk qilmaydigan, bila turib begona erkakdan qizg'anmaydigan erni dayus deyidilar. Boshqacha aytusak, o'z xotiniga qo'shmachilik qiluvchi erkak dayusdir. Sevikli Payg'ambarimiz (s.a.v.) jannatga kirmaydigan uch toifadan biri, deb aynan shu dayusni, bilib turib xotinini yomon yo'lga kirishiga yo'l qo'ygan erkakni aytganlar.

Agar rashk butunlay bo'lmasa erkak to'ng'iztabiatli hisoblanarkan. Yana derlarkim: v Ё G'ayrat mardin (haqiqiy rashkni) bajo kelturg'il. Beg'ayrat kishini kishi demag'il. Har kishida g'ayrat bo'lmasa, dini ham bo'lmag'usidir v Ё. Demak, rashk kerakli fazilat ekan. Biroq, rashk o'ti haddan ziyod alanga olsa illatga aylanadi. Er xotinning yoki xotin erning har bir qadamini kuzataversa orada ishonch yo'qoladi. Ishonch yo'qolgan uydin fayz ketadi. Shu tufayli arzimagan narsadan janjal chiqaveradi. v Ё Boshqasini topganga o'xshaysizda, mening hamma ishlarim ko'zingizga yomon ko'rinib ketyapti v Ё, deydi xotin. v Ё Bitta yarimta xushtoring bormi, pardozlaring boshqacha bo'lib ketyapti v Ё, deydi er. Qarabsizki, yaxshilikka xizmat qilishi kerak bo'lgan rashk oilani buzishga olib keladi.

v Ё Agar sen xotiningga rashklik qilmasang, u senga samimiyat bila munosabatda bo'lur. U senga ota-onang va farzandingdin ham mushfiqroq bo'lur va senga undin do'stroq kishi topilmas. Agar unga g'ayrat ko'rguzsang, senga ming dushman din dushmanroq bo'lur va begona dushman din hazar qilsa bo'lur, lekin undin hazar qilib bo'lmas v Ё. Kaykovusning bu pandi rashkni meyardan oshirib yuboradiganlarga ibrat bo'lishi lozim. Agar er xotiniga rashkni oshirib uni ayblayvermasa, xotin unga o'z ota-onasidan ham mehribonroq bo'lar ekan. Meyordan oshsa dushman dan ham battarroq dushmanga aylanar ekan.

Bir oilaning buzilishiga sabab bo'lgan voqeani aytib berishgan edi. Uyga erning do'sti mehmon bo'lib kelgan. Xotin xizmatda. Erning ko'zi poyafzallarga tushadi. Qarasaki, mehmonning tuflisi yonida xotining kalishi turibdi. Xotinini chaqiradi: v Ё Nega kalishing uning tuflisi yonida turadi? v Ё Xotin, turgan gapki, bunga etibor bermagan. Shunda er boshqacharoq davo qiladi: v Ё nima uchun sening kalishing uning tuflisiga kulib qarayapti! v Ё Bu holat sizga tentaknamo bo'lib tuyulyapti, a? Albatta bu ahmaqona rashkning ko'rinishi. Shunga o'xshash voqealar takrorlanavergach, xotin ikki bolasini olib ajralib ketishga majbur bo'ldi. Shundan so'ng o'sha rashkchi yana bir necha marta uylandi. Oxiri og'ir kasalga chalingach, so'nggi xotini uni qariyalar uyiga topshiribdi. Bundan xabar topgan o'g'illari otalarini uylariga olib kelib tarbiya qilishibdi. Onalari bunga monelik qilmabdi. Ikki dunyo saodatiga yetuvchi xotin va farzandlar shunday bo'lishadi!

Oilada do'stning o'rni masalasi ham muhimdir. Do'stlik tarixi er-xotin tarixidan avvalroq boshlangan, malum sinovlardan o'tgan bo'ladi. Ayrim yigitlarning do'stligi bog'cha yoshidan boshlangan, bazilariniki institutdan. Yigit oila qurgach, do'stlardan bir oz uzoqlashishi mumkin, ammo butunlay uzilib ketmaydi. Ayrim do'stlarning to'ydan keyin ham avvalgiday serqatnov bo'lishlarini kuzatamiz. Ayrimlari esa do'stining ahli ayoliga nomahram ekanliklarini anglab, bu xonadonga tez-tez kelishdan o'zlarini tiya boshlaydilar. Aqlli do'st deganda biz shundaylarni tushunamiz. To'g'ri, nomahramlik nimaligini bilmaydigan serqatnov do'st ko'nglida shumlik yo'qdir, qalbi tozadir. Do'stining xotinini o'z singlisiday ko'rar. Ammo orada shayton bor, bu bir. Yana atrof dagilarning turli gumonlarga yoki ig'volarga asoslangan gap tarqatishlari bor. Ana shu ig'vo gaplar bir kunmas bir kun erga tasir qilib, yomon oqibatlariga olib kelishi tabiiy. Do'stlar birin-ketin oila qura boshlashgach, ayollarini ham yaqinlashtirish maqsadida v Ё ulfat v Ё tashkil qiladilar. Ayrimlar ayollar uchun alohida v Ё ulfat v Ё tashkil etsalar, bazilar juft-juft bo'lib o'tirishni maqul ko'radilar. Mana shu ikkinchi holatda ko'p fitnalar tug'iladi. Ayollar avvalo bir-birlarini sinchkovlik bilan kuzatadilar, shuning barobarida yigitlar ham etiborlaridan chetda qolmaydi. Yangi tanishgan yosh juvonlar orasida iboli, hayolilari ham, sho'x, yoki odobsizlari ham bo'ladi. Yigitlar bilan baravar askiya aytishadiganlarni ham uchratamiz. Demak, davrada turli fel-atvorli ayollar to'planishgan ekan, turli qiliqlar ham yuzaga chiqaveradi. Yigitlar orasida ham do'stining xotiniga ko'ngli sus ketuvchilar topilmaydi, deysizmi? Shunday v Ё ulfatlar v Ё sharofati bilan buzilgan oilalarni kuzatganmiz. So'fiy Ollohyor yozadilarkim:

O'shal xotunki, nomahram nazardur

Agar shamsu qamardur mochayi xardur.

Deyilmoqchikim: xotin begona erlarga qaraguvchi bo'lsa, garchi o'zi oydek, quyoshdek go'zal bo'lsa-da, uni urg'ochi eshak, demoq lozim.

Tilimizda hamonki вЂњyomon xotin вЂќ degan ibora mavjud ekan, demak, hayotda ham shundaylari bor ekan. Lekin biz вЂњyomon xulqli xotin вЂќ deb izoh bersak to'g'riroq bo'lar. Yomon yoki yaxshi xotin degan tushunchalar ham nisbiydir. Malum bir xotin malum oila uchun yomon yoki yaxshi tuyulishi mumkin. Shuning uchun uzil-kesil xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak. Xotinning yomonligi kimlarga nisbatan bo'lishi mumkin?

xotin er uchun yomon;
xotin qaynona uchun yomon;
xotin qo'shnilar uchun yomon;
xotin erning qarindoshlari uchun yomon;
xotin hamkasblari uchun yomon.
Nima uchun?

erini hurmat qilmaydi, huda-behudaga janjal chiqaradi, rashk qiladi...
qaynonasini mensimaydi, aytgan ishlarini vaqtida bajarmaydi, eriga yomonlaydi...
qo'shnilarni g'iybat qiladi, bir-biriga gap tashiydi, xasislik qiladi...
qarindoshlarining mehmon bo'lib kelishini xohlamaydi, ular kelganda terslik qiladi...
hamkasblarini g'iybat qiladi, boshliqqa kirib chaqadi...

Xotin eri bilan chiqishmasligi mumkin, ammo qaynona-qaynotasi, qayinsingillari bilan munosabati yaxshi. Bu masalani hal etish uncha qiyin emasdek tuyuladi. Qaynona-qaynota kelin tomon bo'lib, o'g'ilni tarbiya etishga urinishadi. Xalqda вЂњEr-xotinning urishi - doka ro'molning qurishi вЂќ degan maqol bor. Lekin bazan o'sha doka ro'molning qurishi qiyin bo'lib qoladi. Nabiy alayhissalom deydilarkim: вЂњHech bir mo'min o'z xotinidan nafrat qilishi to'g'ri emas. Zero, xotinning bazi odat va atvori uning nazarida yomon ko'rinsa ham, bazi odatlaridan rozi bo'ladi. Bas, uning yomonliklarini yaxshiliklariga baxshida etsin вЂќ. Agar erning ko'ngli ko'chadagi jononda bo'lsa, uni qaytarish ancha qiyin. Xotindan birinchi galda sabr etish talab qilinadi. Er-xotin baxtli yashashlari uchun bitta qoidaga qattiq amal qilishlari kerak. Bu qoidaning nomi - BITTA GAPDAN QOLISH! Ha, aynan shunday. Bitta gapdan qolish bilan olam guliston! Xo'sh, kim bitta gapdan qolishi kerak? Birinchi galda xotin. Eriga gap qaytarib baxtli bo'lgan xotinni tarixda - ming yillardan beri hech kim uchratmagan, bundan keyin ham uchratmasligi tayin. Er ham bitta gapdan qolishga majbur. Ehtimol, xotin bitta gapdan qolgan mahalda er ikkita, bazan uchta gapdan qolsa o'zi uchun ham yaxshi. Lekin xotin javrayversa-yu, u indamay o'tiraversa, yaxshilik bo'lmaydi. Vaqti kelganda qaynonalar ham bitta gapdan qolganlari maqul, degan fikrimizni opa-singillarimiz ehtimol maqullamaslar. Lekin bazan murosa qilib, kelishmovchilik cho'g'ini janjal alangasiga aylantirib yubormaslik uchun qaynonalar ham bitta gapdan qolib turganlari durust.

вЂњOnangni otangga beparдоз ko'rsatma вЂќ, degan gap bor. Orastalik, o'ziga meyor qadar zeb berish yaxshi. Biz nima uchundir o'ziga qarab yurishni faqat ayollarga xos, deb bilamiz. Ayrim birodarlarimiz xotini, qizlarini chiroyli kiyintirib qo'yadilaru o'zlari oftobda kuyib ketgan do'ppida, yoqasi buralib ketgan kuylakda yuradilar. Bu yo'qchilikdan emas, ko'proq befarosatlikdan bo'ladi. Befarosat deganda biz erni ham, xotinni ham nazarda tutamiz. Er kiyim-boshga etiborsiz bo'lsa, xotin ziyrak bo'lishi kerak, eriga qarashi kerak. Shunday rivoyat qiladilar:

Bir kuni hazrat Umarning (r.a.) huzurlariga bir xotin eri bilan boshlashib keldi-da erini ko'rsatib:

-Yo Amiral mo'minin! Bu kishi mening erim bo'ladilar. U bilan qurgan turmushimizni o'ylab ko'rdim. Uch oydirki, totuv yashash uchun ko'p harakatlar qildim. Ammo erimda rag'bat ko'rmadim. Uch oy davomidagi turmushimizdan bir narsaga aqlim yetdi: biz bir-birimizni tushuna olmas ekanmiz, shuning uchun ajrashamiz.

Hazrati Umar (r.a.) qarshisida indamay turgan odamdan so'radilar:

-Sen nima deysan?

-Yo Amiral mo'minin! Mening hech qanday shikoyatim yo'q. Men ajralishni istamayman, -dedi er.

Hazrati Umar erning rang-ro'yi, kiyim-boshiga qarab ahvolni yaxshi tushundilar.

-Sen hozir uyingga ketgin-da, bir ozdan keyin kelgin. Ungacha biz ering bilan suhbatlashib olamiz.

Xotin ketgach, hazrati Umar u odamni hammomga olib borishni, yuvintirib, toza kiyimlar kiyintirishni buyurdilar. Erkak pokiza bir holga keltirildi. Picha vaqt o'tgach, xotin kelib bashang kiyimdagi ozoda erini ko'rib quvonib ketdi. U ajrashish haqidagi ahdi ham unutilib, erini boshlab uyiga ketdi. Mo'minlarning xalifasi hazrati Umar (r.a.) shu yerda hozir bo'lganlarga qarab dedilar:

-Sizlar oilalaringizning (ayollaringizning) yaxshi va pokiza kiyinib, sizni kutib olishlarini sevganingiz kabi, ular ham sizni yaxshi va pokiza kiyinganingizdan zavq oladilar, sizlarni yasangan bir holda ko'rishni istaydilar.

Agar xotin eri bilan yaxshi bo'lib, qaynona bilan chiqishmasa, ko'pincha bu masalani ularning ro'zg'orini bo'lak qilish, bazan esa ularni boshqa uyga ko'chirish orqali hal qilishga urinadilar. Qaynona-kelin munosabati eng chigal ayni paytda mavhum masalalardan biri. Agar ularning davolarini eshitsu, umumiyligni ko'ramiz. Qaynona deydi: kelin dangasa, ishyoqmas, uying tozaligiga yaxshi qaramaydi, mug'ombir, onasiga gap tashiydi, kattalarga gap qaytaradi... Kelin deydi: qaynonam birinchi kundani meni chiqishtirmaydilar, har qadamimni o'lchaydilar, bir pas dam olishimni ham ko'rolmaydilar, ovqatga tuzni o'zlari solib, erimning oldida вЂњsho'r qilib qo'yibsan вЂќ, deb urishadilar... Qaynona-kelin munosabatida bir narsani unutamiz: qaynona bilan kelinning yosh jihatdan kamida yigirma yillik farqi mavjud.

Bazi qaynonalar kelinlari bilan urishib qolsalar вЂњMendan yosh-ku, o'zimni hurmat qilmasa ham yoshimni hurmat qilmaydimi! вЂќ deb noliydilar. Biz farqni faqat yoshda, yillarda ko'ramiz. Aslida oradagi yigirma yillik farq - dunyoqarashdagi farq degani. 40-50 yoshdagi ayolning hayot tajribasi o'ziga yarasha dunyoqarashini shakllantirgan. 20 yoshli juvon zamonning tasirida bu dunyoqarashni inkor etishi ham mumkin. Bundaylar orasida вЂњqaynonamning fikrlari eshik qolgan вЂќ, degan gaplarni eshitamiz. Bu nuqtada ikki shaxsning to'qnashuvini shunchaki oilaviy mojaro emas, ijtimoiy masala sifatida o'rganishimiz va hal etishimiz kerak bo'ladi. Bularni biz bedavo dard emas, tuzatish imkoniyatlari mavjud arzimagan kamchiliklar deb qabul qilishimiz kerak. Bu kamchiliklar tufayli oila buzilsa, qaynonani ayblashga haqlimiz. Bazan kelin kamchiliklarini tan olib tuzatishga kirishsa ham, qaynona bo'sh kelmaydi, talablarini yanada kuchaytiraveradi. Shu o'rinda bir fikrimiz borki, buni ham opa-singillarimiz rad etishlari mumkin. Xalqimizda вЂњQizil oyoq kelib, qizil yuzdan judo qildin вЂќ, degan maqol bor. Bu kelin

kelib, o'g'limni o'ziniki qilib oldi, degani. Ayrim ayollarda o'g'lini qizg'anish hissi bo'ladi. O'g'il uylanib, kelin bilan yotog'iga kirib ketganidan keyin ona qalbida bir uzilish bo'ladi. Yani, hamisha yonida bo'lgan o'g'il endi o'zganing ixtiyorida. Balki shu his onada kelinga nisbatan norozilik uyg'otar? Bu ruhiyat muammosi. Fikrni birdaniga rad etmayligu, o'ylab ko'raylik. Qaynona-kelin muammosini hal etishda shu ruhiy holatni ham nazardan chetda qoldirmaylik. Ayniqsa o'g'il farzandlar shu masalada ehtiyot bo'lishlari kerak. To'ydan keyin onaga bo'lgan etiborni zarra qadar ham kamaytirmasliklari shart.

в ЁњKo'cha xandon, uy zindonв Ёќ degan tarifni eshitganmiz. Garchi bu ibora ko'proq erkaklarga nisbatan qo'llanilsa-da, bazan ayollarga nisbatan ham aytish mumkin. Chunki ayrim ayollarga uy zindon, ishxona esa jannatday ko'rinadi. Nega? Ayolning feli shundaymi yoki uydagi sharoit chindan ham zindon, ishxonadagisi jannatdaymi? Agar ayolning feli ko'chaga moyil bo'lsa, uning tarbiyasi oson kechmaydi. Agar uydagi sharoit yomon bo'lsa, uning muolajasini qilish shart. Xotinning qo'shni, qarindosh, ishxonadagi holatiga ko'p to'xtalmaymiz, bu boshqa boblarda alohida o'rganiladigan masala.

Yomon xulqli xotinning mavjudligi zamonga, jamiyatga ham, xonadonning boy yoki kambag'alligiga ham qaramaydi. Agar kambag'allik yomon xotinlarni yuzaga chiqarsa, dunyoni yomon xotinlar bosib ketardi. Holbuki, kambag'al oilalarda yomon xotinlarni kamroq uchratamiz. Agar oilaning baxtini boylik belgilaganda edi, bironta boy xonadonda oilaviy janjal ko'tarilmas edi. Holbuki, boy xonadonlardagi oilalarning buzilishi ko'proq kuzatilyapti. Bu holat faqat bugungi kunimizga xos emas. Keling, tarixga nazar tashlaylik: Bobur hazratlari в ЁњBoburnomав Ёќda Husayn Boyqaroning xotinlari haqida yozadilar: в Ёњ...avval olg'on xotuni Beka Sultonbegim edi, Sanjar mirzo Marviyning qizi edi. Badiuzzamon mirzo mundin tug'ib edi. Ko'p kajxulq edi. Sulton Husayn mirzoni ko'p og'ritur edi. Kajxulqlig'idin mirzo batang keldi, oxir qo'ydi va xalos bo'ldi, ne qilsun haq mirzo jonibi edi.

Zani bad dar saroyi nako'

Ham dar in olam ast do'zaxi o'.

(Deyilmoqchikim: yaxshi kishining xonasidagi yomon xotin shu dunyoning o'zidayoq uning do'zaxidir.)

Tengri hech bir musulmong'a bu baloni solmag'ay.

Yomon xo'yluq, kajxulq xotun ilohiy olamda qolmag'ayв Ёќ.

Malikaning nima uchun yomon bo'lgani bizga malum emas. Bobur mirzo ham buni boshqalardan eshitib yozgan bo'lsalar ajab emas. Ehtimol, malika erining ketma-ket xotin olaverishidan, bu ham yetmaganday kanizaklar bilan maishat qilaverishidan bezib, janjal qilgandir?.. Mashoyixlar erlarni yomon xotin balosidan bot-bot ogohlantirib kelganlar. Mana, shulardan biri: в Ёњ...do'st bo'lmag'on xotindin qochg'il, nedinkim, debdurlar: в ЁњKadbonu (ishchan uy bekasi) bo'lmag'on tezroq band bo'lur, ammo u masobada (holatda) ermak.

Buningdek xotin sening molingni qo'lingdin olib, so'ngra seni unga molik bo'lurg'a qo'ymag'ay, undin so'ng sen uning xotini bo'lursan, lekin u senga xotin bo'lmasв Ёќ.

So'fiy Ollohyor ham yomon xotinlar xususida bir qancha bayt aytganlarki, tanishsak zarar qilmas:

Yamon bo'lsa, nauzu billah andin,

Ziyondin o'zga hech qolmas yamondin.

Deyilmoqchikim: olgan xotin yomon chiqsa, bu xotin qo'lidan ziyonu yomonlikdan bo'lak narsa kelmas. Bundayin xotinlar shumligidan Allohga sig'inib, panoh tilaymiz.

Yamon xotun shayotin qamchisidur,

Qo'ling bog'lag'uvchi arg'amchisidur.

Deyilmoqchikim: yomon xotin gunohlar daryosiga cho'ktiruvchi (mazkur bayt hadisi sharif asosida aytilgan).

Du olam nari bo'lsa, nari ketsun

Ko'zing ko'rmasa shum diydori bitsun.

Deyilmoqchikim: bu yomon xotin ikki dunyoning do'zaxidir va uni o'zingdan nari qil. Bu ikki dunyo tamug'i ketsin, botsin, bitsin, deya taloq qil.

Agar chandeki, buzurgzodadir ul,

Yaqin bil, to'rt oyoqliq modadir ul.

Deyilmoqchikim: yomon xotin garchi payg'ambarzoda bo'lsa ham, bilgilki, shu yomonligi uchun to'rt oyoqli urg'ochi hayvondan boshqa narsa emas.

Ha, olgan xotining johil, xoin chiqsa xotin emas, boshingga balo olgan sanalasan. Bir uyda ayolning ovozi baland chiqsa, yani er so'zini tinglamasa, unga itoat etmay, gap qaytaraversa, u uyda xayr -yaxshilik bo'lmaydi, bu uydan saodat kutilmaydi, kutilgani bilan yetishib bo'lmaydi.

Xo'p, yomon xulqli xotinlarga shunchalik nafratimiz bor ekan. Ularga nisbatan eng so'nggi chora maqolda ham aytilgan:

в ЁњQo'shning yomon bo'lsa - ko'chib qutilasan, xotining yomon bo'lsa -qo'yib qutilasanв Ёќ. Bu so'nggi choradan Alloh asrasin.

Yomon xulqli ayollarga xushxulq nasib etsin.

Xudoga shukrkim, yonimizda yomondan ko'ra yaxshi ayollar ko'proq. Xo'sh, kimlarni yaxshi deymiz?

olijanob, pokiza va qalbi go'zallarni;

aqli, qanoatli, iffatli, vafolilarni;

barcha harakatlarini o'ylab qiladigan, erining borida ham, yo'g'ida ham hurmatlab, o'zini va nomusini saqlaydiganlarni;

yaxshi va yomon kunlarda fidokor bo'lishni o'zlariga shior qilib olganlarni;

yuzidan kulgi arimaydigan, tili shirin, qo'li barakali, qadami qutlug' bo'lganlarni...

Yaxshi ayollarga xos fazilatlarni bayon qilib, siz azizlar uchun hech bir yangilik kashf qilganim yo'q. Bu fazilatlarni o'zingiz ham yaxshi bilasiz. Lekin men diqqatingizni ikki narsaga qaratmoqchiman: avvalo bu fazilatlar faqat ayollarga xosmi? Erkaklar uchun zarur emasmi? Bizningcha zarur. Ikkinchidan, farzandlarimizni, ayniqsa qizlarimizni bu fazilatlar asosida tarbiya qilyapmizmi?

в ЁњKimning xotini do'st, mehribon va uyi saranjom-sarishta bo'lsa u kishi haqiqatan baxtiyordir. Agar xotining iffatli, nomusli, ochiq yuzli va shirinso'zli bo'lsa, u xoh go'zal, xoh xunuk bo'lsin, biribir uni sev, yana hurmat qil. Bu so'zlar yolg'iz xotinlargagina emas, erkaklarga ham maxsusdir. Er va xotin hamjihat va hamfikir bo'lsalar, ularning ko'zlagan hamma murod va maqsadlari hosil bo'ldi, demakdirв Ёќ, deydilar. Mashoyixlar derlarkim: в ЁњXotin pok nihod (toza tabiatli) va pok dil bo'lsun; kadbonu (ishchan uy bekasi) eriga do'st bo'lg'ay. Hayolig', taqvodor, tili qisqa, molni yaxshi saqlag'uvchi bo'lsin. Debdurlarki, yaxshi xotin erning va umrning rohati bo'lur. Agar xotining xo'bro'y, mehribon va maqbul bo'lsa ham ixtiyoringni unga butkul bermag'il va uning hukmi

ostig'a kirmag'il.

Nedinkim, Iskandarga debdurlar: вЂњDoroning qizin nima uchun olib xotin qilmassan, bag'oyat xushro'ydir?вЂќ Iskandar dedi: вЂњJahon xalqig'a g'olibman, endi bir xotinga mag'lub bo'lsam, ko'p yomon ko'rinurвЂќ.

Er so'ziga quloq solgan, Alloh amrini ado etgan xotin faqirni (kambag'alni) podshoh qiladi. Kimningki ko'ngil habibasi bo'lgan ayoli, xonadonining bekasi o'ziga uyg'un va mos bo'lsa, o'sha odam eng baxtiyor kimsadir. Har kuni tong otgandan to oqshomgacha ishda band, uzun tun bedorlik bilan o'tsa-yu, ammo yoningda ko'nglingni ovlovchi, senga tasalli beruvchi, qiyinchilik va mashaqqatingga sherik, dardingni oluvchi bir ayol - bekang bo'lsa, bu dunyo tashvishlaridan sira qo'rqmasang ham bo'laveradi. Kimningki uyi mamur, yostiqdoshi uni jondan sevuchi ekan, demak, Janobi Haq o'sha quliga rahmat nazari bilan qarayapti ekan. U odam Allohning lutfiga erishgan baxtiyorlardan ekan. Diqqat qilyapsizmi, hayot qonuni asli shu - Allohni, Payg'ambarni tanigan xotin erga itoat etadi, bunday xotin erning boshiga baxt tojini kiydiruvchidir.

So'fiy Ollohyor hazratlarining yomon xotinlar haqidagi fikrlari bilan tanishdik, yaxshi xotinlar haqida nima degan ekanlar?

Xush ul zan bilmasa behuda dorni,

Suchuk lafzi bilan shod etsa erni.

Deyilmoqchikim: yaxshi xotin behuda so'zlarni aytishni bilmas. Ammo shirin so'zlari bilan erini shod qilur.

Agar o'n yil uyida bo'lmasa un,

Uni chiqmas, ani ayurga bir kun.

Deyilmoqchikim: agar xotin yaxshi bo'lsa, erining uyida o'n yil davomida un bo'lmasa, birovga hech vaqt un yo'q, deb un (tovush) chiqarmas, shikoyat qilmas.

Roviylar derlarkim, faqir bir odam uylanib, o'g'il farzand ko'rdi. U o'g'lini bag'oyat sevar edi. Bola tish chiqara boshlagach ota nolib qoldi:

-Qara, tishlari chiqib qoldi. Endi ovqat yeyishni xohlaydi. Endi men unga ovqatni qaydan topib kelaman?

Erining aqlini, didini bilgan soliha xotin uni shunday deb yupatdi:

-Ey mening soddaginam, tushunchasi nuqsonli erginam. Siz ko'pam vasvasa qilavermang. Farzandimizga tishni Alloh bergan, unga ovqatni ham O'zi beradi. Butun olamga rizq bergan Janobi Haq Qodirdir. Go'daklar, chaqaloqlarning ham rizqini beradi. Siz tashvish qilmang!

Chindan ham chaqaloqlarga ona qornida surat va shakl bergan Alloh ularning rizqlarini, umrlarini ham beradir. Agar ayol soliha emas, bu haqiqatdan uzoq bo'lganida edi shaddodlik yoki qo'pollik bilan вЂњSiz otasiz, topib kelish burchingizвЂќ, deb dilini xira qilishi tayin edi.

Bir cho'ponning soliha, farosatli xotiniga hamma havas qilardi. Hamma shu cho'ponni вЂњeng baxtli odamвЂќ deb tariflardi.

Qishloqda kimki xotini bilan kelisholmay qolsa: вЂњBor, cho'ponning xotinidan ibrat olib kelвЂќ, derdi. Bir kuni xotini bilan janjallashib qolgan qishloq og'asi ham shunday dedi. Xotin вЂњMen kimmanu cho'ponning xotini kim! Undan nimani o'rganardim!вЂќ dedi. Keyin вЂњbu xotinni hamma maqtaydi bir borib ko'rayinchivЂќ, deb qiziqib yo'lga chiqdi. Borsa, cho'pon xotini hovlidagi idishda turgan suvdan olib ichayotgan ekan. Qishloq og'asining xotini chanqagan edi, вЂњshu suvdan ichayinвЂќ, deb so'radi. вЂњXo'p, - dedi cho'pon xotini, -sizga hozir ichkaridan muzday suv olib chiqaman, bu ilib qolganвЂќ.

-Ichkarida muzday suv bo'lsa, o'zingiz nima uchun bu iligan suvdan ichyapsiz? - deb ajabladi og'aning xotini.

-Xonim, erim bu onlarda dalada, jaziramada yuribdilar. Meshlaridagi suv quyosh nurida ilib qolgandir. Erim u yoqda iligan suv ichsalaru men bu yerda muzdek rohatbahsh suv ichsam, mehribon xotinligim qaerda qoldi!

Bunday farosat egasini har bir erkak orzu qiladi. Bu baxtiyorlikdir. Bunday baxt mol-mulk, boyluk, davlatmandlik, xonlik, beklik yoki o'qigan, katta martaba sohibi bo'lish bilan qo'lga kiritiladigan davlat emas. Bazan ikki karra ikkining to'rtligini bilmaydigan odam ilimli, farosatli, oqila ayolga er bo'ladi.

Xuddi shu hikoyadagi cho'pon kabi! Inson mol-mulk topa oladi. Qo'lidan har narsa keladi. Ammo yaxshi ayol qo'lda yasab oladigan nemat emas. Alloh kimga soliha bir xotin bergan bo'lsa, ul odamga, ul quliga barcha ezguliklarni, xayrli narsalarni o'zida mujassam qilgan nematni berganidir. Agar kimgadir ko'nglidagi bir ayolni bermagan ekan, u qanchalik badavlat bo'lmasin, qanday martabaga erishmasin va maqsadiga yetmasin, bu odam baribir faqir va zavollidir. Chunki uning ko'nglidagi xonimi yo'qdir.

Demoqchimizkim, yaxshi xotinni istagan er avvalo Alloh huzurida bu nematga arziydigan solih banda martabasiga yetsin. Oddiy haqiqatni o'ylab ko'raylik: yomonliklari tufayli do'zaxga loyiq bandasiga Alloh bu dunyoning jannatini ravo ko'rarmikin?

Yaxshi xotinga ega birodarlarimizning ayrimlari bazan xotinlarini biron bir davrada maqtib qo'yadilar. Bilmaydilarki, xotinni maqtash odobdan emas, chunki odatda sotilguvchi narsa maqtaladi. Bir yangi uylangan yigit taqdiridan quvonib, maqtanibdi:

-Amaki, keliningiz shunday nazokatli, farosatliki, siz bilmaysiz.

Amakisi jiyaniga nasihat qilib o'tirmay, oqshomda mehmon bo'lib borishni tayinlabdi.

Jiyani kelgach, amaki xotiniga tarvuz olib kelishni buyuribdi. Xotin olib kelibdi. Amaki tarvuzni ko'rib: вЂњBunisi yaxshi emas, boshqasini olib kelвЂќ, debdi. Xotin itoat bilan

ikkinchisini olib kelibdi. Shu tarzda erning xohishiga qarab o'n marta boshqa tarvuzga qatnabdi. Ammo lom-mim demabdi.

Jiyaning taklifi bilan ertasiga amaki mehmonga boribdi. Jiyan ham xotiniga tarvuz keltirishni buyuribdi. Birinchi tarvuzni ko'rib:

вЂњBu yaxshi chiqmaydi, boshqasini olib kelвЂќ, debdi. Juvon itoat bilan ikkinchi tarvuzni olib kelibdi. Jiyan bundan mamnun bo'lib, amakisiga вЂњko'rdingizmi!вЂќ deganday kulib qarabdi-da, вЂњbu ham bo'lmaydi, boshqasini olib kelвЂќ, debdi.

Uchinchi tarvuzni ham bo'lmaydiga chiqarib qaytarmoqchi bo'lganida juvon:

-Nima, bir arava tarvuz tushirib qo'rganmisiz, hali unisini, hali bunisini olib kel, deyaverasiz. Bor-yo'g'i uchta tarvuz bor uyda, yoqmasa turingda yaxshisini o'zingiz tanlab oling. Men tanlashni bilmayman! - deb noroziligini bayon qilibdi.

Shunda amaki jiyaniga degan ekan:

-Ko'rdingmi, bolaginam, sen ko'pam maqtanavermagin. Mening uyimda bir donagina tarvuz bor edi. Xotinim yaxshi felli, farosatli bo'lgani uchun menga etiroz bildirmay o'sha bitta tarvuzni o'n marta olib keldi. Lekin biron marta itoatsizlik bilan gap qaytarmadi, labini ham burmadi.

So'fiy Ollohyor hazratlarining bitiklarini o'qishni davom ettiramiz:

Sirin fosh aylamas, gar g'amda bo'lsun,

Agar tang bo'lsa, aytur: вЂњBo'lsa - bo'lsunвЂќ.

Deyilmoqchikim: yaxshi xotin o'zi alamda bo'lsa ham, erning sirin aslo fosh aylamas. Agar ro'zg'ori tanglikda qolganini birov aytsa, eslatsa ham вЂњbo'lsa bo'lar, ertaga Xudo berib qolarвЂќ, deb o'zga so'z aytmas. (Bunga ibratli misol tariqasida Ummu

Dardoga xos sabrni v ЁEng yaxshi do'st v Ёk bobida zikr etajkmiz, insha Alloh.)

Agar zanning muningdek bo'lsa xishti,

Ani degil bu dunyoning behishti.

Deyilmoqchikim: agar xotinning sifati yuqorida bayon qilinganidek bo'lsa, ul xotinni bu dunyoning jannati bil.

Ilikka tushsa mundog' nozanin gul,

Degil bu sandadur bo'sanda, man - qul.

Deyilmoqchikim: Alloh taolo nasib aylab, shunday xotin qo'lingga tushsa, nimaiki siring bo'lsa, yashirmay aytishing mumkin va uni quchib, bo'sa olib v Ёqulingman sening v Ёk desang ham arziydi.

Bunday fazilatli ayollar har bir erkakning orzusidir. Ayni choqda yaxshi fazilatli erlar har qanday ayolning orzusidir. Yani, aqlli xotinni orzu qilmish erning o'zi ham aqlli bo'lmog'i shart.

Vafoni talab qiluvchi erning o'zi avvalo vafoli bo'lsin. Alloh har bir erkakka o'ziga yarasha qizni nasib etadi. Diqqat qilaylik: aqlli odamga kamdan kam hollarda ahmoq xotin duch keladi. Chunki, aqlli yigit duch kelgan qizga uylanavermaydi. Faqat qosh-ko'zlariga emas, gap-so'zlariga, odob-axloqiga etibor beradi. Er-xotinning aql-zakovati, feli, zehni-farosati orasida keskin farq bo'lmasa ularning turmushlari yaxshi kechadi. Bir-birlarini tushunishlari oson bo'ladi. Ulug'lardan shunday pand-nasihat bor: v ЁXotin olsang ulug' salohlig' (yaxshi) xonadondin xotin talab qilg'il. Har turlik avboshning qizin olmag'il, nedinkim, xotinni uyning kadbonlig'i uchun olurlar, shahvat uchun olmaslar. Xotin kamolga yetg'on, oqila bo'lg'on, onasining kadbonlig'in (sarishtali uy bekasi ekanligini), otasining kadxudolig'in (oila xo'jasi ekanini) ko'rg'on va bilg'on bo'lsun. Agar bunday nozanin qo'lingga tushsa, uni aslo qo'ldin chiqarmag'il va jahd qilib uni olg'il v Ёk.

Qadim Arabistonda ilmu hikmatda benazir Shan degan bir hakim v Ёo'zimga o'xshagan biror bilimdon qiz topilmagunicha uylanmayman v Ёk, deb ahd qilgan ekan. Qayliq axtarib mamlakatni kezib chiqsa hamki, o'ziga munosib yor topa olmabdi. Shu niyatda sarson-sargardon yurgan kezlari bir odam unga yo'lda hamroh bo'libdi. Shan undan:

-Siz meni ko'tarasizmi yo men sizni ko'tarayinmi? - deb so'rabdi.

-Ajab betamiz odam ekansiz, - debdi hamrohi achchiqlanib, - o'zim sallamni zo'rg'a ko'tarib yuribmanu, sizni qanaqasiga ko'taraman?

Shan indamabdi. Bir oz yo' yurganlaridan keyin barq urib yashnab turgan bir bug'doyzorga yetibdilar. Shan ekinzorga qarab:

-Bu bug'doyzorning donini yeb bo'lishdimikan? - deb hamrohiga qarabdi.

-Jinniga o'xshaysiz-a! Bug'doyi pishmagan, o'rib olinmay turib qanaqasiga yeb bo'ladi!

Shan yana indamabdi. Yana bir oz yurishgandan so'ng tobut ko'tarib ketayotganlarga yo'liqishibdi.

-Bu odam o'ldimikan yo hali ham tirikmikan? - deb Shan hamrohidan so'rabdi.

Hamrohining battar jahli chiqibdi:

-Umrin bino bo'lib sizga o'xshagan ahmoqni endi ko'rishim. Qabristonga ko'tarib olib ketilayotgan o'likni tirikmi yo o'likmi, deb so'rashingiz aqlli odamning gapi emas. Iltimos, endi gapirmay jim keting. Gapirsangiz ko'nglim ozib ketyapti.

Shunday qilib indamay yuraverishibdi. Manzilga yetishgach, haligi odam v Ёmusofirni mehmon qilib ham savob olay, ham boyagi qo'polligimni ko'nglidan chiqaray v Ёk, deb uyiga taklif qilibdi. U odamning husnu malohatda, aqlu farosatda tengsiz qizi bor ekan. U otasidan v ЁHamrohingiz kim ekan, yo'lda nimalarni gaplashib keldingiz? v Ёk deb so'rabdi.

-Ey qizim, bu safar qip-qizil ahmoqqa ro'para kelib qoldim, - ota shunday deb bo'lib o'tgan gaplarni so'zlab beribdi.

-Uning ko'nglini og'ritib chakki qilibsiz, - debdi qiz.-Sizga aytgan so'zlari uning juda katta hakim va zo'r bilimdon ekanidan dalolat beryapti. Birinchi savolining manosi shu: v ЁYo'lning zahmatini kamaytirish uchun siz biron narsa so'zlab berasizmi yo men aytib beraymi? v Ёk v ЁBu yerning g'allasini yeb bo'lishdimikan? v Ёk deb v ЁBu g'allani ekan odam biror sudxo'rdan qarzdor bo'lishi, uning qistovidan tezroq qutilish maqsadida, bug'doyini o'rishi bilanoq to'g'ri bozorga borib sotishi mumkin v Ёk, degan manoni nazarda tutgan. Mulohaza qilib ko'rilsa, bu hol ekin pishishidan oldinroq yeb ketilganday bo'ladi. Tobutdagi murdani o'likmi yo tirikmi, deb so'rganining manosi shu: v Ёbu odam o'lganidan keyin yodgorlik sifatida biror farzand yoki shogird qoldirdimikan, eslashga arzigulik biror xayrli ish qildimikan yohud johil va fosiqligidan, o'lishi bilanoq hammaning esidan chiqib ketdimikan? v Ёk Siz darhol uning huzuriga chiqib, uzr so'rang, aytgan so'zlarini sharhlab bering. Aks holda u sizni ahmoq va johil degan qarorga kelishi mumkin.

Shunda ota chiqib qizining aytganlarini bildiribdi. Shan uning sharhini tinglab bo'lgach so'rabdi:

-Bu sharh sizning tabiatingizga mutlaqo xilof. Yaxshisi bu so'zlarni kim o'rgatganini ayting.

Qizning otasi haqiqatni aytishga majbur bo'lgach, Shan shuncha yillardan beri qidirib yurgan gavharimni endi topdim, deb suyunib ketibdi. Otasining roziligi bilan qizni nikohlab olib, murodiga yetibdi.

Rivoyatdan oladigan ibratimiz shuki, kishi o'z holiga, darajasiga qarab, har jihatdan o'ziga mos bo'lgan oilaning qiziga uylangani maqul. O'zidan yuqori darajadagi qizga uylansa, xotini otasining hashamati va dabdabasiga mag'rur bo'lib, erni mensimay qolishi mumkin. Iffatli, hayo-nomusli xotin marg'ub va maqbul bo'lsa, achchiq tilli, hayosiz xotin faqat o'z erining emas, balki xalqning nafratiga sazovor bo'ladi.

Payg'ambarimiz (s.a.v.) v ЁMusulmonning uyi jannat bog'idan bir bog'chadir v Ёk, deganlar. Bundan ibrat shuki, v Ёjannatda o'sgan v Ёk qizga uylangan erning boshiga baxt qushi qo'nibdi. Ammo baxt qushi qo'nishi uchun uning o'zi ham jannatda o'sgan bo'lishi kerak.

Qozi Shurayh tobeinlardan Shabiy hazratlariga nasihat qilibdilar:

-Ey Shabiy, agar uylansang, Bani Tamim qabilasidagi bir qizga uylan. Ular qizlariga yaxshi tarbiya berishadi.

Shabiy: v ЁQaerdan bilasiz? v Ёk - deb so'radilar. Qozi Shurayh savolga javoban shunday debdilar:

-Yoshlik faslimda Bani Tamim qabilasi tomonga borgan edim. Qaytib kelayotib, qari bir ayol bilan yosh qiz o'tirishganini ko'rdim.

Qiz g'oyatda chiroyli, latofatli ko'rinar edi. Qizni yaqinroqdan ko'rmoq uchun chanqog'imni bosish bahonasida ularning oldiga borib, suv so'radim. Ayol qizga suv olib kelishni buyurdi. Suvni ichgach, ul xotindan: v ЁBu qiz kimning farzandi, ismi nima? v Ёk - deb so'radim.

-Bu qiz Xudoyorning qizidir, ismi Zaynab, - dedi kampir.

-Turmushga chiqqanmi? - deb so'rashga jur'at etdim.

-Yo'q, hali turmush qurmagan.

-Allohning amri ila menga berasizmi? - deb so'radim.

-Avval so'rab-surishtirib, kuyovlikka loyiq bo'lsang beramiz, - dedi kampir.

20 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Uyimga qaytganimdan keyin ham qizni ko'rgim kelaverdi. Unga uylanishni ixtiyor etdim. Qarindoshimdan birini olib, qizning amakisi huzuriga bordikda maqsadimizni aytdik. Qizni surishtirgan edik va u senga munosib, dedilar. Nikoh bo'lganidan keyin Bani Tamim qabilasining ayollari qanday ekanini yaxshi bilmayman, boshqa-boshqa muhit, boshqa qabila odamlarimiz, shoshilib, adashmadimmikin, deb pushaymon bo'la boshladim. Lekin ichimdagini hech kimga aytmay, oxiri baxayr bo'lar, deb kutdim. Uylandim, kelinni olib keldik. Yolg'iz qolganimizda nikohimga olganim qiz menga shunday dedi:

-Afandim, bu oqshom kuyov ikki rakaat namoz o'qishi kerak. Alloh rizosi uchun o'qiladigan bu namozdan keyin kelinning xayrli va baxtli bo'lishini tilashi, Janobi Haqdan ezguliklar, barakot niyoz etmog'ini tilashi sunnatdir.

Uning gapi maqul kelib, ikki rakaat namoz o'qidim. Salomdan keyin qarasam, u ham namoz o'qiyapti. Namozdan so'ng u menga qarab shunday dedi:

-Afandim, men sahroyi muhitning qiziman. Siz esa boshqa muhitda tarbiya topgansiz. Taqdir bizni birlashtirdi. Sizga o'z muhitingizdan bir qiz, menga esa o'z qabilamdan bir yigit topilar edi. Ammo taqdiri ilohiy shunday ekan, bir-birimizning fel atvorimiz va axloqimizni bilmaganimiz holda taqdir hukmi bilan oila qurdik. Sizdan birinchi iltimosim, yaxshi ko'radiganingiz va mamnun bo'ladiganingiz narsalarni menga aytib qo'ysangiz. Sizning istagingizga mos xizmat qilaman, yoqtirmaydigan va xush ko'rmaydigan hollarni ham aytib qo'ying, toki men ulardan saqlanay. Shundan keyin siz menga lutf etib, muloyim felli bo'ling, men ham sizga xotinlik vazifalarimni o'rninga qo'ymoq uchun astoydil harakat qilay. Agar men o'z vazifamni bajarmay, tanballik va itoatsizlik qilsam, meni otamning uyiga qaytarib yuborishingiz mumkin.

Buning uchun hech ranjimayman. Boshga tushganni ko'z ko'rar, deyдилar. Men sizdan shularnigina iltimos qilaman. Janobi Haqdan bir-birimiz uchun xayrli va barakotli turmush qurishimizni tilayman. Islomiy bir oila hayoti ila yashamog'imiz uchun duo qilaman.

Menga uning so'zlari xush yoqib, dedimki:

-Xonim, sen menga shunday purmano so'zlar aytdingki, agar aytinganlaringni ado etsang, meni tolei baland va baxtiyor etasan. Agar so'zingda turmasang, arzu boshqacha bo'ladi. Men mana bu narsalarni istayman, bu narsalarni sevaman, mana bularini esa yoqtirmayman. Men orzu qilganlarni ado et. Xush ko'rmaganlarimni yashir, ko'rsatma.

So'ng u qarindoshlarimning kelib-ketib turishlarini xohlaysizmi? - deb so'radi. Uzoq turmaslik sharti bilan mayli, lekin haddan ziyod tez-tez kelishlarini xohlamayman, dedim. Qo'shnilardan kimlar kirib-chiqa oladi? Xohlamaganingiz bilan ko'rishmayman, dedi. Men dedim:

-Falon qo'shnilar chiqishi mumkin. Ular nomusli va dindor odamlar. Falon kimsalarni xohlamayman, ularning hayoti islomiy emas. Undaylarning xonadonimizga qadam bosishlari yaxshilik keltirmaydi. Bunday mezonlar bilan qurilgan oila qisqa vaqt ichida bir jannati xonadon bo'ladi.

Oradan biror yil o'tdi. Bir kuni uyimga kelsam, keksa ayol mehmon bo'lib o'tirgan ekan. Uning ayolimga Qizim, bunday qil, unday qilma, deb nasihat qilishidan taajjublanib: Bu kim? - deb so'radim. Ayolim Qaynonangiz, deb javob berdi. Men qaynonamning hurmatini bajo keltirib, hurmat va ehtirom ko'rsatdim. Qaynonam Xotiningizdan mamnunmisiz? - deb so'radilar.

-Juda mamnunman, Alloh sizlardan rozi bo'lsin, juda ham yaxshi farzand yetishtiribsiz. Bundan yaxshisi bo'lmaydi. Nihoyatda mamnunman, - dedim.

Bunga javoban qaynonam:

-Men uni jannatday oila go'shasida o'stirganman, o'g'lim. Ayolning badfelidan Alloh saqlasin. Qarindoshlarimiz sizni ko'rgani kelishmoqchi, qachon kelishsin? - deb so'radilar.

Men: Istagan kunlari kelishsin. Uyimning to'ri ularnikib, dedim.

Qaynonam har yili bir kelib, qiziga nasihatlar qilib ketardilar. Men xonim bilan yigirma yil birga yashab uning birorta aybini ko'rmadim.

Qozi Shurayhning qo'shninikida har kuni janjal ekan. Qo'shni xotin tarbiya ko'rmagan, yomon felli bo'lgani sababli, turmushlari xarob ekan. Ularning holini ko'rgan Qozi Shurayh suyukli xonimi Zaynab sharafiga bu satrlarni bitgan ekanlar:

Zavjalar ichida Zaynabim tanho,

Qo'lim sinsin, unga ko'tarsam goho.

Adolatsizlikdir beayb urmoq,

Zaynabimga munosibdir madh etib yurmoq.

Xotinlar ichida u bir quyoshdir,

Boshqa barcha xotinlar yulduzga eshdir.

Quyoshning yonida yulduzlar uchar,

Erkak saodati uyida bo'lar.

Zaynab itoatli, Zaynab sodiqdir,

Unga tayoq emas, madhiya haqdir.

Azizlar, mazkur hikoyani, undagi qizning gaplarini yana bir qayta o'qib chiqing. Yaqin oylarda yoki yaqin yillarda kelinlik libosini egniga iluvchi qizingizga ham o'qib, manosini tushuntirib bering. Biz, har birimiz uyimizda jannat huzuri bo'lishini istaymiz, Allohdan so'raymiz. Albatta, bunday huzurni berguvchi yolg'iz Allohdir. Ammo bu nemat faqat duo bilan bo'lmaydi. Bu nematga erishish uchun bandaning o'zida yaxshilik sari intilish bo'lishi kerak. Qizini baxtli bo'lishini istagan ota-ona unga yaxshi tarbiya berishi kerak.

Mazkur hikoyada shunday o'gitlar borki, ularga amal qilish xonadonni jannat misoli huzur manbai qila oladir. Qozi Shurayhiyning qaynonasi Qizimni jannatda o'stirdim deganiga diqqat qilaylik: bunda avvalo hikoya avvalida zikr etilgan hadisga ishora bor. Ikkinchidan esa jannat - iymon egalari to'planadigan joy. Qiz iymon egalari tasirida voyaga yetgan. Har bir harakatida iymon talablariga amal qiladi. Kimki uyini jannat bog'chasi qilsa, farzandini shu bog'cha guli kabi parvarishlaydi. Ko'rinishi go'zal bo'lgani uchun emas, feli go'zal, axloq yaxshi bo'lgani uchun ayol ezozlanadi. Chunki mol-dunyo tugaydi, go'zallik o'tib ketadi. Shu gaplarni aytsak, ayrimlarning ensasi qotib o'tmishdagi gaplarni misol qilishning nima foydasi bor? - deb qo'l siltashadi.

Bizning afsusimiz ham shunda. Ajab, ajabki, jannat bog'chalari o'tmishda qolib ketdimikin? Yigirma birinchi asr mezoni bu jannat bog'chalarini inkor etadimi? Bo'lajak kelin boy, bo'yalgan, tuzangan bo'lsa basmi? Tor shim kiyib, kindigini ko'rsatib yuruvchi, ota-onasidan ham ko'ra diskotekani yaxshi ko'ruvchi qizlar qaysi bog'chada parvarish qilindilar ekan? Jannat bog'chasidami yo

do'zaxning qurib qovjiragan biyobonidami? Bazan ko'chada ko'ramiz: onasi binoyi ayol, hatto hijobda. Qizi esa sharmandali kiyimda. Bu qanaqa oila bo'ldi?!

Sevikli Payg'ambarimiz (s.a.v.) sahobalariga: **ВЪНЪА**xlaxonada bitgan guldand ehtiyot bo'ling**ВЪК**, deganlar. Ashob: **ВЪНЪА**xlaxonada bitgan gul qanday gul, yo Rasulalloh?**ВЪК**-deb so'radilar. Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilar:

-Yomon muhitda, islomiy tarbiyadan uzoq, axloqsiz bir oilada yetishgan ayol.

Qiz olinayotganida oilasining dini va axloqi, yashash tarzi yaxshi o'rganilishi kerak. Albatta, qo'ni-qo'shnilarning aytganlari etiborga olinadi. Lekin qo'shning ham har xili bo'ladi. Bu ishda ko'rinishi chiroyli qo'shnilardan emas, balki dini, axloqi go'zal odamlardan so'raladi. Qiz beruvchi ham kuyovning dini, axloqini bilishi shart. Yaxshi surishtirmasdan to'ydan keyin **ВЪНЪ**kuyov badaxloq ekan, kuyov giyohvand ekan**ВЪК**, deb vovaylo aytishdan foyda yo'q. Surishtirishda yolg'on ishlatilmasligi kerak.

ВЪНЪAybi bor, ammo to'ydan keyin tuzatib olar**ВЪК**, deb aldash Islom dinimizga zid. Umuman dinimizda yolg'on ishlatib bo'lmaydi. Ammo ikki yoshning taqdiri hal qilinayotganda bunga alohida diqqat qilish kerak.

Bu o'tkinchi imtihon dunyosida baxt kishiga hadeb kulib boqavermaydi. Birovning oti bo'lsa, aravasi yo'q, aravasi borning oti yo'q. Oila baxti ham shunday. Bugun er-xotin o'zini bag'oyat baxtiyor xis etadi, ertaga esa aksi. Oila baxtini bir daraxtga qiyos etsak, uning ikki o'q ildizi bo'ladi. Biri erning fazilatidan, ikkinchisi xotinning xislatlaridan suv ichadi. Agar bu barobarlik yo'qolsa mas'udlik daraxtning umri qisqa bo'lib qolishi mumkin. Shu bois oila baxtini taminlashda erning mas'uliyatini yana qayta takidlab, bir rivoyatni eslaymiz:

Bir yigit go'zal va oqila qizga oshiq bo'lib qoldi. Qizning ham unda ko'ngli bor edi, unashtirib qo'yildilar. Ammo to'ydan avval qiz xastalikka chalindi, yuzlariga chechakka o'xshagan nimadir toshib ketdi, tabiblar uning chorasini qila olmadilar. Oqibatda qiz avvalgi go'zalligini yo'qotdi va yigitga turmushga chiqish ahdidan qaytdi, o'zini dunyodan yolg'iz o'tishga hukm qildi. Ittifoqo yigit ham kasallikka chalinib, bir necha kun qimirlamay yotdi. Keyin oyoqqa turdi-yu, biroq ko'zlari ojiz bo'lib qoldi. Yigit qizga uylanish ahdidan qaytmadi. Qiz ham noiloj ko'ndi. Ikkovlari shu tarzda ancha yil baxtiyor umr ko'rdilar. Vaqti-soati kelib, ayol vafot etdi. Uning janozasidan keyin erning ko'zlari ko'r emasligi malum bo'ldi. Bu rivoyatdan murod - oila baxti uchun er ham fidoyi bo'lmog'i kerak.

Har bir erkak nomusli, hayoli qizga uylanishni istaydi. Bu fazilatni qiz eng avvalo o'z oilasida o'zlashtiradi. Agar oiladagi ota-ona tarbiyasi, odobli va bir-birlariga xushmuomalali bo'lishsa farzandlari ham ulardan ibrat olib, shunday fazilatlar egasi bo'ladilar.

ВЪНЪOnasini ko'rginu qizini ol**ВЪК**, deb bekorga aytmaganlar. Sovchilar borgan uylarining hashamatiga lol qolib o'tirmasdan uy bekasining sarishtaligiga, muomalasiga diqqat qilsalar adashmaydilar. Agar yodingizda bo'lsa, Abdulla Qodiriy **ВЪНЪ**O'tgan kunlar**ВЪК**ning avvalidayoq uylanish mashaqqatidan so'z ochadilar:

ВЪНЪ-Manimcha uylanishdek nozik bir ish dunyoda yo'qdir, - dedi Rahmat va Otabekka yuz o'girdi. -Uylangach, xotining tab'ingga muvofiq kelsa bu juda yaxshi; yo'qsa, munchalik og'ir gap dunyoda bo'lmas.

Otabek Rahmatning bu so'zini samimiyat bilan qarshiladi.

-So'zingizning to'g'riligiga shubha yo'q, - dedi, - ammo shuni ham qo'shmoq kerakki, oladiring'on xotiningiz sizga muvofiq bo'lishi barobarida er ham xotinga muvofiqtab'(tabiga mos) bo'lsin.

-Xotinga muvofiq bo'lish va bo'lmasliqni uncha keragi yo'q, - dedi Homid etirozlanib, -xotinlarg'a **ВЪНЪ**er**ВЪК** degan ismning o'zi kifoya... ammo jiyan aytqandek, xotin degan erga muvofiq bo'lsa bas.

Rahmat kulib, Otabekka qaradi. Otabek ham istehzoli tabassum orasi Homidga ko'z qirini tashladi..

-Uylanishdagi ixtiyorimiz, - dedi Rahmat, - ota-onalarimizda bo'lg'anliqdan, oladigan kelinlari o'g'illariga yoqsa emas, balki uning ota-onalari o'zlariga yoqsa bas. Bu to'g'rida uylanguvchi yigit bilan er qilg'uvchi qizning lom-mim deyishka haq va ixtiyorlari bo'lmay, bu odatimiz maqul va mashru' ishlardan emasdir. Masalan, men ota-onamning yoqdirishlari bilan uylandim.... ammo xotinim ota-onamg'a muvofiq bo'lsa ham menga muvofiq emas. Siz aytqandek, ehtimol men ham xotinimga muvofiq emasdirman...**ВЪК**

Kitobdagi bu satrlarni batafsil eslashimizning boisi, etibor qilgan bo'lsangiz, o'tmish va bugungi kun holatida o'zgarish kam.

Oramizda Homidga o'xshab chakki fikrlovchilar ham uchrab turibdi. Farzandlarini uylantirishda ularning xohish-istaklarini inobatga olmayotganlar ham ko'p. Demak bu xususdagi bahslarga chek qo'yish vaqti hali kelmabdi.

Oila qurgan kishini kemanding ichiga tushgan odamga qiyoslash mumkin: kema dengiz o'rtasiga yo'l olgan. Dengizda esa po'rtanalar mavjud. Farzandlarning tug'ilishi bu kemani boshqarishni yanada qiyinlashtiradi. Endi kema darg'asidan yanada ko'proq kuch va mahorat talab etiladi.

Farzand tug'ilishi quvonch va baxt keltirishi bilan birga ayrim oilalarda kutilmagan tashvishlarni ham yuzaga chiqaradi. Ayniqsa er-xotin, qaynona-kelin orasida kelishmovchilik mavjud oilalarda bola tug'ilishi bilan vaziyat yanada keskinlashadi. To'g'rirog'i, vaziyatning keskinlashishi ayol homiladorligini sezgan kunlardan boshlanadi. Malumki, ayollardagi homiladorlik jarayoni bir xilda kechmaydi. Ayrimlari bu jarayondan yengil o'tadilar, ayrimlari g'oyatda qiynaladilar, maxsus muolajaga ham muhtoj bo'ladilar. Ana shu paytda oilada ham er, ham qaynona, ham boshqa azolar tomonidan homilador ayolga alohida mehr va shafqatli munosabatda bo'lish talab etiladi. Bazi qaynonalarning **ВЪНЪ**shunga shunchami, menam homilador bo'lganman, menam tuqqanman, bunaqa taltayib yotmas edim**ВЪК**, deyishlarini nodonlikka yo'ysak ranjimasinlar. Kelinlarning barchasi ham ayyor emasdirlar. Ularning vujud qaqshasa, qiynalishsa nima qilishsin? Kelinning bunday azobli kunlarida aqlli, insofli qaynona unga o'z onasiday mehribonlik bilan muomala qilishi kerak. Er ham xo'jayinlik martabasidan tushib, mehribon yo'ldosh maqomini olishi shart. Bola tug'ilguniga qadar ayolga moddiy-manaviy sharoit yaratib berilishi kerak. Uni ayrim og'ir vazifalardan ozod qilish lozim. Er suv sepmoqchi bo'lgan xotini qo'lidan chelakni olsa, bu yoqdagilar kulgi qilmasliklari zarur. Homilador ayolni ayniqsa asabiylashishdan ehtiyot qilish kerak. Ayol ko'p asabiylashsa, majburiy qiynoqlarga ro'para qilinsa bolaning asabiy kasallik bilan tug'ilishini tibbiyot isbot qilib bergan. Demak, agar homilador ayolga yaxshi sharoit yaratib bersak, aslida tug'ilajak farzandimizga yaxshilik qilgan bo'lamiz. Farzand sog'lom tug'ilsa, o'zimizning baxtimiz-ku! Uning xasta tug'ilishiga o'zimiz sabab bo'lib, keyin zir yugurib yurishimiz Alloh tomonidan bizga o'sha yomonligimiz uchun berilgan jazo emasmi?

Ayol homiladorlik paytida arzimagan gapdan ham ranjyidigan bo'lib qoladi.

Quvnoq onlaridan g'amgin damlari ko'payadi. Agar bu qayg'usi haddan oshsa bola tashlaydi. Shu bois ham erkaklarning bu davrda ayollarini avaylashlari xotinni erkalatish degani emas, balki tug'ilajak bolani avaylashdir. Ayolini g'am va kamquvvatlikdan ehtiyotlash erning burchi. Ayolning bahavo joylarda ko'proq yurishi, tez hazm bo'ladigan kuchli ovqatlarni tez-tez va oz-oz tanovvul qilishi bizning oilalar uchun kamyob hodisa. Homilador kelin qorni ochsa ham boshqalarning dasturxon atrofiga o'tirishini kutishga majbur. O'zicha ovqatlansa, uni ochofatga chiqarib qo'yamiz. Keyin esa bolani saqlash uchun shifoxonaga

yotqizamiz. Agar kelin ketma-ket ikki marta bola tashlasa, v Ёњbuning pushti chatoq ekan, bolamga boshqa xotin olib berish kerak Ёќ, degan harakatga tushib qolamiz. v ЁњKelin homilador bo'lganidan keyin uning sharoitini yaxshilash uchun nima qildik? Ёќ deb o'zimizdan so'ramaymiz. Agar kelin kamovqat bo'lishi, ko'p qayg'uiga berilish oqibatida bola tashlasa buning gunohi er, qaynota-qaynona zimmasiga tushadi.

Nikohning birinchi maqsadi - odam naslini ko'paytirishdir. Shuning uchun har bir odam butun kuch-quvvatini avlodining himoyasiga qaratishi kerak. Hech bir ota-ona bolasini nobud bo'lishini istamaydi. Ona qornida bola paydo bo'lganidan so'ng uning hayot-mamoti ota-onaga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ular bolani nobud bo'lishiga olib keladigan ishlarni qilmasliklari kerak. Ayollar, ayniqsa erlar bolaga zarar keltirishi mumkin bo'lgan tashqi tasirlar nimalardan iborat ekanini yaxshi bilmaydilar. Masalan, tibbiyot fani malumotiga ko'ra, homiladorlikning ikkinchi oyidan to'rtinchi oyigacha ko'p onalar bola tashlaydilar. Buning sabablari qo'rquv, kamquvvatlilik, og'ir jismoniy ishlarni bajarish, er bilan birga bo'lish va ko'p qayg'urish bo'ladi. Og'iroyoq ayollarni uyda yolg'iz qoldirish ham mumkin emas. Tibbiyot ilmining tavsiyasiga ko'ra, homiladorlikning ikkinchi oyidan boshlab erkak ayoliga yaqinlashmasligi kerak. Agar hayvonlar olamini kuzatsak, ular bu masalaga qat'iy amal qiladilar, homilador juftlariga yaqinlashmaydilar. Biz - odamlar shahvatparastlikda hayvon-larni ortda qoldirib ketganimiz. Bir necha daqiqalik nafs oromi uchun farzandimizni ham ayamaymiz. Bola ona qornida to'rt-besh oylik bo'lganida visol onlarining zarari bilan mayib bo'lib qolish ehtimoli ko'proq bo'ladi. Bu zararlarni ko'pchilik bilmaydi, bilganlar esa amal qilmaydi. Yaxshi bahonamiz bor: Xudo saqlasin!

Homilador ayolga yaxshi sharoit yaratib berish ham har bir oilaning burchi, ham jamiyatning vazifasi. Bizda homila yetti oylik bo'lganda ayolga tatil beriladi. Yetti oylik bolani qornida ko'tarib, qiynalib ishlab yurgan ayollarni ko'rsam achinib ketaman. Nahot jamiyat ularga yanada qulaylik yaratib berishga o'z? Ayollarga tatilni homila ikki oylik bo'lganda berishning iloji yo'qmi? Albatta bu jamiyat uchun iqtisodiy jihatdan og'ir muammo. Bir oyda yoki bir yilda hal qilib bo'lmaydi. Bu masalani bosqichma bosqich hal etish mumkin. Masalan, homila besh oylik bo'lganda to'la tatil berish mumkin yoki maoshini saqlab qolgan tarzda yarim kun ishlatsa ham bo'ladi. Yoki bola tug'ilgandan keyingi tatilni qisqartirish hisobiga homiladorlik tatiliga qo'shish mumkin. Yoki avvallari erkaklardan farzandsizlik solig'i olinardi. Qizlar turmushga chiqmagan bo'lishsa olinmasdi. Shuni bir oz o'zgartirish mumkin: qizlardan ham shunday soliq olib, uni xuddi pensiya jamg'armasi kabi o'zlarining jamg'armalariga to'plansa, homiladorlik davrida maosh sifatida to'lash mumkin bo'ladi. Xullas, takliflar ko'p, eng muhimi v Ёњmumkin emas Ёќ, deb rad etmasdan harakat qilish kerak. Chunki bir ayolning homilador bo'lishi, farzand ko'rishi bir oilaning muammosi emas. Bu - jamiyat kelajagiga doir muhim masala!

Farzand tug'ilganidan keyin er ham xotin ham bir narsani anglab olishlari kerak: farzandi tug'ilguniga qadar har bir odam o'zi uchun yashaydi, tug'ilganidan keyin farzandi uchun yashaydi. Boshqacha bo'lishi mumkin emas. Yaqinda bir davrada ilmli birodarimizdan v ЁњBir odamning xotini va qizi bor. Xotining og'zidan yomon hid keladi. Davolatay desa, davosi yo'q ekan. Ajrashmoqchi, shu to'g'rimi? Ёќ deb so'rab qolishdi. Ilmli birodarimiz o'ylab ham o'tirmay v ЁњTo'g'ri, ajralishi kerak, og'zidan hid kelishini qiz to'ydan oldin aytishi kerak edi Ёќ, dedi.

Men bu fatvodan ranjidim. Agar oilada farzand bo'lmaganda ajrashib ketishsa mayliga edi. Lekin farzand tirik yetim qolyapti-ku, nahot buni o'ylashmasa?! Men ilm kishisi bilan bahslashishga o'zizman, lekin bunday fatvo berishlarini to'g'ri deb hisoblay olmadim. Avvalo, ayolning og'zidan keluvchi hid to'ydan keyin paydo bo'lgandir. Bu ko'proq oshqozon-ichak xastaligi bilan bog'liq. Lekin ayollar erlaridan shunday hid kelsa ajrab ketmaydilar-ku? Ham aroq, ham tamaki hidi anqib turgan erkaklar bilan bazan yonma yon o'tirib, besh-o'n daqiqaga chidamaymiz, ularning ayollariga esa balli deymiz. Yana shu o'rinda yuziga yara toshib, go'zalligini yo'qotgan qallig'iga uylanish uchun ko'zini o'z qilib ko'rsatgan insof egasi haqidagi rivoyatni eslaylik. Bizlar shunday tanti, mard, olijanob bo'la olmaymizmi? Bizlar o'z nafsimiz yo'lida shu qadar tubanlashdikmi?

Mahalladagi qo'ydi-chiqdilarini hal qiluvchi yig'inda bir er xotinini taloq qilganini aytib v ЁњU mening mintalitetimga to'g'ri kelmaydi Ёќ, deb izoh berdi. Malum bo'lishicha, bu v Ёњmintalitet egasi Ёќ Amerikaga ishga borib kelgan ekan. Agar yirik olim sifatida borib kelsa-yu, v Ёњxotinimning saviyasi past Ёќ, desa tushunish mumkin. Amerikada ikki yil bir mehmonxonada zinalarini yuvish bilan mashg'ul bo'lgan ekan, bu janobning mintalitetlari qanday bo'lishi mumkin? Eng muhimi bu nodon janobning uch farzandlari bor. Bu farzandlar tug'ilgunicha mintalitetlari qacarda edi? Kim nima desa desin, ammo jiddiy sababsiz bolalarini tirik yetim qilayotganlarni ayblashdan toymaymiz. Farzand oilani buzishga sababchi emas, balki oilani saqlab qolishga vosita bo'lishi kerak. Xotinga chiday olmay qolgan er, eriga chiday olmay qolgan xotin farzandining kelajagini o'ylab ko'rsa-chi? Ehtimol shu ularni oxirgi qadamdan saqlab qolar? Sudda er ham xotin ham farzandni talashadi. Farzandni shunchalik yaxshi ko'rar ekan, shu bolaning baxti uchun o'z nafsidan kecha qolsa bo'lmasmikin? Sudda farzandlarini talashadilar. Keyin... yangi oila qurayotganlarida uni bolalar uyiga olib borib beradilar. Bunga nima deymiz? Bolasini tirik yetim qilib qo'yanlar yangi oilalarida nahot o'zlarini baxtli his qila olsalar? Ota yoki ona mehriga tashna bolaning uvoli ularni tutmaydimi? Bu dunyoda otasiz yoki onasiz, yoki ota-onasiz o'sgan farzandlari bilan qiyomatda yuz ko'rishishganlarida bola mehr-shafqat haqini davo qilsa nima deb javob beradilar?

Qiyomatdagi javobga qadar ota va onaning jamiyat oldidagi burchi bor. Qamalib qolgan o'smirlar hayoti bilan qiziqib ko'rganimda ular orasida ota-onasi, buvasi va buvisi tarbiyasida ulg'aylaganlari oz edi. Ota-onasining ajrashib ketishi natijasida otasi yoki onasi mehridan begona ravishda o'sganlari esa ko'pchilikni tashkil qilar edi. Bolaligi yoki o'smirligida jinoyat yo'lga kirib, so'ng bu olamda umrining oxirigacha qolib ketgan farzand ota-onasini hayotlik davridayoq kuydirib kul qiladi. Bunday farzand ota-onasi vafotidan keyin ularni yo'qlab biror marta duo qilarmikin? Bu ham bir masala. Duotalab ruhlarning qiyomatga qadar azoblanib, chirqirab turishidan Alloh asrasin!

Ayollar ishlashlari kerakmi yo yo'qmi, degan muammo bugungi kun oilasi uchun muhim bo'lib turibdi. v ЁњBugungi kun Ёќ deb takidlashimizning boisi, avvallari bunday muammo bo'lmagan. Ayollar uyda o'tirganlar. Biroq, bu ishlamaganlar, degan gap emas. Ayollar uy yumushlari, farzandlari tarbiyasi bilan shug'ullanishdan tashqari malum bir hunar bilan band bo'lganlar. Masalan, kashtachilik, do'ppichilik... kabi. Undan tashqari ayollar ishlashi kerakmi yo yo'qmi, degan masala faqat shaharga xos. Qishloqlarda bunday masala yo'q. Erkak dalada ketmon chopib, ayol uyda pashsha qo'rib o'tirmaydi. Er bilan baravar ishlaydi. Farzand tarbiyasi ham shu mehnat jarayonida olib boriladi.

Xo'sh, bugun shahar oilasida ayol ishlashi kerakmi yo yo'qmi?

Bu savolga har bir oila o'z sharoitidan kelib chiqib javob berishi zarur. Eng muhimi ayolning nima ish bilan shug'ullanishiga jiddiy etibor berish kerak. Ayollarni og'ir va sog'liq uchun zararli ishlardan ehtiyot qilishimiz kerak. Bugun biz ayollarni qurilishdami yoki zavoddami og'ir ishlarni bajarayotganini ko'ramiz. Hatto dalada traktorga ham mindirib qo'yib uni olqishlaymiz.

Ayollarni jismoniy og'ir va zararli ishlarda ishlashlari biz - erlar uchun uyat emasmi?! Bu jamiyat yo'l qo'yayotgan xatolardan biri hisoblanmaydimi? Buxorodagi sayyohlarga tarixdan hikoya so'zlovchilar zardo'zlik san'ati haqida gapira turib, v Ёqadimda zardo'zlik bilan faqat erkaklar shug'ullanganlar, ayollarni mensimaganlar, ularga ishonmaganlar v Ёk, deb izoh berishadi. Bu nodonlarcha izohga sayyohlar albatta ishonadilar. Holbuki, u zamonlarda erlar ayollarni ehtiyot qilganlar. Avvalo bu ish ancha mashaqqatli. Ikkinchidan, zardan turli chang ko'tariladi va ayolning salomatligiga tasir qiladi. Yaqinda bir birodarimizning ayoli vafot etdi. Shunda birodarimiz v Ёayolimni ishlatmasam bo'larkan, barvaqt o'lmas ediv Ёk, deb qoldi. Uning ayoli bosmaxonada harf teruvchi bo'lib ishlardi. U paytlar v Ёlinotipchiv Ёk degan kasb egasi, yani harf teruvchining shundaygina yonida qo'rg'oshin qaynab turardi. O'sha ishda orttirilgan kasallik oxiri o'z kuchini ko'rsatdi.

Bu masalada ayrim birodarlarimiz sal keskinroq fikr ham bildirib v Ёishlaydigan ayollarning buzilishlari osonroq bo'ladv Ёk, deyishadi. Bu fikrga qo'shilish qiyin. Buziladigan ayol uyida o'tirib ham buzilaveradi.

Boshqa birodarlarimiz ishlamay uyda o'tirgan ayollarning dunyoqarashi tor, saviyasi pastlashib ketadi, deydilar. Bu ham bir yoqlama to'xtam. Deylik bir xonada olti ayol ishlaydi. Bittasi kitobxon, boshqalari kitob desa, boshi og'riydigan toifadan. O'sha kitobxon ayol jahon adabiyotidan gapirsa, qolganlar eshitishadimi? Eshitishmaydi. Ularga bundan ko'ra g'iybat afzal. G'iybatdan lazzatlanishadi. Oqibatda o'sha kitobxon ayolni ham o'z qatorlariga qo'shib olishadi. Agar uyda o'tirgan ayollarning saviyasi past bo'lsa, Zebunniso begim, Nodira begim, Uvaysiy begim...lar dunyo adabiyoti tarixiga gavharlar to'karmidilar?

Ishlash masalasini hal etishda har ikki tomon keskin talablardan voz kechib, sharoitdan kelib chiqqan holda murosa qilganlari maqul. Bu masalada bir oila ikkinchisiga namuna bo'la olmaydi.

Endi oilaga doir nozik masala hisoblangan ko'pxotinlilik xususida fikr yuritsak. (Aniqlik kiritamiz: oilasi buzilishi natijasida taloq berib, so'ng ikkinchi yoki uchinchi marta uylanganlar emas, balki ayni bir vaqtda ikki yoki undan ko'p xotinga ega bo'luvchilar nazarda tutiladi.) Ruslarda v ЁGeneral bo'lishni orzu qilmagan askar askar emas v Ёk, degan maqol bor. Shuni sal o'zgartirib aytsak, ikkita xotin olishni orzu qilmagan er er emas, degan mano chiqishi ham mumkin. Garchi bu gap hazil tariqasida bo'lsa-da, lekin bunday orzu barcha erlarda mavjudligiga ishonamiz. Ayrim erlar uchun xayol orzu bo'yicha qolib ketadi, ayrimlar esa orzuni amalga oshirishga harakat qiladilar. Kambag'allar uchun bu muammo yo'q, desak ham bo'lar. Kambag'al erning ikkinchi xotin olishga harakat qilishi osmondagi quyoshni uzib olishga urinishday gap. Cho'ntakka tushgan pul nafsni qitiqlaydi. Bu nafsni qondirish uchun musulmon erlar uchun tayyor bahona bor: Alloh to'rttagacha uylanishga ijozat etgan. Er qanday holatlarda xotinni ko'paytirish harakatiga tushadi?

o'z xotini bilan nafsini qondira olmasa, tashqaridan lazzat izlaydi.

ota-onasining zo'ri bilan uylangan xotini ko'ngliga yoqmaydi, o'ziga yoqadiganini istaydi. Go'yo v ЁO'tgan kunlar v Ёkdagi Homidning maslahatiga amal qiladi: v ЁJiyan, - dedi Homid Rahmatka qarab, - boshlab uylanishning albatta ota-onang uchun bo'lib, ulardan ranjib yurishingni o'rni yo'q. Xotining ko'nglingga muvofiq kelmas ekan, muvofiqlini olib, xotinni ikki qil. Bunisi ham kelishmasa uchunchisini ol. Xotinim muvofiq emas deb zorlanib, hasratlanib yurish er kishining ishi emas v Ёk. Bu maslahatga amal qilganlarni biz v Ёadashganlar v Ёk deb atasak ranjimasinlar.

Payg'ambarimizning, alayhissalom sunnatlari deb ikkinchi, uchinchi marta uylanadilar. Ajabki, sunnatga amal qilishni aynan shu sohada boshlaydilar. Qolgan o'nlab sunnatlar esa bajarilmay qoladi. Bu birodarlarimizda andak johillik bor. Bu boradagi sunnatning manosini yaxshi anglab yetmaganlar. Chunki Payg'ambarimiz alayhissalom nafsni qondirish uchun emas, bevalarga mehribonlik qilish uchun uylanganlar.

birinchi oiladagi farzandsizlik oqibatida boshqa turmush qurishni hech kim rad etolmasa kerak.

ota-onasini behurmat qiluvchi xotinni qo'yib, hurmatlaydiganiga uylanuvchilar ham bor. Ammo ikkinchi yoki uchinchi xotin ota-onasini hurmatlaydi, deb kim kafolat beradi? Ehtimol hurmatsizlikda keyingilari avvalgisidan oshib tushar. Balki v Ёota-onani hurmat qilmaslik v Ёk nafs talabini yashirishdagi bir bahonadir?

uylanishdan ilgari zino qilgan er yana begona ayolni qo'msayveradi. Bu nafsini qondirish uchun mablag'i bo'lsa biron qizni yoki juvonni shar'iy nikohiga oladi, puli kamlik qilsa, fohishalarning xizmatidan foydalanadi.

Surishtiraman, desangiz sabab va bahonalar qaynab chiqaveradi. v ЁNechta xotin olgan maqul? v Ёk degan savolni kun tartibiga qo'ysak, bir xil javob ololmaymiz. v ЁO'tgan kunlar v Ёkdagi tog'a-jiyon bahsini eslaylik:

v ЁRahmat Otabekka kulimsirab qaradi-da, tog'asiga javob berdi:

-Xotinni ko'paytirib, ular orasida azoblanishning nima hikmati bo'lsin? - dedi. - Bir xotin bilan muhabbatlik umr kechirmak, manimcha eng maqul ish. Masalan, ikki xotinliqning bittasi sizmi? Uyingizda har kuni janjal, bir daqiqa tinchlig'ingiz yo'q.

-Seningdek yigitlar uchun albatta bitta xotin ham ortiqchalik qiladir, - deb kuldi Homid. -Ko'b xotin orasida azoblanish o'zi nima degan so'z? Qamchiningdan qon tomsa, yuzta xotin orasida ham

rohatlanib tiriklik qilasan. Men bu kungacha ikki xotin o'rtasida turib janjalga to'yganimcha yo'q, ammo xotinni uchta qilishg'a ham o'yim yo'q emas. v Ёk

Homidga o'xshab fikr qiluvchilar hozir ham topiladi. Faqat ayrim farqlar bor. Chunonchi: ko'pxotinlikning uyida hozir janjal yo'q, chunki xotinlar bir uyda yashamaydilar. Har bir xotinga alohida uy olib beriladi. Ikkinchidan, qamchidan qon tommaydi, balki pul tomib turadi. Pul tomib turar ekan, janjalga o'rin yo'q.

Ustoz Abdurauf Fitratning mazkur masaladagi mulohazalaridan foydalanib fikrlarimizni davom ettiramiz.

Odamlar avval oila shaklida jam bo'ladilar va bir necha oiladan bir qavm paydo bo'ladi. Malumki, bir qavmning har bir oilasi saodatli va baxtli bo'lmasalar, o'sha qavmni baxtiyor va saodatli deyish xatodir. Hamda oila azosidan birortasi baxtli bo'lmasa, o'sha oilani baxtiyor deyish ham noto'g'ri bo'ladi. Modomiki, qavm oilalardan va oila esa alohida odamlardan tarkib topgan ekan, v Ёozdan ko'pgav Ёk degandek, aytish mumkinki, har qavmning saodati shu qavm oilalarining baxtiyorligidan va har bir oilaning saodati shu oila azolarining saodati va baxtliligi bilan bog'liq.

Nechta xotin bilan yashash masalasini shu nuqtai nazardan muhokama qilish o'rinli. Bir necha xotin bilan yashash oilalarni baxtli qiladimi yo baxtsiz? Shu oila azolariga shodonlik keltiradimi yoki baxtsizlik? Agar visol onlari hisobga olinsa bu er uchun ayni baxtiyorlik tuyuladi. Ammo kundosh balosi bilan siylangan xotin uchun bu baxti qarolikdir.

Deylik, Falonchi Pismadon qizni nikohiga oldi. Yani ul bechoraga saodat va baxtiyorlik vada qilib hayotining boyligi, yani yoshligini o'z tasarrufiga oldi. Ikki-uch yil yaxshi yashaydi. Uylanishdan maqsad bo'lgan ikki-uch farzand vujudga keladi.

Ayolning tarovati va yoshligi erning muhabbati va mehri yo'lida sarf bo'lgandan so'ng Falonchi janobning shahvati uyg'onib, harakatga keladi. Nafsi orom topishi uchun endi unga o'z xotini kifoya qilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, saodat va baxtiyorlik

umidi bilan yoshlik ayyomini erining orzu havaslariga ado qilib, ikki-uch farzand ko'rgan xotin yoniga yangi xotin oladi. Bu nima, dastlabki nikoh onidagi vadaga xiloflik va xiyonat emasmi? Turmushning dastlabki kunlari, haftalari, oylarida har bir erkak xotiniga tilda bo'lmasa ham dilida baxt tilaydi. Ko'ngli boshqasini tusaganda bu vada unutiladimi?

Xullas, Falonchi janobimiz birinchi xotinlariga aytibmi yo yashirin ravishdami, ishqilib uylandilar. Yangi xotinga butunlay berilib ketishlari tabiiy. Birinchi xotin va hayoti mevalari bo'lgan farzandlari shuuridan chetlasha boshlaydi. Tabiiyki, o'sha xotin va farzandlar buni sezadilar va javob tarzida unga bo'lgan muhabbatlarini yo'qotadilar. Undan va yangi xotinidan nafratlanadilar. Vaqt o'tishi bilan yangi xotindan ham bir-ikki farzand tug'ilgach, bu o'zaro nafrat yanada kuchayadi. Vaholanki, koinotda qaysi ikkita jins birga bo'lsa, muhabbat natijasi ekani malum. Shunday ekan, oila azolari orasida muhabbat ko'tarilsa, vayronlik, tarqoqlik va intizomsizlik kelib chiqadi. Agar bu qo'shxotin bir hovlida yashasa ular va ularning bolalari o'rtaida kun sayin nafrat oshib boradi. Yoqalashish yuzaga keladi, Falonchi o'zini baxtsiz seza boshlaydi, farzandlarining xulqi esa yomon bo'lib boraveradi. Yuqorida zikr etganimizdek, hozirgi kundoshlar bir hovlida yashamaydilar, bu qo'shxotinlik janobning mushkulini ancha oson qiladi. Ammo uying alohidaligi birinchi oilasida yonayotgan nafrat o'tini zarracha kamaytirmaydi. Birinchi oilani moddiy jihatdan taminlab tursa-da, unga nisbatan bo'lgan muhabbat saqlanib qolmaydi. Farzandlari ham uni suyuqli ota sifatida qadrlamaydilar, balki moddiy taminotchi sifatida hurmat qilib turadilar. Birinchi oila o'zini mustaqil tamin etadigan holga yetgach, otaga bo'lgan bu hurmat ham so'nadi.

Davlat qonuni qo'shxotinlikni man etadi. Islom dinimiz ijozat beradi. Ayrim yevropaliklar dinimizning shu jihatini maqullaydilar. Erkak fohishaxonaga borgandan ko'ra yana bitta xotin olib pokiza yashagani maqul, deydi. Darhaqiqat, qo'shxotin olishning bu tomoni ham bor. Ayrim erkaklarda shahvat ishtiyoqi kuchli bo'ladi. O'z ayoli bilan qo'shilish mumkin bo'lmagan kezlari u ko'chadan najot izlaydi, gunohga botadi. Agar nikohida yana bitta xotin bo'lsa, bu gunohdan saqlanadi. Undan tashqari bu o'rinda ayollarning taqdiri ham bor. Avvalo, o'g'il bolalardan ko'ra qizlar ko'proq tug'ilarkan, undan tashqari turli urush yoki fojialar tufayli erlar ko'p qiriladi. Demak, bir erga ikki yo uch ayol to'g'ri keladi. Shunday ekan, ayollar nima qilishsin?

harom yo'lga yursinlarmi? Harom bola orttirsinlarmi?

birovning oilasini buzib, xotindan butunlay ajratib, bolalarini tiriklay yetim qilib unga tegib olsinlarmi?

halol va poklik, rozi-rizolik yo'li bilan bir kishiga nikohlanib oila qursinlarmi?

Albatta barchamiz shu uchinchi yo'lni maqullaymiz.

Qur'oni Karim manolarining o'zbekcha tarjimasida o'qiyamiz: **ВЪНЪ** Agar yetimlar haqqiga xiyonat qilishdan qo'rqsangiz, ularni o'z nikohingizga olmang, balki nikohlari shar'an to'g'ri bo'lgan ayollarni bittadan to'rttagacha o'z nikohlaringizga oling va ikki-uch ayol haqqiga zulm

etgudek bo'lsa, bir xotin sizga kifoya qiladi. Shu adolatdan og'ib ketmaganingiz yaxshiroqdir **ВЪНЪ**. Niso surasida kelgan mazkur oyatni aqlimiz yetganicha o'rganishga harakat qilaylik. Tarixdan malumki, johiliyat davrlarida ayollar huquqi bag'oyat darajada poymol qilingan. Bir erga o'nlab ayollar tutqun bo'lgan. Keyin esa urushlar tufayli ko'p ayollar tul qoldilar. Dinimiz ana shu ayollar taqdirini odilona hal qilib beradi.

Oyati karimadagi yetimlar haqqiga xiyonat qilishdan qo'rqilsa ikkitami, uchdami, to'rttami xotin olishga ijozat berilishi o'qigan odamga g'alati va tushunarsiz tuyulishi mumkin. **ВЪНЪ** Tafsiri hilob **ВЪНЪ** da bu murakkab masala yaxshi tushuntirib berilgan. Imomi Buxoriy Ibn Shihobdan qilgan rivoyatda shunday deyilgan ekan: **ВЪНЪ** Menga Urva ibn Zubayr xabar berdiki, u Oisha onamizdan **ВЪНЪ** Agar yetimlarga adolat qila olmaslikdan qo'rqsangizlar **ВЪНЪ**, oyati haqida so'ragan ekan u kishi (roziyallohu anho) debdilarki: **ВЪНЪ** Ey jivan, bir yetim qiz kafilning qaramog'ida bo'ladi. Qiz uning moliga sherik bo'ladi. Qizning moli ham, jamoli ham uni o'ziga tortadi-da, uning mahrida adolatli bo'lmay, unga uylanmoqchi bo'ladi. Unga boshqalar beradigan mahрни bermoqchi bo'ladi. Bas, adolatli bo'lmasalar, ular uylanishdan qaytariladilar, boshqa ayollarga uylanishga amr qilinadilar **ВЪНЪ**. Demak, oyatda **ВЪНЪ** yetimlar **ВЪНЪ** deyilganda yetim qizlar nazarda tutilgan ekan.

Yetim qizlarga ularni o'z kafolatiga - himoyasiga olgan kishi uylanmoqchi bo'lsa-yu, ammo bu ishda adolatsizlikka yo'l qo'yishdan qo'rqsa, o'sha yetim qizlarga uylanishni qo'ysinda, o'ziga yoqqan, nikohi halol bo'lgan boshqa ayollardan xohishiga qarab ikkitagami, uchtagami, to'rttagami uylansin. Agar xotinlari orasida adolat o'rnatilmaslikdan qo'rqsa, bittaga uylansin.

Yetim qizlarga adolatsizlik faqat mol-mulk borasida emas, chunki oyatda adolat mol-mulk bilan qayd qilinmasdan, mutloq zikr etilgandir. Shuning uchun har qanaqa adolatsizlikning yuz berishidan saqlanish kerakdir. Jumladan, er bu qizga faqat moli uchun uylanganda, o'ziga nisbatan ko'ngli bo'lmasligi mumkin. Yoki oradagi yoshda katta farq bo'lishi natijasida oilaviy hayotning haqiqiy manosi qiz hayotida o'z ifodasini umuman topmasligi mumkin. Bu ham adolatsizlikka kiradi.

Olimlarimiz oyatdagi **ВЪНЪ** yetimlar **ВЪНЪ** so'zini shunday talqin qiladilar va bunga etiroz qilish qiyin. Bizda ular bilan bahs yuritishga yetarli ilm bo'lmasa-da, shu xususdagi tushunchamizni bayon etishga jur'at etamiz. Takid etamizki, bu fikr bahs yo'sinida emas, balki bir bandaning aqli yetgan darajasidagi tushunchasidir. Bilishimizcha, Qur'oni Karimda mavhum ko'rsatmalar berilmaydi.

Masalan, masxara qilishdan qaytarilgan oyatda er va ayollar alohida takid etiladi. Yoki ilm olish haqida ham **ВЪНЪ** ilm olmoqlik muslim va musulmalar uchun farzdir **ВЪНЪ** deb buyuriladi. Yoki **ВЪНЪ** Yosin **ВЪНЪ** surasini ayrim tafsirlarida **ВЪНЪ** Antokiyav **ВЪНЪ** shahri tilga olinadi. Bazi mufassirlar esa **ВЪНЪ** Agar shu shahar bo'lganida Alloh uni o'z nomi bilan atardir **ВЪНЪ**, deyishadi. Alloh bilguvchidir. Niso surasining biz o'rganayotgan oyatida ham **ВЪНЪ** yetim qizlar **ВЪНЪ** deb alohida takid etilishi mumkin edi. Ehtimol bu o'rinda boshqa manolar ham bordir? Yani, yetimlari bilan beva qolgan ayollarga mehribonlik qilishga davat bordir? Yani, yetimlarga mehribonlik qiling, lekin tashqaridan turib ularning haqini ado etishga ko'zingiz yetmasa, ularning onalariga, yani bevalarga uylaning, degan mano yo'qmikin? Bizningcha, to'rttagacha uylanish ijozati nafsni qondirish uchun emas, balki aynan bevalarni o'z panohiga olish uchun bo'lsa kerak. Bu o'rinda Payg'ambarimizning (s.a.v.) kimlarga uylanganlarini yana bir esga olsak joiz bo'lar.

Kim to'rttagacha xotin olishi mumkin? Albatta boy odam. Kambag'al orzu qilmasa ham bo'ladi. Demak, bu imtiyoz faqat boylar uchunmi? Yuqorida ko'pxotinlikning foydasi haqida ham aytib edik. Demak, xotini bilan qo'shilish mumkin bo'lmagan damlarda boy odam boshqaga uylanib, nafsini qondirishi mumkin. Kambag'al-chi? Uning uylanishga puli bo'lmagani bilan, unda ham nafs bor, shahvat bor. Ha, biz undan sabrni talab qilamiz. Boyga esa sabrning keragi yo'q.

Oyati karimadagi adolat qilishga etiborni tortilishi bejiz emas. Xo'p, bugungi kunda qo'shxotinlilar qanday adolat qilishadi?

Kamina **ВЪНЪ** o'tgan kunlar **ВЪНЪ** romani haqida fikr bildirib, Otabek chin musulmon yigit edi, ikkinchi marta uylanish haqida so'z chiqqanda Kumushga malum qilib, ijozat olgan, musulmonlik burchiga rioya qilmasa ulardan yashirincha Zaynabga uylanib olaverardi, deb yozganimga ayrim birodarlarimiz etiroz bildirib dedilarki: **ВЪНЪ** Ikkinchi xotinga uylanish uchun birinchisidan

ruxsat olish shart emas. Durust, birinchi xotinning ruxsati shart bo'lmasa, unga malum qilish lozimmi yo yo'qmi? Malum qilgani durust. Xo'p, unda talab qilinayotgan adolat nima bo'ladi? Bugungi xotinlarning ko'pchiligi kundoshi borligini bilmaydi. Nikoh yashirincha o'qiladi. Er ikkinchi xotini bilan yashirincha yashaydi. Faqat xotinidan emas, qarindoshlaridan ham sir tutadi. Ikkinchi xotini visolida mast bo'lish uchun birinchisiga uzoq safarga ketyapman, deganga o'xshash bahona qiladi. Yani yol'g'on gapiradi. Bu harakatda qanday adolat bo'lishi mumkin? Adolat deganda kechani birinchi yarmida birinchi xotin bilan, ikkinchi yarmida ikkinchi xotin bilan bo'lishgina nazarda tutilmaydi. Adolatning qamrovi keng. Shuning uchun ham adolat qila olmasangiz bittasi bilan kifoyalaning, deb buyurildi. Biz ikki xotinlik birodarlarimizni ayblamoqchi emasmiz, ikkita xotin olish mumkin emas, deb taqiqlash huquqi bizda yo'q. Biz faqat ikki yoki undan ko'p xotingga uylangan, yoki shunday fikrda yurgan birodarlarimizni Allohning adolat xususidagi ogohlantirishini unutmaslikka chaqirmoqchimiz.

Shu ogohlantirishdan kelib chiqadigan mano: uylangan erning xayolida ikkinchi xotin olish orzusi bo'lsa, adolat qilish yoki qilolmasligini avvaldan aniq bilmog'i darkor. Agar adolat qila olmaslik ehtimoli ko'proq bo'lsa, ikkinchi xotingga uylanish xayolidan voz kecha qolganlari durust. Ammo ikki xotin o'rtasida adolat va insof o'rnatilsa, ularning og'irligidan cho'chimsa, ixtiyori o'zida. Ikki yoki undan ko'p xotin olishning sharti shu adolat va insofdir. Qo'shxotinli er shu oyati karima hukmi va vijdoni hukmi ila farz bo'lgan adolatni xotinlari o'rtasida o'rnatishiga majbur. Yani, yeb-ichish, kiyim-kechak, uy-joy, erkak majburiyatida ham bir xil munosabatda bo'lishi shart. Ilgarilari qiziq odatlar bo'lgan ekan. Masalan, adolatga rioya etish uchun xotinlardan biri kundoshiga pul berib, uning navbatini sotib olarkan. Yoki erning o'zi bir xotininga hadya berish bilan rozi qilib, ikkinchi xotininga borarkan. Ammo o'sha davrlardagi Faqihlari buni maqul ko'rmay, pulni va hadyani o'z egalari qaytarishni lozim bilganlar. Adolatning bajarilishi vojib ekan, er bo'ynida u abadiy qoladi.

Nar qancha urinsangizlar ham xotinlaringiz o'rtasida adolat qilishga (ularning barchalariga barobar mehr ko'satishga) qodir bo'laysizlar. Bas, butunlay (suygan xotinlaringiz tomonga) og'ib ketib, (ko'ngilsiz bo'lib qolgan) xotiningizni muallaqa kabi tashlab qo'yman (muallaqa ayol - eri bedarak ketgan ayoldir. Erim bor, desa - yo'q, bevaman, desa - eri taloq qilmagan). Agar (o'zlaringizni o'nglab Allohdan qo'rqsangizlar, albatta Alloh mag'firatli, Mehribon Zotdir (Niso surasidan).

Nabiy akram (s.a.v.) marhamat qiladilarki: Agar erning ikki xotini bo'lsa va ularning oldilarida adolat qilmasa, qiyomatda tanasi yarimta bo'lgay (Muhammad at-Termiziyning Al-jome us-sag'ir kitobidan).

Oila asosini muhabbat tashkil qilishini aytib edik. Muhabbatda adolatni o'rnatish qiyin, er hamma xotinlarini bir xil seva olmaydi. Er yosh va go'zalroq bo'lgan ikkinchi xotini birinchisidan ko'ra ko'proq yaxshi ko'radi. Alloh taolo esa xotinlar o'rtasida adl va insof o'rnatishni talab etyapti. Nima qilish kerak? Islom yo'lidagi erga Alloh talim beradiki: Haqiqatda insof yuzasidan hamma xotinlaringizni bir xil sevmog'chi bo'lasizlar. Lekin muhabbatda adolat o'rnatmoq sizlarning iqtidoringiz doirasidan chiqadi. Shunday ekan, ko'proq sevadigan xotiningizga kamroq mayl qiling, toki boshqa xotin ranjimasin. Sevmaydigan xotinni muhabbat va hurmat chegarasida tutib turingiz, aslida sevmangiz ham zohirda shunday muomala qilingki, u ham sevadi, deb o'ylasin.

Bu borada Rasulullohning (s.a.v.) xulqlari bizga ibratdir. Hazrati Payg'ambarimiz alayhissalom Oisha onamizni (r.a.) boshqa xotinlaridan ko'proq sevganlar. Ammo xotinlari o'rtasidagi adolat mezoniga rioya qilib aytarkanlarkim: Yo Alloh, iqtidorim boricha xotinlarim o'rtasida adolat qilurman. Ammo ixtiyorimda bo'lmagan narsaga meni giriftor etmagin, yani hammalarini bir xilda seva olmayman, meni afv etgin, chunki mening qo'limda emas. O'z xotinlariga qay darajada adolat qilishi lozimligini bilmay yurgan er uchun Payg'ambarimizning, alayhissalom shu muborak gaplari kifoya qilar?

Imom Buxoriy hazratlari rivoyat qilgan hadisda Oisha onamiz (r.a.) shunday deydilar: Payg'ambarning ahvollari og'ir bo'lganda, ular mening xonamda qolishlari uchun boshqa xotinlaridan izn so'radilar. Ular rozi bo'ldilar. Islom dinimiz ko'p xotiniilikka shunday og'ir shartlar bilan ijozat beradi. Shunday shartlarga amal qilmay yoki ahamiyat bermay ikki yoki undan ko'p xotingga uylangan erlar bilib qo'ysinlarki, ularning ishlari Qur'on va hadisga xilofdir. Farzandlari qalbiga zulm qilganlari uchun bu dunyoning o'zida jazo olishlarini unutmasinlar. Bu jazodan tashqari yana hisob-kitob kuni kutayotganini ham esdan chiqarmasinlar.

Ojiz aqlimizning xulosasi shuki, bu kunda hech bir er talab qilinmish adolat talabiga javob bera olmaydi. Shu bois bitta xotingga kifoyat qilsin va qiyomat azobidan o'zini himoyat etsin.

Mavzu so'ngida ko'pxotiniilikning jamiyatga zararini aytib o'tmasak bo'lmas. Tarixga nazar tashlasak, qudratli davlatlarning parchalanib ketganlariga guvoh bo'lamiz. Nega shunday? Albatta buning turli sabablari mavjud. Shu sabablarning eng asosiysi podsholarning shahvat balosiga uchraganlaridir, yani to'xtovsiz va behisob uylanishlaridir. Podsholarning xotinlaridan tug'ilgan farzandlar rasman aka-uka hisoblansalar-da, toj-taxtga kim o'tiradi, degan muammo ko'tarilganida bu jigarbandlikni unutganlar. Hech bo'lmasa Mo'min mirzo fojiasini eslaylik. Mo'min mirzo Badiuzzamonning o'g'li, yani avval zikr etganimiz Husayn Boyqaro ajrashgan xotinning nabirasi. Husayn Boyqaro bu nabirasiga Astrobod viloyatini in'om qilgan, keyin esa Hadichabegimdan tug'ilgan o'g'liga hadya etdi. Oqibat Bobur mirzo yozganlariday: Muhammad Mo'min mirzoni aning (yani Hadichabegimning) sayi bilan o'lturdilar. Husayn Boyqarodan o'n to'rt o'g'il va o'n bir qiz qolgan edi. Qizlarni hisobga olmasak, bu o'g'llarning qaysi biri ko'nglida taxt egallash istagi bo'lmagan? Amir Temur saltanatini kimlar harob qildi? Temurzodalar...

Oila, er-xotinning huquqlari, bir-birlariga mehr-muhabatlari xususida adoqsiz ravishda fikr yuritish mumkin. Chunki har bir oila - o'ziga xos bir olam. Bu olamning esa o'ziga xos olam-olam quvonchilari, olam-olam tashvishlari, olam-olam muammolari mavjud. Bu muammolarni shariat hukmi asosida hal etish esa oila boshlig'i - erning burchi. Biz shu muammolarni hal etishda unga xolis bir maslahatchi bo'lishga urindik xalos. Endi duoga navbat keldi:

-Yo Rabbimiz Alloh! Bizlarga oila nematini berganing uchun O'zingga shukrlar qilamiz. Bir-birlarimizga imyonli solih va soliha, oqil va oqila, vafoli, hayoli yor berding, shukr, endi bir-birlarimiz oramizdagi mehr-muhabbatni ziyoda, bardavom qil. Kimning oilasida tinchlik-totuvlik yo'q bo'lsa, erning ham xotinning ham ko'ngillarini Qur'on nurlari bilan nurlantirib, xonadonlariga osoyishtalik ber. Xiyonatkor er yoki xotinlarga insof berib, ularni iblis yo'llaridan O'zing qaytar. Mehr-muhabbat zanjirlari uzilay deb turgan oilalarni O'zing asra. O'zing yaratgan bu muazzam hayotda tirik yetimlarning ko'z yoshlari to'kilmagay. Ota-bobolarimizdan qolgan Qo'sha qaringlar degan xayrli duo bor, bu duolarimizni ijobat et. Yoshlarimiz ongiga, qalbiga oilaning muqaddas ekani haqidagi tushuncha va tuyg'ularni singdir. Har bir oilani turli baloyu ofatlardan O'zing asra. Omiyn, ya Rab al-olamiyn.

Eng yaxshi do'st

Mazkur bobda o'likni tiriltirguvchi do'st mehri va tirik qalbni vayron etguvchi do'st xiyonatlari xususida birgalikda fikr yuritajakmiz, insha Alloh.

Bir ajib qushni ko'z oldingizga keltiringkim, uning qalbi Allohga ishq bo'lsa, qanotlaridan biri ota-onaga, ikkinchisi do'stga muhabbat va vafodir. Do'stlik haqida, do'stlikdagi vafo va xiyonatlar haqida shu qadar ko'p rivoyatlar, hikmatlar bitilgankim, barchasini to'plab, nashr etilsa dunyoning qog'ozlari yetmas ehtimol. Kishining hayotida tish o'tmas muammolar ko'p. Shulardan biri aynan do'st topish, do'st tanlash muammosidir. Kishi umri davomida adash yo'llarda ko'p qoqiladi. Eng ko'p qoqilish do'st ko'chasida bo'ladi. Kishi o'lguniga qadar ko'p do'st topmaydi, ammo ko'p do'st yo'qotadi. Nega shunday? Bunga kim aybdor? Kishining o'zimi yo do'stmi?

Ko'nglimiz hamisha vafoli do'st tilaydi. Ayni damda kimdir bizning do'stligimizga, sadoqatli do'stligimizga muhtoj. Birorta do'sti bo'lmagan odam dunyoda yashamasa ham bo'ladi. Biz do'st deb yurganimiz dushmanlik chodiriga burkanib olsa, aziyatlar chekamiz, ammo o'zimiz bazan bilib, bazan bilmay boshqa bir odamga dushmanlik qilib yurganimizni anglaymizmi? "U yomon odam, shuning uchun menga dushman, deymiz. Ehtimol o'zimiz yomondirmiz, ehtimol do'stlik burchi nima ekanini yaxshi anglamagandirmiz, ehtimol yaxshi do'st tarbiyasini chetlab ulg'aygandirmiz?"

Shu yoshimizga yetguncha topgan va yo'qotgan do'stlarimizni bu onda bir-bir ko'z oldimizga keltiraylik. Ularning fazilat va illatlarini eslaylikda so'ng o'zimizga savol beraylik: "shu fazilat menda bormi, bu illatdan qutula olganmanmi? Rasululloh (s.a.v.) "Alloh nazdida eng yaxshi do'st deb odamlarga doimo xayrli ishlarni qilib yuruvchi kishiga aytiladi, - deb marhamat qilganlar. Yanikim, do'stlarning yaxshirog'i hamdamlarini o'z shafqati soyasida tutar va karam eshigini ular yuziga ochib qo'yar, tilaklarini va hojatlarini yuzaga chiqarar. Biz shundaymizmi? Yoki do'st deb yurganimiz bir guruh kishilargagina yaxshilik qilish bilan cheklanamizmi?

Savollar ko'p... Javob o'ylash barobarinda hikmatlardan quvvat olaylik-chi...

Do'stlikning avvali - tanishmoqlikdir. Tabir joiz bo'lsa, tanishish - do'stlik manziliga olib boruvchi bir yo'ldir. Agar bu yo'ldan to'g'ri bormay, poyontir-soyontir, egri-bugri qadam tashlansa, g'iybat, ig'vo, hasad ariqlaridan suv ichib turilsa, o'rtada dushmanlik paydo bo'lishi shubhasizdir. Bir kishi bilan tanishib, uni do'stlikka qabul qilishda g'oyat ehtiyotkorona harakat qilish kerak.

Do'st yo'lidagi bog'lardan biri - yaxshilikni etirof etishdir. Yani do'stning do'stga qilgan yaxshiligini tan olishdir. Agar bu yo'lda minnat daraxti soyasida rohat qilinsa do'st manzilidagi ko'shikka umid qilmay ortga qaytavergan maqul.

Yo'l berish - tabiiyki, har qanday ahil do'st orasida tortishuv bo'ladi. Shunday hollarda mayda-chuyda narsalarga o'ralashib, kishi do'stdan ajrab qolishi hech gapmas. Demak, ikkovdan biri yo'l berishi shart. Do'stlik olamida kibr quyoshidan bahra olish mukofoti - yulduzsiz tundur.

Xush muomala - do'stlik bog'idagi daraxtlarga hayot suvi beruvchi bir chashmadir. Shirins'ozlik, ochiq yuzlik, go'zal ifoda, tavozu', muloyimlik, tilni manosiz behuda so'zlardan tiyishlik kabi go'zal xulqlardan xushmuomala hosil bo'ladikim, bu dushmanlik sahrosidan yopirilajak ofatlar yo'lini to'smoqlikka qodir bo'lur.

Do'stga muhabbatning haqiqiy tarjimoni ixlos sanaladi. Do'stga xayrixoh bo'lish, kerakli vaqtda uning manfaati yo'lida xizmat qilish buni isbot etadi. Muhabbat ixlosga teskari emas, aksincha uni quvvatlaydi, chunki ikki do'st orasidagi muhabbatdan maqsad - bir-birlariga manfaat yetkazib yordamlashishdir. Agar ikki do'stdan birisining ko'nglidan bu chiqib ketsa, uning muhabbati faqat munofiqlik, riyokorlikdan iborat bo'lib qoladi.

Bir kishi pulga muhtoj bo'lib do'stining uyiga keldi-da murodini aytdi. Hijolatligi tufayli do'stining taklifini qabul qilmadi, uyiga kirmadi. Do'st ichkari kirib aytilgan pulni olib chiqib berib, birodarining ko'nglini ko'taradigan, hijolatlikdan holi qiladigan oqil so'zlarni aytdi. Muddaosi hosil bo'lgan kishi iziga qaytgach, do'st uyiga kirdi-yu, yig'lay boshladi. Xotini "erim ko'proq pul berib yuborib, achinib yig'layapti shekilli, - degan xayolda "Biror narsani bahona qilib pul bermasdan qaytarib yuborsangiz bo'lmasmide, endi pushaymonligingizdan nima foyda? - deb tana qildi. Shunda do'st dedi-ki:

-Yig'layotganim sababi sen o'ylagancha emas, meni g'afat bosibdi, do'stim pulga muhtoj bo'lib qolganini bilmabman. U kelib so'ramasidan avval o'zim borib, mushkulini oson qilishim kerak edi. Do'stning hojatidan bexabar menday g'ofilning do'stligidan Alloh rozi bo'larmikin?

Qarz so'rash jarayoni do'stlik ko'chasidagi og'ir va nozik muammolardan, ayni paytda jiddiy sinovlardan sanaladi. Pul go'yo o'tkir qilich, do'stlik zanjirlarini uzishga, do'stlikning buzilmas imoratini barbod etishga ham qodir. Qarz so'rash boshlansa zaif do'stlik iplari uzilib boraveradi.

Bir odamning qadrdon uch do'sti, taqdir taqozosi bilan uch shaharda yashar edi. U do'stlarining sadoqatini sinamoqni xayol qildi. Avval biriga xizmatkorini jo'natdi. Xizmatkor xojasining ishi yurishmay, qarzga botganini aytdi. Do'st uni yupatib, u aytgan qarzni to'lashga yetgulik miqdordagi pulni berib, iziga qaytardi. Sinovchi do'st birodarining bu karamidan quvonib, xizmatkorini ikkinchi shaharga jo'natdi. Ikkinchi shahardagi kishi ham do'stining qarzga botganini eshitib g'oyat qayg'urdi. Ertasiga xizmatkorning qo'lga qarzni qoplaydigan va yana o'n yil davomida tirikchilikka asqotadigan mablag' berib jo'natdi. Sinovchi do'st bundan ham quvondi, shunday do'stlarni berganiga Allohga shukrlar qildi. Uchinchi shaharga jo'natishdan oldin xizmatkoriga qattiq tayinladi: -Bu do'stim badavlat emas, o'zi olim odam. Unda ilmdan boshqa narsa yo'q. Shu sababli "xo'jayinimning ahvoli xarob, katta qarzga botgan, deb vahima qilma. "Ishlari yomon emas, faqat besh tangagina qarzlari bor, Xudo xohlarsa yaqin kunlarda qarzdan qutilib, ishlari avj olib ketadi, - degin.

Xizmatkor olim do'st huzuriga borib xojasining buyurganini bildirdi. Olim do'st bu xabarni eshitib, boshini egdi. So'ng o'rnidan turib, tashqariga chiqdi. Xizmatkor o'tirgan uyiga nazar soldi: yirtiq palosu eski ko'rpachadan boshqa hech vaqo yo'q ekan. "Hech bo'lmasa besh tangasi bordir, deb o'tirganida uyga notanish odam kirdi-da:

-Xojasi besh tanga qarz bo'lib qolgan xizmatkor senmisan? - deb so'radi.

-Ha, - deb javob berdi xizmatkor.

-Mana senga besh tanga, buni shu uy egasi berib yubordi.

-O'zlari qanilar?

-O'zi menikida. U qul bozorida o'zini menga besh tangaga sotdi.

Bu gapdan xizmatkor ham ajablendi ham dahshatga tushdi. Quldorga ergashib uning uyiga bordi va olim do'st qarshisida tiz cho'kib:

-Unday qilmang, pulni qaytarib beraylik, - deb yalindi.

-Men bu odam bilan shartlashib, besh tanga evaziga besh yil ishlab berishga vada berganman. Vadamga xilof qila olmayman.

Do'stimni muhtojlikdan qutqarish uchun besh yil ishlab berish men uchun hech gap emas, - degan ekan olim do'st.

Mazkur rivoyatni bir davrada hikoya qilib berganimda kimdir dedi-ki:

-O'sha sinayotgan odam bu birodarining qashshoqligini bilar ekan, o'zi unga yordam bersa bo'lmasmidi?

Bu savolda o'zimiz uchun ikki ibrat bor:

-olim o'zini qashshoq sanamaydi, chunki uning ilmi bor. U ilmni har narsadan ustun qo'yadi, birodarining yordamini qabul etmaydi. Badavlat birodarlari hisobiga yashasa u olim bo'lmaydi. (Shu o'rinda o'tmish sovet jamiyatida yoshlarga ibrat qilib ko'rsatilgan Marks va EngelKjs do'stligidan bir voqeani eslaylik: Qallig'i vafotidan qayg'urgan EngelKjs boshqa shahardagi do'stiga bu fojiani xabar qilib xat yozadi va bu mazmunda javob oladi: "Tirikchilikka pulim qolmadi, menga pul yubor.)

-boshqani sinamoqchi bo'lgan odam avval o'zini sinab ko'rishi kerak.

Bu dunyoning odamlari bir-birlariga mahram bo'lishni istasalar do'stlik yo'lida o'z aziz jonlarini ham ayamaydilar. Bunday odamlar sadoqatli asl do'stlardir. Lekin bu dunyoda shunday toifa odamlar ham borki, ular yolg'iz o'z vazifalarini yaxshilamoq, qo'lga bir narsa kiritmoq, yaxshi kun kechirmoq uchun do'st bo'ladilar. Bunday odamlar mol-davlat do'stlaridir. Ular qushlarni to'ydirish uchun emas, tutish uchun don sepadigan ovchiga o'xshaydilar. Do'sti uchun jonini fido etadigan odamlarning qadr-qimmatini molini fido etuvchidan juda va juda yuksakdir. Rivoyatdagi olim do'stini ana shu yuksak martabada ko'ramiz.

Do'stlar ikki xil bo'ladilar: birinchilari - o'z ixtiyorlari bilan samimiy do'st bo'lganlar. Ikkinchilari - majburiyat va zaruriyat yuzasidan ahdu-paymon bog'laganlar. Bularning maqsadi foyda ko'rmoq va zarardan qochmoqdir. Lekin samimiyat va sadoqatga asoslangan do'stlik hamisha, har yerda va har sharoitda ishonchli bo'ladi. Zaruriyat va majburiyat natijasida paydo bo'lgan do'stlik esa unday bo'lmaydi. U daryo kabi goh toshib, atrofnii bosadi, goh qurib, suvi ozayib qoladi. Zaruriyat yuzasidan paydo bo'lgan do'stlikka ishonish durust emas. Zaruriyat o'rtadan ko'tarilishi zamon do'stlik adovatga aylanishi ehtimol. Demochimizkim, olim agar zaruriyat tufayli do'st bo'lganida o'zini besh tangaga sotmas edi.

Qarg'a, ohu, sichqon va toshbaqa do'st edilar. Ittifoqo ohu yo'qolib qoldi. Qarg'a osmonga uchib, uni qidirdi. Qarasaki, ohu ovchining to'riga o'ralib, azob chekib nolalar qilyapti. Qarg'a sichqonni fojia yeriga boshladi. Sichqon to'r arqonlarini qirqdi, ohu ozod bo'ldi. Shunda ohu do'sti toshbaqaga qarab, ajablanib so'radi:

-Sen nega kelding? Ovchi bu yerga qaytsa, sichqon, teshikka kirib berkinadi, qarg'a osmonga ko'tariladi. To'rdan qutuldim, endi men ham qochib qutula olaman. Sen-chi?

Toshbaqa bu gapni eshitib boshini chayqaganicha debdi-ki:

-Birodar, qanday qilib kelmayin? Do'stlardan uzoqda, firoq va hijronda kechgan hayotning nima lazzati bor? Qanday aqlli odam ayrilmoqni afzal ko'radi? Baxtsizlik yuz berganida odamga tasalli beradigan, og'ir kunlaringda dardingni yengil qiladigan do'stlar bilan birga bo'lish lozim. Hijron o'tida yongan, do'stlardan uzoqqa tushgan odamning dili hamisha g'am va alam bilan to'la, sihatlik uning vujudidan yiroq bo'ladi. Sabr va qanoat uni tark etadi. Aql va kamolot o'z kuchini yo'qotib, foydasiz bo'lib qoladi... Do'stdan ajralishdan ham og'irroq musibat bormi dunyoda? Firoq alangasi yetti daryoni quritadi...

Rivoyatdan olinajak fikr shuki, shijoatli va kuchli botirlar urushda, xotin va farzandlar kambag'allikda, do'stlar boshga kulfat tushganda taniladilar.

Hayvonlar dunyosini tark etib, o'zimizning hayotga nazar tashlaylik-chi, nimalarni ko'rar ekanmiz:

Bir yigitning boshiga ish tushib, boyligidan ajraldi, o'zi esa qamaldi. Shunda uning xotini har haftada oshxo'rlik qiluvchi ulfat-do'stlardan yordam kutdi. Do'st qamoqda, oshxo'rlik o'sha-o'sha davom etardi. Oshxo'r ulfatlar bolalikdan birga katta bo'lgan o'rtoqlarini eslab qo'yish bilan do'stlik burchlarini ado etardilar go'yo. To'g'ri, ular sichqon kabi to'r arqonlarini qirqib do'stlarini tutqunlikdan qutqara olmaydilar. Ammo faqat odam bolasiga xos fazilat -tutqunlikdagi do'stning ota-onasi, oilasidan xabar olib turish-chi? Qamoqdagi do'stning xotini erini qutqarib olish umidida yelib-yugurardi. Ittifoqo avtomashinasi buzilib qolib, erining eng yaqin do'sti hisoblangan odamnikiga borib iltimos qildi:

-Kunda besh-o'n idoraga uchrashishga to'g'ri kelyapti, mashinasiz ulgura olmaydiganga o'xshayman. Temirni qizig'ida bosmasa, armonda qolamiz shekilli. Mashinangizni ikki-uch kunga berib tursangiz.

Do'st xotinning iltijosiga javoban shunday dedi:

-Birov mening xotinimni so'rasa berib turishim mumkin, ammo mashinani berib tura olmayman.

To'g'ri, mashinani birovga berish qonunga zid, dersiz. Lekin ko'ngil toza bo'lsa shu mashinani "ishonch qog'ozi bilan ham berib turish mumkin-ku? Yoki agar u chin do'st bo'lsa "bir-ikki kun emas, qancha lozim bo'lsa o'zim mashinam bilan xizmatdagingizda bo'laman, demasmidi? "Ulfat, "oshna degan tushunchalar bor. Choyxonadagi oshga yoki uydagi "gapga kelmaganlardangina qilamiz, bunday ulfatga qo'shilmaganlardan hatto nafratlanamiz. Ammo qo'polroq bo'lsa ham bir haqiqat bor: ot va eshak bir ohurda xashak yesalar ham do'st bo'lmaydilar.

Bir odamning afsus bilan aytib bergan hikoyasiga siz ham guvoh bo'ling: ikki yigit. Ikkovi ham badavlat otaning erka farzandi.

Biriga otasi "Mercedes in'om etib, ulfatda "yuvildi. Ziyofatdan qaytishda ularning biri halokatga uchradi: mashinasi pachoq bo'ldi, o'zi og'ir jarohatlandi. Uning izidan kelayotgan do'st - yangi "Mercedes egasi to'xtadi. Do'stining ahvolini ko'rib, mashina to'xtata boshladi. Bu voqeani hikoya qilayotgan odam mashinasini to'xtatganda yigit: "do'stimni shifoxonaga olib boring, men izingizdan yetib boraman, deb pul tutqazdi. U odam esa "Bu qonga belanib yotgan yigit do'stingiz ekan, o'zingizning mashinangiz bor ekan, har nafas g'animat-ku, nega o'zingiz olib bormay, mashina to'xtatmoqchisiz? deb so'rasa "do'st debdi-ki: "Ile amaki, mening mashinam yangi-ku, uni o'tqizsam qon bo'ladi-ku?

Bu hikoyaga izoh shart bo'lmasa kerak. Yana bir voqea xususida esa ehtimol bahslashishga ham to'g'ri kelar. Ammo undan avval ibrat sifatida bir masal bilan tanishsak:

Bir xushmanzara, ajoyib chamanzordagi baland daraxt ustida qarg'aning ini bor edi. Bir kuni ovchi shu daraxt atrofiga don sochib to'r yoydi. Qarg'a buni ko'rib o'ylandi:

-Bu odam bir baloni boshlayapti. Kimni to'rga solish qasdida ekan? Meni tutmoqchimi yo boshqanimi? O'z joyimda qimir etmay turay, qani nima bo'lar ekan?

Shu onda kabutarlar uchib keldilar. Ularning boshlig'ini Chinkabutar der edilar. U g'oyat zehnlil, chaqqon edi. Kabutarlar donni ko'rgach, ehtiyotkorlikni unutdilar va to'rga ilindilar. Kabutarlar patillab, jonlarini xalos qilish uchun bir-birlariga urilaverdilar. Shunda Chinkabutar dedi:

-Vahimaga tushmanglar. Har biringiz o'zingizni emas, hammaning baravariga xalos bo'lishini o'ylanglar. Biz baravariga parvoz qilamiz.

Kabutarlar uning aytganini bajarib ko'kka ko'tarildilar. Ovchi ularning ortidan yugurdi. Qarg'a esa o'z-o'ziga dedi:

-Men bularning ortidan borib, ish nima bilan tugashini ko'ray, chunki shunday tashvish ertami kechmi mening boshimga ham tushishi ehtimol. Boshqalarning boshiga tushgan hodisadan o'zi uchun ibrat olganni hushyor va farosatli deydilar.

Ovchining izma-iz yugurib kelayotganini ko'rgan Chinkabutar yoronlariga dedi:

-Bu surbet ovchi bizdan voz kechadiganga o'xshamaydi. Agar ko'zidan g'oyib bo'lmasak, bizdan ko'ngil uzmaydi. Ochiq joyga emas, daraxtzorlarga borib qo'naylik, shunda u bizlarni topa olmay iziga qaytib ketadi. Shu yaqin orada mening bir sichqon do'stim bor, unga aytsam bu to'rni qirqadi va biz ozod bo'lamiz.

Kabutarlar u aytgan tomonga uchdilar. Ovchi ularni yo'qotib, iziga qaytdi. Qarg'a esa ular izidan uchib boraverdi. Chinkabutar aytgan daraxtzorga uchib keldilar. Sichqonni chaqirdilar. Ismi Ziyrak bo'lgan bu sichqon juda aqlli va chaqqon edi. Biror falokat yuz bersa qochib chiqib ketish uchun inidan anchagina teshikchalar ochib qo'ygan, bir necha kunga yetarli ozuqa ham g'amlagan edi. Do'stining ahvolini ko'rib Ziyrakning ko'zlari yoshlandi. В Ёњ Seni kim bu ahvolga soldi? В Ёќ - deb so'radi. Chinkabutar do'stiga shunday dedi:

-Yaxshilik ham yomonlik ham taqdir. Kimning peshonasiga nima yozilgan bo'lsa, ertami kechmi, shu narsa uning boshiga keladi, undan qochib qutulib bo'lmaydi... Qismat bizni bu balo girdobiga soldi. U bizga don ko'rsatib ko'zimizni bog'ladi va aqlimizni qora pardaga chulg'adi. Hammamiz balo zanjiriga bandi bo'lib, baxtsizlik changaliga tushdik. Mendan ko'ra quvvatliroq va shan-shavkatliroq bo'lganlar ham qismatdan qochib qutula olmaganlar. Vaqti-soati kelganda kun va oy tutiladi, baliq daryo tagidan yuzaga qalqib chiqadi, qush osmon bag'ridan yerga tushadi, nodonlar maqsadga yetadi, aqllilar ojiz qoladilar.

Ziyrak bu so'zlarni eshitgach, Chinkabutarni o'rab turgan to'r iplarini qirqa boshladi.

-Avval do'stlarimni o'rab turgan iplarni qirqqin, - dedi Chinkabutar. Ziyrak uning gapiga etibor qilmadi. Shunda Chinkabutar unga yalindi: - Ey aziz do'stim, sen birinchi galda o'rtoqlarimni banddan ozod qil.

-Sen o'z joningni xalos etishni istamaysanmi, yashashga sening haqqing yo'qmi? - dedi Ziyrak.

-Men ularga rahbar bo'lishni o'z zimmamga olganman, - dedi Chinkabutar. - Shuning uchun ularning menda haqlari bor. Ularni asrash mening burchimdir... Buning ustiga men ularning harakati va yordami tufayli ovchining taqibidan xalos bo'ldim. Endi men ham o'z burchimni ado etib, o'zimdanda avval ularni qutqazishim kerak. Yana shunisi borki, sen meni o'rab turgan iplarni qirqa boshlasang charchab qolishing va oqibatda do'stlarim to'rdan qutula olmay halok bo'lishlari mumkin. Lekin men to'rda ekanman, sen qanchalik charchamagin, baribir, meni bu to'rda qoldirmaysan. Tushungin, hammadan oldin o'zimni qutqarsam, umrim tana va malomat tamg'asi ostida o'tadi. Men bunga chiday olmayman.

-Bu muruvvatli va insofli odamlarning xosiyatidir. Bu xosiyat do'stlarning senga bo'lgan ishonchi va muhabbatini yanada mustahkamlaydi, - sichqon shunday deb boshqa kabutarlarni o'rab turgan iplarni qirqa boshladi. Shu tarzda kabutarlar ozod bo'lib, Ziyrakka minnatdorlik so'zlarini aytdilar-da, uchib ketdilar. Bu voqeani kuzatib turgan qarg'a esa sichqonning mahoratiga qoyil bo'lib, В Ёњ kabutarlar boshiga tushgan tashvish mening boshimga ham tushishi mumkin, menga bunday do'st bugun bo'lmasa ertaga kerak bo'lib qoladi В Ёќ, - degan fikrda u bilan do'stlashmoqni istadi. Pastga tushib sichqonni chaqirdi va maqsadini aytdi. Sichqon unga dedi:

-Sen bilan mening o'rtamda hech umumiylik yo'q. Binobarin, do'st bo'lishimiz ham mumkin emas. Nodonlar ahvoliga tushmaslik va hikmat ahliga kaltafahm bo'lib ko'rinmaslik uchun aql egalari mumkin bo'lmagan narsalarni orzu qilmasliklari kerak.

Quruqlikda kemadan, dengizda esa otdan foydalanishni istaganlar o'zlarini kulgili holga solgan bo'ladilar. Sen bilan mening oramizda qanday muhabbat bo'lishi mumkin? Axir men sening taomingman, demak, sening yoningda bir lahza bo'lsa-da, tinch va bexavotir yashay olmayman. Kimki o'z tengi bilan bo'lmasa oxirda pushaymon yeydi...

Endi vada qilganimiz yana bir voqea:

Bolalikdan birga katta bo'lgan ikki do'st tijorat bilan shug'ullanmoqchi bo'lishdi. Biri qaerda arzon-garovga shampandan vino olib, xaridor topish maqsadida bozorga kelishdi. Mashina egasi bo'lmish do'st do'kondor bilan savdolashmoq maqsadida ichkari kirdi. Ikkinchisi ko'chada qoldi. O'zicha savdo qilib ko'rmoqchi bo'lib, mashinadan uch-to'rt shisha vino olib ko'chaning o'zida sotuvga qo'yganda militsiya xodimlarining qo'lga tushdi. Do'kondan chiqqan mashina egasi do'stining bu ahvolini ko'rgach, "men bu odamni tanimayman, deb jo'nab qoldi. Uni qutqarishga harakat ham qilmagani do'stga xiyonat emasmi? Vijdonan qaralsa shunday. Lekin masalaga iqtisodiy tomondan ham qarash bor ekan. Do'stlar davrasida, yani "ulfat gapida bu voqeadan xabar topganlardan biri birinchi do'stni aybladi. Ammo u do'st aybiga iqror bo'lmadi. "Men unga ko'chada sot, dedimmi? O'zining axmoqligi uchun o'zi javob berishi kerak, - dedi. Orada bahs boshlanganida tijorat ilmidan yaxshi xabardor do'stlarning biri orani ochiq qildi. "Bu do'stimiz ketib qolib to'g'ri qilgan, - dedi u, - agar shu mening do'stim desa, milisa uni ham ushlardi. Milisadan qutilish uchun ikki hissa pul to'lash kerak bo'lardi.

Siz bu hukmga qanday qaraysiz?

Iqtisodiy manfaat bor joyda do'stlikka o'rin yo'qmi? Do'stlik o'rnini bevafoqlik egallaydimi? Ehtimol savolimizga bu rivoyat javob berar? Malumimgizkim, bevafo do'stlar haqida ko'p rivoyatlar bitilgan. Qadim fozillaridan birining hikoyasi bilan tanishsak: В Ёњ Xorazmga safar qilganida bir kishi menga yo'ldosh bo'ldi. Uni yedirib-ichirib yurdim. U esa menga nisbatan bo'lgan muhabbatini, samimiy do'stligini tinmay so'zlardi. Yo'lda bizga bir it ham hamroh edi. Ovqat qoldiqlarini men itga berib turardim. Yo'lda ikki o'g'ri bizga hujum qildi. Yo'ldoshim o'g'rilarni ko'riboq, meni yolg'iz tashlab qochib ketdi. It esa meni himoya qildi. Bir o'g'rining oyog'idan tishlab yiqitdi, taladi, oqibatda o'g'ri arang qochib qoldi. Ikkinchi o'g'rini men o'zim mag'lub etdim. Shunday qilib, itning yordamida o'g'rilardan qutuldim. Hamrohim o'g'rilarning qochganini ko'rib yonimga qaytdi, riyokorlik qilib, holimni so'radi. Men esa В Ёњ Sen kabi do'stdan shu vafoli it yaxshiroq В Ёќ, deb uni yonimdan nari quvdim.

Bizningcha, iymonga suyanmagan birodarlikda yaxshilik yo'qdir. Bu otasining mol-mulkini sovurgan shahzodani eslatadi. Deydilar, bir shahzoda otasining vafotidan keyin yurtni idora qilishni unutib, do'stlari bilan ayshu-ishratga berilibdi va tez muddatda xazinani ko'kka sovuribdi. Bu holdan xabar topgan bir qarindoshi vaziyatdan foydalanib, mamlakatni bosib olibdi. Podshohlikka havasi yo'q shahzoda bunga parvo qilmay toju-taxtni topshiribdi-da, o'zi o'sha tekinxo'r do'stlari bilan yallo qilib yuraveribdi. Oxir-oqibat bor-yo'g'idan ajrab, kafangado bo'lgach, eski yor-do'stlaridan birortasi uning holidan xabar olmabdi, aksincha barchasi undan yuz o'giribdi. Shahzoda har kuni bozor boshiga chiqib o'tirar, otasining sodiq g'ulomlaridan biri uning qornini to'yg'izar ekan. Bir kuni sobiq do'stlari uni mazax qilish maqsadida ziyofatga taklif etishibdi. Hammalari kayfu safoga berilganlarida it kelib go'shtni ko'tarib ketibdi. Do'stlar В Ёњ Bu shahzodaning ishi, necha kunlardan beri go'shtning aftini ko'rmagani uchun ko'zi ochlik qilib yashirib qo'ygan В Ёќ, deb malomatlar qilishibdi. Shahzoda В Ёњ go'shtni men olganim yo'q В Ёќ, deb qancha ont ichmasin, ishonishmabdi. Malomatdan ezilgan shahzoda parishon holda do'stlari davrasidan chiqib ketib, qon-qon yig'labdi. Uning bu holini ko'rib qolgan enagasi В Ёњ Bolajonim, senga nima bo'ldi? В Ёќ - deb so'rabdi. Shahzoda ahvolini

bayon qilindi. Shunda kampir podshohning vasiyatini yetkazish vaqti kelganini anglab shahzodaga uchta maktub berildi. Birinchisida aytilishicha, falon yerdagi kaptarxonaga o'n ming tilla yashirilgan ekan, ikkinchi maktubdagi bayonga ko'ra falon shahardagi falonchi ismli kishiga o'n ming tilla berib qo'yilgan ekan. Uchinchi maktubda piston shahardagi pistonchi ismli kishiga o'n ming tilla tanga omonatga berib qo'yilgani bildirilgan ekan. Shahzoda bu pullarni olib, birovga muhtoj bo'lmasdan yashay boshlabdi. Uning ishlari yurishib qolganidan xabar topgan eski jo'rulari yana xira pashshaday paydo bo'lishibdi. Shahzoda bir kuni ularni ziyofatga chorlabdi. Ular kelgunga qadar tosharoshni chaqirtirib, katta bir tegirmon toshini ilma-teshik qilib teshdirib, ko'zga ko'rinarli joyga qo'yibdi. Ziyofatga kelgan jo'rular bu toshni ko'rib, vЎunda qanday hikmat bor ekan? vЎk deb ajablanishibdi. vЎOtam zamonida, - debdi shahzoda, - arabistonlik odam bir talay chumoli olib kelgan ekan. O'sha chumolilar shu toshni ilma-teshik qilib tashlashibdi vЎk. vЎShunday bo'lgani aniq, - deyishibdi jo'rular, - biz ham shunaqa chumolilar borligini eshitganmiz vЎk.

Bu so'zlarni tinglagan shahzoda o'zicha shunday debdi:

vЎAna xalos, bir burda go'sht uchun o'sha kuni qancha qasam ichsam ham, bularning hech qaysisi menga ishonmagan edi. Hozir aql bovar qilmas yolg'onni aytsam, barchalari tasdiqlab o'tirishibdi. Demak, bularning barchasi yaxshi kunimdagina paydo bo'ladigan do'stlar ekan. Menga esa yomon kunimga yaraydigan, nonim uchun emas, jonim uchun do'st bo'luvchilar kerak... vЎk Odamning hayotda do'stlari ko'pday tuyuladi. Ammo o'zini do'st deb yurganlarning yuzdan saksoni manfaat do'stlari, desak fikrimizga qo'shilasizmi? Bilasiz, qog'oz pullarning, hatto duru javharlarning sun'iyolari, qalbakilari uchrab turadi. Ularni maxsus moslamalar saralab berishadi.

Hayotda soxta do'stlarni saralaydigan moslama yo'q, har kim o'z zehni, hayotiy tajribasiga qarab ajratib oladi-yu, ammo ajratib olgunicha ko'p aziyatlar chekishi ham mumkin. Hayotda uchrab turadigan tahlakali va musibatli kunlarning foydali tomoni shundaki, bir-birlarini tanimagan odamlarning tanishib, do'st bo'lishlariga yo'l ochib beradi. Ayni choqda do'stning sadoqatini sinaydi. Do'stlarga manfaat yetkazmasdan ulardan manfaat kutish, yerga urug' sepmasdan turib, don olishni tama qilish kabi manosi'dir. Mashoyixlar vЎKishi yondirmayin suhbatda shamni, yorug'likning nishonin ko'rolmas vЎk, deb bejiz aytmaganlar. Sadiy Sheroziydan bir hikmat bor: vЎBir azizdin ixvoni safo siyratidin so'rdim, yani qarindosh va aqrabo va oshnolar haqida na tariqa ravish va na yanglig' ish qilmoq munosibdur? vЎk Ul aziz dedi: vЎAdnosi ulkim, yorlarning xotiri murodni o'z murodidan muqaddam tutg'aylarkim, hakimlar va donishmandlar debdurilar: vЎHar birodarkim, o'z ishining bandidadur, birodar emastur vЎk. Deyilmoqchikim, do'stlarning murodu manfaatlarini o'z manfaatingdan ustunroq qo'y, agar kishi faqat o'z maqsadlari va ishlari bilan band ekan, undan do'stlik kutma.

O'z nafsini o'ylab qilingan do'stlikka juda tez soya tushadi. Deydilarkim, do'stni foyda-zarar ichida sinamoq kerak. Yani, sen do'sting uchun oyoq qo'ysang, o'zingni mahkam tut. Do'stning haqiqiy dilini bilmoqchi bo'lsang, sinash uchun unga tilingda g'azab qilib yoki qovog'ingni solib ko'r. Do'stning senga qanchalik muhabbati borligini bilmoqchi bo'lsang, uning eng yaxshi ko'rgan narsasini so'ra. Shu ikkalasidan so'ng ham u qovog'ini solmasa, bunday do'stni boshga ko'tarish, shirin jon bilan barobar tutish kerak. Bir kuni tasavvuf ilmining ulug'laridan bo'lmish Shibliy hazratlari (Allohning rahmati bo'lsin) huzurlariga bir jamoat keldi. So'radilarkim: vЎSizlar kimsizlar? vЎk Ular dedilarkim: vЎBizlar sizning do'stlaringizmiz! vЎk Bu javobni eshitgan Shibliy hazratlari o'girildilar va ularga qaratib tosh otdilar. Ular qocha boshladilar. Shunda hazrat dedilarkim: vЎNega qochyapsizlar? Agar sizlar haqiqiy do'stlar bo'lsayingizlar, mendan kelgan balodan qochmas edingizlar! vЎk

Bir donishmanddan vЎQancha do'stingiz bor? vЎk deb so'radilar. Javoban dediki:

-Buni bilmayman. Hozir turish-turmushim yaxshi. Umrim farovonlik bilan kechib turibdi. Shuning uchun hamma menga xushomad qilib, o'zlarining do'st ekanliklarini bildirib turibdilar. Mabodo davlatim qo'limdan ketsa, u choqda qancha samimiy do'stim borligini bilib olaman.

Horun Rashid Bahluldan vЎEng yaqin do'sting kim? vЎk - deb so'radilar.

-Qornimni to'ydirgan kishi, - deb javob berdi Bahlul.

-Qorningni to'ydirsam, meni ham do'st deb bilasanmi? - deb so'radilar Horun Rashid.

-Do'stlik ham nasiya bo'ladimi? - dedi Bahlul.

"Bu odamni tanimayman, degan "do'st va uning harakatini oqlagan ulfat bu hikmatlarni va endi bayon qilinajak masalni bilsa, mag'zini chaqsa ehtimol boshqacha xulosaga kelarmidi? Siz ham tanishing:

Tuya bilan tulki har ishda hamdam va hamdard bo'lishga ahdu paymon qilishibdi. Bir kuni tulki ov qilib yurib, sherga duch kelibdi. Sher unga tashlanmoqchi bo'lganida tulki unga yolboribdi:

-Ey hayvonlar sultoni! Menga shafqat qiling, buning evaziga shu yaqin o'rtada o'tlab yurgan aziz do'stim tuyani ko'rsatay. U sergo'sht, men esam qoqsuyakman.

Tulki tuyani ko'rsatibdi. Ammo sher avval uning o'zini burdalab yeb, so'ng tuyaga tashlanibdi.

Qissadan hissa shuki: do'st tanlashda shoshilmaslik kerak. Avvalo uni sinab so'ng etimod etmoq darkor. Kishi do'stlik iplarini bevafoqlik, g'addorlik boltasi bilan uzmasinki, o'z boshiga ham xiylagar tulkining kuni tushgay. "Kimki do'stlikni xor aylabdi, uni qismat jazolagay -deyishlari bejiz emas.

Tulki toifasidagi manfaat do'stlariga ibrat bo'lsin uchun o'tmishdan bir voqeani yodga olamiz:

Rimliklar ustiga yuborilgan qo'shin orasidagi Abdulloh ibn Xuzofa (r.a.) asirga tushib qoladilar. Uning Rasululloh (s.a.v.) sahobalaridan ekanini bilgan Rim hukmdori:

-Seni o'zimga sherik qilib olsam nasroniy bo'lasanmi?-deb so'radi.

-Faqat sherik emas, butun saltanatingni va unga qo'shimcha arab yerlarini bersang ham dinimdan kechmayman,-dedilar.

Keyin u kishini g'oyat azobli qiynoqlar bilan qiynadilar, qo'rqitdilar. Baribir dinlaridan kechmadilar. Shunda hukmdor: "Agar seni qo'yib yuborsam, boshimni o'pasanmi? - deb so'radi. Abdulloh ibn Xuzofa: "Bu odam Allohga qanchalik dushman bo'lsa-da, o'zimni va do'stlarimni qutqarish uchun boshini o'pishning zarari yo'q, - degan fikrda "Bir o'zimni emas, sheriklarimni ham qo'yib yuborsang, aytganingni bajaraman, - deb shart qo'yidilar. Abdulloh ibn Xuzofa sheriklari bilan Madinai munavvaraga qaytganlarida hazrati Umar (r.a.) "Abdulloh ibn Xuzofaning boshini o'pish har bir musulmonga farzdir, - deb birinchi bo'lib o'zlari o'pdilar.

Do'ndamas va Amazak degan yigitlarning do'stligi haqida qadim afsona bor. Bu afsonani Aleksandr Makedonskiy tarixchilari yurtimizda bo'lganlarida yozib olganlar va bu tarix kitobi yunonlar diyori kutubxonasida saqlanadi. Ikkinchi asrda yashagan Lukianing "Do'stlik deb nomlanmish asarida bu sadoqatli do'stlik bayoni berilgan. Biz ham tanishaylik, zarar qilmas: Do'ndamas va Amazak qiyomatli do'st bo'lishga ahd qiladilar. Qabila odatiga ko'ra bir-birlarining qonlarini yalaydilar va bu bilan ahdlarini

qat'iyashtiradilar. Ular shunday do'st edilarkim, go'yo ikki tanda bir jon va bir ko'krakda ikki yurak kabi... Ahdning to'rtinchi kuni ularga dushman hujum qiladi. Qabilaning malum bir qismi Sirdaryoni (u paytlarda daryo Tanais deb atalgan) kechib o'tib jon saqlaydilar. Do'ndamas ham daryodan suzib o'tadi. Do'sti Amazak esa qocha olmay, dushman qo'lida qoladi. U alam bilan faryod urib, do'sti Do'ndamasni yordamga chaqiradi. Do'stining nolasini eshitgan Do'ndamas o'ylab ham o'tirmay o'zini daryoga tashlab, u qirg'oqqa suzib o'tadi. Dushman uni nayzaga ro'para qilib o'ldirmoqchi bo'lganida "Oltin! deb hayqiradi. Bu so'z o'ziga tegishli asirni pul hisobiga qutqarib olishni anglatgani uchun uni o'ldirmay, lashkarboshiga ro'para qiladilar. Do'ndamas do'stini ozod etishni so'raydi. Lashkarboshi esa buning evaziga ko'p oltin talab qiladi. Shunda Do'ndamas:

-Boyligimizni talab ado qilding. Endi mening hech vaqom yo'q. Do'stimning o'rniga meni asir et, istagingni bajaray, - dedi.

-Nega boyligim yo'q, deysan? Sen bebaho boylig egasisan-ku? - dedi lashkarboshi unga sinovchan tikilib.- Sening shu ikki ko'zing - eng bebaho boyliging, shuni bilmaysanmi? Sen shu ikki ko'zingni do'sting uchun bera olasanmi? Biz ko'zlarini o'yib olaylik-da, sen do'stingni olib istagan tomoningga jo'na!

Do'ndamas bu shartga ko'ndi. Ko'zlarini o'yib olishayotganda do'stini qutqarishga erishgani uchun Xudoga shukr qildi. So'ng ikki ko'zi o'yib olingani holida do'stiga suyanib qabilasiga borib qo'shildi. Amazak do'stining bu holiga chidamadi. U ham o'zining ko'zlarini o'yib tashladi. Shunday qilib ikki do'st bir-biriga suyanib, do'st sadoqati haqida dostonlar aytib yer yuzi bo'ylab yurdilar... Asrlar o'tdi, urushlar o'tdi, qirg'inlar o'tdi... Ammo bu voqea unutilmadi. Afsus shuki, buni kam odam biladi. Shu bois farzandlar tarbiyasida bu ibrat chetlab o'tiladi.

Ehtimol ayrimlarga afsonalar ibratini tasir etmas. Unda bugungi voqealardan tinglaylik:

Bu voqea mazkur asar oqqa ko'chirilayotganda yuz berdi. Andijonning Buloqboshi qishlog'ida Muhammad Yusuf hazratlari yashar edilar. Alloh u zotni mag'firat aylasin. Jum'a xutbasini o'qiyotganlarida jonlari uzilibdi. Toshkentda Ismoil qori aka degan tabarruk zot yashaydilar. Alloh ul zotning umrlarini yanada barakali qilsin. Birodarlarining vafotini eshitishlari hamon yo'lga otlanganlar va marhumning farzandlaridan avvalroq yetib borganlar. Yuz yoshdan oshgan bu tabarruk otaxon janozaga bormasalar ham biron u kishidan gina qilmas edi.

Tog' oshib, necha yuz chaqirim yo'l bosish mashaqqati u kishiga to'sqin bo'la olmadi. Chunki zimmalaridagi birodarlik mas'uliyatini har narsadan ustun qo'ydilar. Ehtimol bu oldingi afsonaga nisbatan oddiyroq bo'lib ko'rinar. Lekin shubha yo'q-ki, lozim bo'lgan taqdirda jonidan ham kechishga tayyor turuvchi insonlar aynan shu iymon egalari kabi dirlar.

Mazkur voqeani aytib berishganda Abu Hurayra (r.a.) rivoyat qilgan bir sharafli hadisni esladim. Rasululloh (s.a.v.) shunday rivoyat qilgan ekanlar:

Bir kishi boshqa qishloqda turadigan do'stini ziyorat qilish uchun yo'lga chiqdi. Alloh taolo unga bir farishtani yubordi. Farishta undan:

-Yo'l bo'lsin, qaerga boryapsan? - deb so'radi.

-Shu qishloqda yashaydigan do'stimni ko'rgani ketyapman, - deb javob qildi u.

-Do'sting senga biror yaxshilik qilgan yoki undan biror manfaat ko'rgan bo'lsang kerak-ki, o'shaning xotirasi uchun borayotgandirsan? - deb yana so'radi farishta.

-Bizning oramizda manfaat yo'q. Men uni faqat Alloh taolo uchun yaxshi ko'raman, shuning uchun ham ziyoratiga ketyapman,-deb javob qildi u kishi.

Shunda farishta dediki:

-Men Allohning elchisiman. Alloh taolo meni atay senga yubordi. Sen uni xolisaniллоh sevganing uchun Alloh taolo ham seni sevadi.

Ne baxtki, Alloh sevgisiga musharraf bo'layotganlar bilan zamondoshmiz. Hadisi qudsiyda takid etilganidek: "Ey Odam farzandi! Menga ibodat qiluvchilarni do'st tutishing Mening senga bo'lgan muhabbatimni yaqin qiladi va ibodat qilmaydigan kishilarni yomon ko'rishing seni balolardan aritadi. Bayon etganimiz u ikki mo'tabar zot va ularga o'xshash birodarlarimizning xolis do'stliklari Allohning muhabbatini yanada yaqin qilganiga shu Hadisi qudsiydagi vada dalolat bo'la olar. Yana muhimi shuki, Allohning bu muhabbati faqat shu ikki zot va ularga o'xshash birodarlarimiz uchungina emas, balki boshqalar uchun ham manfaatlidir. Zero, Hadisi qudsiyda marhamat qilinurkim: "Ey Odam farzandi! Men yerdagi xalqlarga (osiylklari uchun) azob yuborishni xohlayman. Agar (o'sha vaqtda) Men uchun bir-birlari bilan do'stlashib, masjidlarimni obod qilib turganlarga va saharlarda Mendan istig'for so'rab o'tirganlarga nazarim tushsa, ulardan azobimni qaytaraman. Gunohkor bandalarimiz...

Gunohlarimiz uchun jazo olmayotganimizning sababi shu ekanda, a? Abu Dardo (r.a.) bu xususda aytgan ekanlarkim: "Bir musulmon banda o'zi uxlab yotgan vaqtida gunohi kechiriladi. Buni eshitib Ummi Dardo so'rabdilar: "Bu qandayin gap-ki, o'zi uxlab yotsa-yu, gunohi kechirilsa? Javob beribdilar: "Bir kishining do'sti kechasi turib tahajjud namozini o'qib, Alloh taolodan o'zining va do'stining ham gunohini kechirmog'ini so'radi. Shu duosi tufayli Alloh taolo o'zining ham, do'stining ham gunohlarini kechirib yuboradi.

Ey ko'ngil! Eslab ko'r, duolaringda do'stingni tilga olasanmi? Uning hojatini ravo qilishni so'raysanmi? Dardiga shifo tilaysanmi? Uning gunohlarini mag'firat etmog'ini iltijo qilasanmi? O'zing uchun ko'p, bag'oyat ko'p narsalarni so'rashing tayin. Agar do'sting xastalansa shifo tilashing ham bor. Ammo... "do'stimning gunohlarini kechir, deb yolborishni unutib qo'ymaysanmi? Ehtimol uning gunoh qilishiga sen ham sababchidirsan? Ehtimol uni gunohdan asrash chorasini ko'rmagandirsan? Hamisha duoda bo'l, ey ko'ngil, Alloh do'stlaringning gunohlarini kechirsin!

Tilimizda "qiyomatli do'st, "oxirat birodari degan iboralar mavjud. Buning manosi: Allohning roziligi uchun bu dunyoda bir-birlariga chin, vafoli, sadoqatli do'st bo'lganlar qiyomatda Arshi Aloning soyasida soyalanib turisharkan. Payg'ambarimiz alayhissalom marhamat qilibdilar: "Mahshar kuni hamma mahshar maydoniga yig'ilganida barcha dahshatli qo'rquv ichida, barcha qaynoq ter ichida bo'ladi. Lekin bazi insonlar u kun Arshi Aloning soyasida, ko'kada ko'radigan yulduzlarimizdek yuksakda, nurdan bo'lgan minbarlarda yuzlaridan nur yog'ilib o'tirishadi. Kiyimlari nurdan, kursilari nurdan... Lekin ular payg'ambarlar emas, shahidlar emas.

"Ular kimlar, yo Rasulalloh! - deb so'rashdilar. Dedilarki:

"Ular bir-birlarini Alloh uchun sevgan kishilardir.

Ha, biz bir-birimizni Alloh uchun sevishlikka buyurilganmiz. Bunday sevish musulmonlarni yaqin birodarlikka, xuddi aka-uka kabi munosabatda bo'lishlikka chaqiradi. Rasululloh (s.a.v.) Allohning bu buyrug'iga to'la amal qilganlar. Musulmonlar Makkai mukarramadan Madinai munavvaraga hijrat qilishganda Rasululloh (s.a.v.) har bir muhojirni bir madinalik bilan birodar, yani aka-uka tutintirdilar. Yolg'iz hazrati Ali (karamallohu vajhahu) uchun madinalik topilmadi. Bundan hazrat Ali mayuslandilar. Shunda

Rasululloh (s.a.v.) "Sen men bilan birodarsan, dedilar. Ham amakivachcha, ham kuyov bo'lganlari holda endi birodarlikning qaror topishi eng buyuk sharaf edi!

O'sha onlarda Salmoni Forsiy (r.a.) Abu Dardo (r.a.) bilan birodar tutintirganlar. Salmoni Forsiy nasroniylikni, majusiylikni biluvchi tajribali kishi edilar. Bir necha muddat nasroniy ruhoniylar xizmatida ham bo'lganlar. Ulardan biri "Oxir zamon payg'ambari Hijozdan chiqadi, sen u yerga bor! - degandan keyin Makkaga undan Madinaga kelganlar. Abu Dardo esa "ashobi suffadan, kambag'al, ammo g'oyat tabarruk inson edilar. Birodarlik haqlariga qat'iy amal qilardilar.

Bir kuni Salmoni Forsiy birodarlarini ziyorat qilishga keldilarkim, birodar-birodarini ziyorat qilishning juda ulug' savobligi avvalroq aytili. Ziyoratga kelib, eshikni taqillatdilar Abu Dardoning zavjalari Ummu Dardo (roziyallohu anho) eshikni ochdilar. Ust-boshlari yamoq, eskirib ketgan... Uni ko'rib Salmoni Forsiyning yuraklari achishdi. U damlarda aslida hammalari kambag'al, ammo birining boshqaga yuragi achishsa, boshqasining naqadar og'ir ahvolda ekanini tasavvur qilavering.

-Bu qanday hol bo'ldi? - deb so'radilar Salmoni Forsiy.

Bechora ayol ko'zini yerdan uzmay xasta ovozda dediki:

-Sizning birodaringiz dunyoning bahridan o'tganlar. Dunyoga ahamiyat bermaydilar. Ro'zg'or uchun harakat qilmaydilar. Shu sababli men bu ahvoldaman.

O'ylamangki, Ummu Dardo shikoyat qilib, nolidilar. Yo'q, aslo! O'zlarining bu ahvollaridan rozilar, dunyoga ko'z tikkan emaslar... Och turarlar... sabr qilarlar...

-Birodarimning o'zlari qanilar? - deb so'radilar Salmoni Forsiy.

-Hozir keladilar, - dedilar Ummu Dardo.

Chindan ham ko'p vaqt o'tmay uy sohibi kelib, birodarlari bilan omonlashdilar. Dasturxon yozildi. Abu Dardo ovqatni mehmon tomon surdilar.

-O'zingiz o'tirmaysizmi, keling, birga yeylik, - dedilar mehmon.

Abu Dardo avvaliga bildirmay turdilar (nafl ro'zasini pinhon tutgan savob), Salmoni Forsiy hadeb qistayverganlaridan keyin:

-Ro'zadorman, - dedilar. -Siz o'tirmasangiz, yemasangiz, men ham yemayman, - dedilar mehmon.

Xullas, Abu Dardo birodarlarining izzati uchun nafl ro'zalarini buzdilar. Kech bo'ldi, namozlarini birga o'qidilar (uylari Masjidi nabaviyadan uzoqroq bo'lsa kerak). So'ng mehmonning o'zigagina joy to'shadilar.

-O'zingizga-chi? - deb so'radilar Salmoni Forsiy.

Abu Dardo uxlamay tuni bilan ibodat qilish ilinjida edilar. Mehmon: "Siz yotmasangiz men ham yotmayman, - dedilar. Abu Dardo noiloj yotdilar. Ammo bir ozdan so'ng turmoqchi bo'lganlarida Salmoni Forsiy yana qaytardilar. Subhi sodiqdan avvalroq Salmoni Forsiy turib, birodarlarini uyg'otdilar. Tahajjud namozini o'qishib, so'ng ikkovlari hazrati payg'ambarimiz (s.a.v.) masjidlariga yo'l oldilar. Namozdan so'ng Abu Dardo Payg'ambarimizga birodarlaridan shikoyat qildilar.

-Yo Rasululloh, ro'zador edim, birodarim ro'zamni buzdirdi. Kechasi ibodat qildirmadi.

Rasululloh (s.a.v.) Salmoni Forsiydan buning sababini so'radilar.

-Yo Rasulalloh, - dedilar Salmoni Forsiy, - ko'rsam, xotining ust-boshi g'oyat yupun, ro'zg'ori g'oyat xarob, turmushi haddan tashqari qashshoq.

Buni eshitgan hazrat Payg'ambarimiz uning muddaosini tushunib, dedilar:

-Ey Abu Dardo! Salmon haqdir. Sen nohaqsan. Salmon yana to'g'riroq bilur. Sening ustingda Allohning beaded haqqi bor. Albatta ibodat qilasan. Ammo senda oilangning ham haqqi bor. Xotining ham etiboringda bo'lishi kerak.

Oilaning haqqi haqida keyinroq fikr yuritarmiz, insha Alloh. Hozir oladigan ibratimiz: nafl ibodatlaridan ko'ra do'stning izzatini ado etish afzalroq ekan. Yani, "kim do'stini ezozlabdi, nafl ibodati savobini olibdi, deb tushunsak ham bo'lar. Ammo bu tushuncha nafl ibodatlarini butunlay rad etish manosida qabul qilinmasligi kerak. Agar ikki holat bir-biriga ro'para kelib qolganda do'st hurmati avvalroq ado etilishi kerak, deyilmoqchi.

Madinai munavvaradagi musulmon ahlining bir-birlari bilan birodar tutinishlari Qur'oni Karim oyatlariga amal qilishning bir ko'rinishi edi. Alloh taolo buyuradi:

"Mo'minlar hech shak-shubhasiz, og'a-inidirlar. Bas, siz ikki og'a-iningizning o'rtasini o'nqlab qo'yinglar! Allohdan qo'rqinglar.

Shoyad, U Zot tomonidan bo'ladigan rahmatga erishsangizlar.

Mazkur oyatni anglash uchun muhtaram ulamoning tafsirlariga murojaat qilsak: Oyati karimada "og'a-ini (boshqa tarjimalarda "birodar) deb tarjima qilingan so'z arab tilida birlikda "axun kalimasi bilan ifoda qilinib, ikki xil manoda ishlatiladi: 1. Aka-uka, yani tug'ishgan birodar manosida. 2. Do'st, og'ayni, yani tutingan birodar manosida. Ammo xuddi shu so'zning o'zi ko'plikda kelganda manosiga qarab yana ikki shaklda keladi: 1. "Ixvatun - tug'ishgan birodarlar. 2. "Ixvonun - do'stlashgan birodarlar. Qur'oni Karimning mo'jizaligini qarangki, mo'min-larning birodarligi haqida so'z ketganda tug'ishgan birodarlar manosidagi "ixvatun so'zi ishlatilgan va bu bilan mo'minlar xuddi tug'ishgan aka-ukalardek ekanligi takidlangan.

Islom tarixida bu oyati karimaga amal qilishning g'oyat go'zal namunalarini uchraydi. Shulardan biri Sad (r.a.) bilan Saidning (r.a.) do'stliklari haqidagi hikoyadir. Do'stlik ahdu paymoniga sodiq bu ikki sahoba jannat suyunchi xabariga yetishganlardan edilar.

Xotin olmayin umrlari sayohatlarda o'tgan. Sadning otalari - Umar makkalik kofirlardan edi. Sad o'n yetti yoshga to'lganlarida iymon keltirgan edilar. Saidning otalari Laye basralik, g'oyat to'g'ri va solih kishilardan edilar. Bu ikki do'st Diyori Bakr urushida shahid bo'lganlar. Hijratning qirq birinchi yilida jum'a peshin namozida janozalari o'qilib, dafn qilinganlar. Xullas, bu ikki do'st safar qilmoqni ixtiyor etib yo'llari Qulzum dengiziga tushib, kemaga o'tiradilar. Kemachi bularga jahl qilib: "Nima uchun bekor o'tiribsizlar, eshkak eshinglar! - deb eshkakni Saidning qo'lga tutadi. Filhol Sad turib: "Eshkakni men eshayin, deb kemachining qo'lidan eshkakni oladi. Said esa eshkakni o'ziga talab qiladi. Kema sohibi bu mehribonlardan birining mashaqqatini ikkinchisi o'ziga olayotganidan hayratga tushadi.

Bunga o'xshash voqealar bugungi kunimizda ham uchraydi. "Po'st mag'izga qandayin yaqin bo'lsa, do'st ham muhabbatda senga yaqin bo'lsin, degan hikmatning amaldagi ko'rinishlarini tez-tez uchratamiz.

Haj ziyorati oxiray deb qolgan, hamma yerlarda hojilarni kutib olish tadorigi boshlangan damda, Qurbon hayiti arafasida bir uyga o't tushdi. Yong'in qo'shninikiga ham o'tdi. Bu xonadon egalari ayni damda Haj ibodatida edilar. Endi tasavvur qiling: keksayib qolgan er-xotin ulug' ibodatdan qaytsalaru kuyib yotgan uylarini ko'rsalar! Xonadon sohiblarining farzandlariga Alloh sadoqatli do'stlarni bergan ekan. Do'stlar bu uyni bir necha kun ichida tiklash ahdini qildilar. Har kim imkoniyatidan ziyodaroq hissa qo'shishga harakat qildi.

Gap bu yerda faqat mablag' to'plashda emas. Do'stlarning barchalari yong'in soatidan boshlab, to uy qayta qurilib, hoji ota va hoji

ona kutib olinguniga qadar shu yerda bo'ldilar. Ish kun chiqardan to qorong'u kechgacha davom etdi. Do'stlar ustalar va mardikorlar safida xizmat qildilar. "Bitta kulchani ikkiga bo'lib, yarmini och odamga berganni "saxiy deb, o'zi yemay, hammasini muxtoj odamga berganni "saxiy do'st deb bil, deganlaridek, mahalla ahli shu kunlar ichi saxiy va beg'araz do'stlikning yaxshi namunasini ko'rdilar. "Yaxshi libos - tanga oroyish, yaxshi o'rtoq -jonga osoyish, deb bejiz aytmaganlar. Yana hazrati Alisher Navoiy yozadilarkim:

Har kim birov bilan do'st-yor bo'lsa, do'st-yorlik davosini qilsa, o'ziga ravo ko'rmaganni unga ham ravo ko'rmasligi kerak. Bazi narsalarni o'ziga ravo ko'rsa hamki, yoriga ravo ko'rmasligi lozim. Ko'p mashaqqatlardan kishi ruhiga alam yetadi. Jismu joni bunga toqat qiladi. Ammo bunday mashaqqat do'sti boshiga tushishini xayoliga ham keltira olmaydi. Mabodo xayoliga keltirgudek bo'lsa, dahshatdan hayoti so'nadi.

Yor uldurki, har nekim o'zig'a
Istamas, yorig'a ham istamagay.

O'zi istarki, yor uchun o'lgay,
Ani mundoq sharik aylamagay.

(Deyilmoqchikim: o'zi do'sti-yori uchun o'lmoqqa tayyor, ammo bu ishga do'stini sherik qilmaydi.)

So'fiy Oллоhyor hazratlarining tabiri bilan aytilsa, "sen Alloh taolo uchun birov bilan do'st tutinsang uni sut ustidagi qaymoqdek ko'rgin. Uni aziz joningcha, balki undan ham ortiqroq ko'rgin:

Tut ul do'stingni sut ustinda qaymoq,
Aziz joningcha ko'rgil, balki behroq.

Aytilganlardan murod shuki, do'stining kuygan uyini tiklashda xizmat qilganlarni Allohning birodarlik xususidagi amrini bajarganlar, demoqlik mumkin. Endi oyatning davomi, yani: "...ikkini og'a-iningizning o'rtasini o'nqlab qo'yinglar...

Hayotda eng qadrton do'st orasida ham kelishmovchilik, tushunmovchilik va buning oqibat o'laroq arazlash ham uchrab turadi. Banda xato va kamchiliklardan xoli emas. Ammo yo'l qo'yilgan xato Alloh uchun birodarlashgan ikki kishini bir-biridan ajratib yubormasligi kerak. Haqiqiy do'st birodarining aybini darrov kechira olishi shart. Bir og'iz xato gap uchun yoki

noo'rin harakat uchun ajralib ketadigan do'stning do'stligi haqiqiy emas ekan. Bazan jum'a namozlarida ham kuzatamiz: namozni yonma-yon o'qiydilar, namozdan so'ng esa bir-birlariga teskari qarab ketadilar. Alloh buyurgan bir ibodat bajariladi. Ikkinchisi esa unutiladi. Bir ibodat bajarilganini atrofdegilar ko'rib turishadi, ikkinchisi bajarilmayotganini ko'pchilik bilmaydi. Arazlashib

yurgan odamlar unutmastinlarki, bir-birlari bilan og'a-inidek bo'lish Alloh tomonidan farz qilinyapti. Bir-birlariga teskari qaradilarmi, bas, farz tark etildi. Abu Ansoriydan (r.a.) qilingan rivoyatga ko'ra Rasululloh (s.a.v.) shunday marhamat qilganlar: "Hech bir kishi o'z birodaridan uch kechadan ortiq arazlab yurmog'i halol emas. Ikkalasi to'qnashib, biri u yoqqa, ikkinchisi bu yoqqa yuz o'girib ketmasin. Ularning yaxshirog'i avval salom berganidir. Anas ibn Molikning (r.a.) amakivachchalari Hishom ibn Omir (r.a.) Rasulullohdan (s.a.v.) bu ibratni eshitganlarini rivoyat qilganlar:

"Hech bir kishining ikkinchi musulmon birodari bilan uch kechadan ortiq gaplashmay yurishi joiz emas. Shu ikkalasi shunday holatda bo'lgan davrda Haq yo'ldan chetlashgan bo'ladilar. Ulardan qaysi biri avval yaxshilik, mehr-shafqat qilish tomoniga o'tsa, gunohiga kafforat bo'ladi. Ular shunday gaplashmay yurgan holicha dunyodan o'tsalar, ikkalasi ham jannatga kirmaydi. Agar ulardan qaysi biri salom bersa, ikkinchisi javob qaytarmasa (alok olmasa), salom berganiga farishta va javob qaytarmaganiga esa shayton javob qaytaradib Ёќ.

Mazkur sharafli hadisda arazchilarning jannatga kirmasligi haqidagi takidni unutmastigimiz kerak. Birodarlarning uch kundan oshiq arazlab yurishlari mumkin emasligi haqida yana boshqa hadislar ham qayta-qayta takid etiladi. Hatto Abu Xarosh Sulamiydan rivoyat qilingan hadisda o'z birodari bilan bir yilgacha arazlashib yursa, go'yo uning qonini to'kkan bo'ladi.

Bir mahallada ikki do'st yashardilar. Ikkovlarining yoshlari yetmishdan oshgan. Agar yigirma yashar do'stlar arazlashsa tushunish mumkin: ularning hayot tajribalari kam, qiziqqonlar. Bugun bir do'st yo'qotsalar ertasiga boshqasini topishlari mumkin. Ammo yetmish yoshda do'stni yo'qotish?! Arazlash uchun bittagina hazil kifoya qilgan. Atrofdagilar ularni yarastirish uchun ko'p harakatlar qilishdi. So'fiy Oллоhyor yozadilarkim:

Xudoning buyrug'idan toysa nogoh,
Birodarlik o'shaldir qilsang ogoh...

Demoqchilarkim, Alloh taolo uchun tutingan do'sting bexosdan Allohning buyurganidan qaytib yo'ldan chiqsa, uni bu buzuq ishdan ogohlantirib to'g'ri yo'lga qaytargin. Haqiqiy birodarlik ana shunday bo'ladi, degan hikmatga amal qilib, ulardan biri uyida maxsus ziyofat uyushtirdi. Masjid imomini ham taklif qildi. Imom bu ikki arazchi qariyaning ahvolidan bexabar, qavmning iltimosi bilan ikki musulmonning arazlashuvi durust emasligi haqida maruza qildi. Ziyofat yakun topgach, arazchi qariyalardan biri sohibi ehsonga вЂњSen menga aql o'rgatish uchun chaqirdingmi?вЂќ - deb dag'dag'a qila ketdi. Xullas, ular yarashishmadi. Kimki achchiq bo'lsa ham o'z do'stlari nasihatiga quloq solmas ekan, ishning oqibati pushaymonlik bo'ladi. Bu -tabib buyurgan dorilarni ishlatmay, parhez qilmay, o'zining ko'ngli tilagan taomlarni yegan, istagan ichimliklarini ichgan bemorning har daqiqa dardi og'irlashib ketgani kabidir. Oradan shu zaylda ikki-uch yil o'tib, oldinma keyin vafot etishdi. Birinchi do'st vafot etganida yarashishni xohlamagan kishi janozaga keldi. Shunda birodarlar dedilarki: вЂњBaribir kelar ekansiz, avvalroq kelib rozi-rizolik tilab qolsangiz bo'lmasmidi?вЂќ U kishi esa shunda ham past kelmay: вЂњU вЂњmening o'g'lim senikidan boyroqвЂќ deb kerilgan, shunisini kechira olmadimвЂќ, - deb izoh berdi. Uning bu izohi to'planganlarga shu darajada bemani tuyuldi-ki, ayrimlar undan yuzlarini o'girdilar ham. Arazlashishga sabab bo'lgan bahona birodarlariga ham erish tuyulgan bo'lsa, ularning qiyomatdagi ahvollari qanday bo'larkin?

Mana shu kabi voqealarni eshitganimizda, biron do'st topganimizda (alhamdulillah!) va yo'qotganimizda (astag'firullah!) fikr qilaylik:

-Ey ko'ngil, Allohning marhamati bilan topgan do'stingni yo'qotib qo'yding-a! Endi uni qiyomatda qayda va qay holda topgaysan? Do'stini yo'qotgan har bir odam ko'proq aybni unga yuklaydi. Sen unday qilma, ko'proq aybni o'zingdan qidir. So'nggi nafasing chiqquniga qadar do'stligingni qayta tiriltirishga ulgurib qol! Bir og'iz noxush gap uchun arazlab yurish evaziga do'zax otashini sotib olish nahot sen uchun lazziyroq bo'lsa?! Oliy himmatli, mard odam bir lahzada do'st orttiradi, pastkash esa necha yillik oshnaligini bir lahzada barbod qiladi. Sen pastkashlardan bo'lma. Farovonlikni istasang, baxtli onlaringda ham do'st-yor orttirib ol. Bilasanki, dengiz to'lib tohsa ham daryo suviga muhtojdir. Do'stlar qancha ko'p bo'lsa, kishiga balo shuncha kam yopishadi. Donodan so'rabdilar: вЂњDo'stlaringdan qay biri barchadan ko'ra senga ko'proq yoqadi? Qaysi birini chin birodarlik darajasiga yetgan, deb o'ylaysan? Qaysi biriga sening muhabbatning kuchliroq?вЂќ Donishmand javob berdikim: вЂњAyb qilsam

yashiradigan va uzr so'rasam kechiradigani menga yoqib tushadi...**В ЁК**
Bayon qilganimiz ikki qariya uzoq yillar o'zlarini bir-birlariga do'st deb bilganlar, ammo qalblarida do'st mehri yo'q ekanidan bexabar yashaganlar. Hatto muborak haj ibodatiga borganlarida ham Alloh ularning qalblariga do'st muhabbatini solmagan ekan, na iloj? Do'stning vasli ko'rar ko'zlarga rohat beradi. Ularning ko'zlari bu rohatdan benasib ekan.

В ЁК Yemaysan, ammo to'yasan, bu do'st mehridir **В ЁК**. Ular do'st mehri uchun yashadilarmi? Har kim aybsiz do'st qidiraversa, do'sti kamayib boraveradi, do'stlarini ranjitaversa, dushmanlari ko'payaveradi. Bu qariyalar umrlari davomida qancha do'st yo'qotib, qancha topdilar ekan? Har bir gulning tikoni bo'lgani kabi, har bir do'stning ham nuqsoni bo'lishi tabiiy. O'z do'stlarining xatolarini kechirmaslikning, ular yetkazgan zararni unutmaslikning odam uchun nima foydasi bor? U qanday insonki, o'z do'stining tavba va uzrini qabul etmasin va uni sevinch bilan qarshi olmasin!? Olijanob va mard odam og'ir kunlarda ham o'z do'stini tashlab ketmaydi. Har qanday shubha va gumonga asoslanib, o'rtoqlik aloqalarini uzmaydi, borish-kelish, salom-alikni kanda qilmaydi.

Arab fozillaridan Asmaiy yozadilar: **В ЁК** Bir kishini ziyorat qilib kirdim. U zot kichik bo'yra ustida o'tirar edilar. Surilib, yonlaridan joy ko'rsatdilar. Men bu iltifot uchun rahmat aytib dedimki: **В ЁК** Bo'yrangiz tor, men ham o'tirsam siz rohatsizlanasiz **В ЁК**. U zot dedilarkim: **В ЁК** Bir-biriga gapi to'g'ri kelmagan ikki kishiga butun jahon ham tanglik qiladi. Ammo do'stlar uchun bir qarich yer ham bemalol yetadi **В ЁК**. Arazlagan hollarida bu dunyoni tark etgan ikki qariyaga jahon torlik qildimikan?..

Do'stlarni bir-birlariga yaqinlashtiradigan narsa albatta, ziyoratdir. Yurilmagan yo'llar ustini tikan va butalar qoplagani singari ziyoratdan holi do'stlik yo'llari ham berkilib qoladi. Birov sizga **В ЁК** Do'stimni bir-ikki oydan beri ko'rganim yo'q **В ЁК**, - desa biling-ki, u muhabbatli chin do'st emas ekan. Abu Hurayra (r.a.) rivoyat qilgan sharaflil hadislardan birida Rasululloh (s.a.v.) shunday marhamat qilganlar: **В ЁК** Bir kishi do'stini ziyorat qilsa, Alloh taolo unga: **В ЁК** Hayoting yaxshi o'tsin! Yaxshi ish qilding va jannatdan o'zing uchun joy hozirlading **В ЁК**, - deydi **В ЁК**. Bu sohada ham biz bazan meyorini orttirib yuboramiz yoki meyorga yetkazmaymiz. Rasululloh **В ЁК** Do'stingni unga malol keladigan darajada ezoz-ikrom qilma **В ЁК**, deb takidlaganlar.

В ЁК Guliston **В ЁК** da shunday bayon etiladi:

В ЁК Abu Hurayra (r.a.) Payg'ambarimizning (s.a.v.) xizmatlariga kelur erdi. Ul hazrat dedilar: **В ЁК** Ey Abu Hurayra, har kun kelmagil, to o'rtada muhabbat ziyoda bo'lg'ay va sohibi dillar debdurlarkim, agarchi oftobning muncha husn va xo'blig'i bordir, ammo hech kishi ani do'st tutmog'usidur, oning uchunkim, har kunda ko'runodur va lekin qishdakim aksari vaqt mahjubdur, bu jihatdin hammaga mahjubdur **В ЁК**.

Bayt:

Do'stni ko'rmakka bormoq ayb emas,
Lek bezor o'lg'udek ko'b bormog'il.
Qil muhabbatni fuzun kam-kam borib,
Behuda ortuqsan, ranji axtarmag'il.

Odamlar bir-birlariga muhtojdirlar. O'zaro munosabat paydo qilmasalar, ishlari notamom qoladi. Odamlarga aralashmasdan yolg'izlikni sevish, jamiyatdan qochib yurish aqlga muvofiq ish emas. Shuning uchun ham yangi bir odam bilan do'st bo'lgan musulmonning darajasini Alloh jannatda bir daraja yuqori ko'tarajagi hadislarda takid etilgan. Yolg'izlikni sevishni nojoiz dedik. Ammo hayotda yana bir haqiqat bor - nodon do'stdan ko'ra yolg'izlik yaxshiroq. Nodon odam do'st bo'la turib shundayin kunlarni boshingga soladiki, keyin dushmanlarning changalidan mutlaqo qutulib chiqa olmasan. Biz do'stni nodon deymiz, holbuki, so'rab-surishtirmay har qanday odam bilan do'stlashib unga ko'nglidagi borini ochib tashlaydigan odamning o'zi nodon emasmi? Nizomiy hazratlari yozganlar:

Jonning dushmani ham gar bo'lsa dono,

Aqlsiz do'stdan u yuz karra alo.

Tilimizda **В ЁК** sirdosh do'st **В ЁК** degan atama bor. Har kishining yuragini qon qiluvchi siri bo'lganidek, bu sirni oshkor qilishga arzigulik do'sti ham bo'ladi. Do'st-ku, siringizni eshitar, oshkor qilmaslikka vada ham berar, ammo vadasiga vafo qilishidan ko'ra xiyonat qilishi aniqroqdir. Do'stlarni bir-biridan ayirib yuboradigan sabab ham aynan shundadir.

Do'stiga sir aytib so'ng pushaymon bo'lganlarning soni-sanog'i yo'q. Holbuki, janobi Rasululloh (s.a.v.) **В ЁК** bir odamni juda yaqin olmaginki, u vaqti kelib dushman bo'lib qolishi mumkin **В ЁК**, deb ogohlantirganlar. Yaqin deb bilingan do'st dushmanga aylanmasa ham aytilgan sirga xiyonat qilishi kutilajak holdir. Bir shogird donishmand ustozidan so'ragan ekan:

-Mening juda muhim sirim bor. Shu sirimni dilimda saqlayverib, yuragim qon bo'lib ketdi. Ishonchli do'stinga sirimni aytib, yuragimni bo'shatib olmoqchiman.

Bu gapni eshitib ustoz dediki:

-Sening siring faqat o'zinggagina kerak, boshqa odamga sira ham kerakmas. Modomiki o'z siringni o'zing saqlay olmasang, boshqa kishi o'ziga mutlaqo keragi bo'lmagan bu sirni qanday saqlay oladi? Agar u siringni oshkor qilsa bunga taajjub etishning hojati bo'lmaydi.

Tabiatda hamma narsa o'z xili bilan yuradi. Oqqush qoraqushga qo'shilmaydi. Odamlar garchi bir xilga o'xshasalar-da, birining qalbi oqqush ikkinchisini qoraqush kabidir. Hattoki uchar

qushlar ham o'z sheriklarini ajratishni uddasidan chiqar ekan, insonning bunga amal qilmog'i mutlaqo shartdir. Shu bois shoir deydi:

Bo'lmagil har kimga joning birla, yo'ldosh o'zgadir,

Aytmagil har kimsaga siringni, sirdosh o'zgadir.

В ЁК Yaxshi libos - tanga oroyish, yaxshi o'rtoq - jonga osoyish **В ЁК**, deganlaridek yaxshi o'rtoqni boshqalar orasidan ajrata olish ham aqlga bog'liq. Aqlli odamlar uchun do'stlikdan azizroq hech narsa yo'qdir. Do'stlik beg'araz bo'lmog'i shart. Lekin do'stlik tilsimlarining kaliti sirni saqlay bilishdadir. Uchinchi odam bilmagan sir yoyilmaydi. Chunki uchinchi odam eshitgan sir albatta og'izdan og'izga o'tadi va buning oldini olish mumkin emas. **В ЁК** Behayo do'stlikka yaramas, nopok sirdoshlik **В ЁК**, degan maqol bor. To'g'ri, barchani nopoklikda ayblash yoki gumon qilish aqlan emas. Ammo orada shayton borligini ham unutmay, do'stimizni asrash uchun unga sirimizni aytmay qo'ya qolganimiz ming marta afzal.

Ayrim birodarlarimiz **В ЁК** hech kimga aytmang, faqat sizga aytyapman buniv **В ЁК** deb sirlarini bir necha kishiga malum qilib qo'yadilar. To'rt kishidan uchtasi vadaga vafo qilib, sirni sir tutib yuraveradi. Ammo bittasi **В ЁК** gullab **В ЁК** qo'yadi. Oqibatda sir

aytgan odam to'rttala do'stidan gumonsirab yoki ranjib yuraveradi. Bazan esa shu bahona bo'lib, do'stlik iplarini uzib yuboradi. Do'stlik masalasida ayrim fikrlar borkim, bahslashishga ham to'g'ri keladi. Masalan, siz bu fikrga qanday qaraysiz: To'g'ri va sof odamlar darrov do'st bo'lib oladilar va bu do'stlik uzoqqa cho'ziladi. Fitnachi odamlar darrov do'stlasha olmaydilar, munosabatlari tez va oson buziladi. Yaxshi va olijanob odamlar bir soatli ko'rishish va bir kunli tanishish muddatida odamning ko'nglini ovlaydilar. Ammo ko'pdan beri tanishish va do'st bo'lish orzusida yurgan ichi qora odamlardan marhamat va lutf ko'zlab bo'lmaydi. Ular qo'rquv va g'araz tufayli do'st bo'lishni istaydilar.

Albatta bu hikmatni rad etmaymiz. Ammo hayotda buning aksiga ko'proq duch kelamizkim, bizning etirozimiz ham aynan shunda. To'g'ri va sof odamlar, olimlar agar do'stlashsalar ularning birodarliklari arzimagan narsaga buzilmaydi. To'g'ri va sof odamlarni, olimlarni biz вЂњzukko, donovЂќ kabi sifatlar bilan ulug'laymiz. Demak, ular yaxshini yomondan tez ajrata olish qobiliyatiga egalar. Biroq, yangi tanishlarini yaxshi odam ekanini bilib tursalar ham u bilan do'stlashishga shoshilmaydilar. Nega? Ehtiyotkorlikni bu qadar oshirib yuborishlari o'rinlimi? Yoki atroflaridagi fitnachilarning so'zlariga quloq tutadilarmi? Axir fitnachilar bilan do'st bo'lgan kimsa eng yaxshi odamlar haqida ham yomon fikrda bo'ladi, vaqt o'tganidan so'ng esa ko'zlari moshday ochiladi-yu, ammo pushaymon yeyishdan o'zga chorasi qolmaydi. Ariq va soy suvi dengizga quyilgunga qadar shirin bo'ladi. Qardoshlik va do'stlik muhabbati razil odamlar oraga tushgunga qadar mustahkam bo'ladi. Afsusli yeri shundaki, razillar aynan yaxshilar orasiga tushadi. Yaxshilar bir-birlarini anglab yetgunlaricha razillar birlashib oladilar. Hayotda kuzatamizki, yaxshilik maqsadidagi do'stlikka mustahkam poydevor qo'yilguniga qadar razillar o'z birodarliklari saroyini qurib bo'ladilar. To'g'ri, ularning bu saroylari mustahkam emas, tez orada buzilib ketadi. Biroq, buzilguniga qadar yaxshi do'stlik imorati poydevorini ham yakson qilishga ulguradi. Ko'ramizki, olimlar olimlar bilan, shoirlar shoirlar bilan do'stlasha olmaydilar. вЂњGadoning dushmani gado bo'ladir вЂќ, deyilganidek, bu donolarning o'zaro do'stlashuvlariga ehtimol vujudlariga egalik qilayotgan hasad o'ti yo'l qo'ymas? Razil va xoin odamlar ulardagi aynan shu xastalikdan foydalanishar? Razil va xoin odamlarning do'stligi ilonni tarbiya qilishdek bir narsa. Ilon egasi uni qanchalik yaxshi parvarish etsa ham payt kelganda bir kun o'z egasining yorug' kunini qorong'i kechaga aylantiradi, o'z vafosizligini namoyon etadi. Sahar shabadasi ham do'stlikka o'xshaydi. Agar u gulzor tomondan essa - xushbo'y bo'ladi. Najosat bor yerdan essa - badbo'y bo'ladi. Tarixda bunga misollar oz emas. O'tgan asrda Stalin zamonidagi repressiyalarda jon berganlar, azob chekkanlar do'stlik libosidagi aynan shunday razillikning qurboni bo'lgan edilar. Donolar bir-birlarini himoya qila olmadilar, demak, ular chin do'stlik maqomiga yeta olmagan ekanlar. Aldamchi do'stlikning fojiasi shunda. Bir masal borkim, uni unutmamak, foydadan holi bo'lmas:

Bir mamlakatdagi o'rmonzorda kalamush bilan mushuk yashar edi. Ovchi kelib daraxt ostiga dom qo'yib ketgan edi, nodon mushuk ilinib qoldi. Kalamush bu holni ko'rib quvondi. Ammo ko'zi o'ziga tashlanishga tayyor turgan latchaga tushdi-yu, yuragi orqasiga tortib ketdi. Tepaga qarasa-ki, boyqush ham uni mo'ljallab turibdi. Nima qilsin? Oldinga yursa mushukka yo'liqadi, orqaga qaytsa, lacha parchalab tashlaydi, indamay qotib tursa, boyqushga yem bo'ladi. Kalamush o'ziga o'zi debdi: вЂњBalo dengizi tug'yonga kelib, falokat to'foni hujumga tayyor turibdi. Shunga qaramay men noumid bo'lmasligim, o'z hayotimni qutqarishim kerak. Bu holda menga aqldan yaxshi madadkor yo'qdir. Aqlli hech qachon sarosimaga tushmasligi, qalbini dahshat va tashvish chulg'ab olmasligi kerak. Endi men uchun yagona najot yo'li balo zanjirida talpinib yotgan va mening yordamimga muhtoj bo'lgan mushuk bilan kelishib do'stlashmoqlikdir. Balki u o'z vaziyatini nazarda tutib, mening so'zlarimga quloq osar va dushmanlikdan voz kechib, xalos bo'lish uchun maslahatlarimni qabul etar. Shunday qilib, har ikkalamiz balodan omon qolamiz вЂќ. Shu qarorga kelgan kalamush mushukdan: вЂњhol-ahvoling qalay? вЂќ - deb so'radi.

-Bunday balo domiga tushib, aziyat chekkanlarning ahvoli qanday bo'lar edi? - dedi mushuk zorlanib.

-Shu vaqtga qadar sen g'amnok bo'lsang men quvonar edim. Hozir ikkimizning boshimiz xatarda qoldi. Men bu balodan qutulish uchun sendan najot kutaman va shu sababli sen bilan do'stlashmoqchiman. Agar menga tegmasang yoningga borib bandlaringni kesib seni ham ozod qilaman. So'zlarimga ishon, xayrixoh ekanimga shubha qilma. Hech kimga ishonmaydigan va hikmat egalaringning so'zlariga quloq solmaydigan kishi baxtli hayot kechirolmaydi. Aql egalari ishni paysalga solib, fursatni qo'ldan bermaydilar. Kema darg'aning sayi harakati bilan sohilga yetib borgani kabi xalos topishimiz ikkovimizning harakatimizga bog'liq bo'lib turibdi.

-Sening bu gaplaring aqlga muvofiq, - dedi mushuk quvonib. - Taklifingni bajonu dil qabul etaman va o'lgunimcha sendan minnatdor bo'laman. Deburlarki, dushman sen bilan sulh tuzishni istasa, uning uzatgan qo'lini qaytarma.

-Men hozir sen tomon yuraman. Oldingga borganimda meni mehribon do'st kabi kutib ol, dushmanlar inoqlashganimizni ko'rib, jo'nab qolsinlar. Shundan keyin men tuzoq iplarini qirqishga kirishaman.

Mushuk bu maslahatni ham qabul qilgach, kalamush ishga kirishdi. Lekin mushukning nazarida u imillayotganday ko'rindi.

-Men sening ahdingga ishongan edim, - dedi toqati toq bo'lgan mushuk. - Dushmanlarning ko'zdan yo'qolib, xatardan qutulganingdan keyin so'zingdan qaytmoqchimisan?

-Men bergan so'zimning ustidan chiqaman, lekin o'z jonimni saqlashni undan afzalroq deb bilaman. Men dushmanlarim hujumidan sening yordaming tufayli omon qolish maqsadida do'stlashishga majbur bo'ldim. Ammo sening u dushmanlarimdan ham xavfliroq ekaningni unutganim yo'q. Men tahlikani dav etib, xatarli ishlarning oldini olish uchun sen bilan murosa qilyapman. Bu vaqt va zamon taqozosi bilan qilingan bir tadbirdir. Har ishning o'z yeri, har soatning o'z hukmi bordir. Vaqtini o'tkazib, mavqeini qo'ldan bermoqlik kaltabinlikdir. Men to'ring iplarini qirqaman, xotirjam bo'l. Ammo bitta asosiy bandni jonimning garovi sifatida saqlab turaman. Uni sen o'zing bilan ovora bo'lib, menga hujum qilishdan ko'ra muhimroq tashvish bilan mashg'ul bo'lib, o'z joning g'amini yeb qolganingdagina kesaman. Ana shunda sen banddan ozod bo'lasan, men ham sendan qutulaman.

Kalamush aytganini qildi. Bir ozdan keyin uzoqda ovchining qorasi ko'rindi.

-Endi oxirgi bandni kesmoq, vada ustidan chiqmoq vaqti yetdi, - dedi kalamush.

Mushukning ko'zi ovchiga tushishi bilanoq o'lim vahmida qoldi. Kalamushni ham unutdi. Shunda kalamush oxirgi bandni qirgdi.

Mushuk jonholatda sapchib, daraxt ustiga chiqib ketdi. Kalamush esa iniga kirib ketdi. Ertasi kuni inidan mo'ralab mushukni ko'rib qoldi.

-Ey do'stim, nega mendan xavfsiraysan? - dedi mushuk. - Qo'lga kiritilgan eng yaxshi noyob narsani - do'stligimizni saqlab qolish kerak. Yaqinroq kel, men yaxshiligingni qaytaray, muruvvat qilib, mardligim va saxiyeligimni ko'rsatay.

Mushuk sadoqatdan qancha gapirsa ham kalamush inidan chiqmay dedi:

-Zoti dushman bo'lib, do'stlikdan lof urganlarga, dilida g'anim, tilida do'st bo'lganlarga ishonish mumkin emas.

Bu kabi masallarni o'qib yoki eshitib hayron qolasan kishi: hayvonlarning aqli yetgan narsalarga ongli jonzot hisoblanmish

odamlarning aqli kaltalik qilib qoladi. В Ўн Sen o'zingga do'st axtar, dushman o'choq boshidagi Ўн, degan hikmatga ko'pincha ahamiyat berilmaydi. O'sha - o'choq boshidagi manfaat do'stligi ko'zni shamg'alat qilib qo'yadi. To'shagi tikandan, yostig'i ilondan bo'lgan odamning uyqusi shirin bo'la olmaydi. Inson idrokining rasoligi, aqli komilligining alomati shuki, do'stlaridan biri dushmanlik qilsa yo'g'urulanib ketsa bunga qarshi darhol chora ko'radi. Masalan, avval yumshoq so'z bilan, so'ng esa keskir so'zlar bilan ko'ngli yaralanadi. Bu ham tasir etmasa, qo'l bilan uriladi. Bu ishlar yomonlik emas, ezgulik sanaladi. Shunda ham to'g'ri yo'lga kelmasa, u bilan do'stlik ipi uziladi. Chunki u fosiqdir. Fosiq bilan bo'lish esa yaxshi amallarni buzadi. Lekin u birodariga Allohdan hidoyat tilab, yaxshi duolar qilaveriladi. Xuddi Robi'a (rahmatullohi alayho) kabi. Robi'a doim munojotda der ekanlarkim: В Ўн Ilohi! Dunyoda menga neki berar bo'lsang, dushmanlarga ham ber! Oxiratda menga ne berar bo'lsang, do'stlarga ham bergil! В Ўн Bu duoda chuqur mano va hikmat bordir. Yani bu dunyoda menga berilgan hidoyatni, ishqni, iymonni... dushmanlaringa ham bergilkim, ular zalolatdan chekinsinlar. Oxiratda esa menga jannatni ravo qilsang, do'stlaringa bergin bu nematni, deyimloqchi.

Istiqlol sharofati tufayli Stalin zamonidagi yashirin hujjatlar bilan tanishish imkoni tug'ildi. Fojia shunda ekanki, o'sha yillari qamalgan va otib tashlanganlarga o'z do'stlari xolis xizmat qilib berganlar. Abdulla Qodiriyi olaylik. Stalin o'zbekda shunday yozuvchi borligini bilarkanmi? Yoki В Ўн O'tgan kunlar Ўн kitobini o'qibdimi? Usmon Nosir qamalganda Sibirdan turib Stalinga xat yozgan ekanlar, o'zlarining aybsiz ekanliklarini isbot etmoqchi bo'lganlar. Maskovdagi idora bu xatni tekshirish uchun Toshkentga yuborgan. Toshkentdagi В Ўн do'stlar Ўн Usmon Nosir ijodida xalq dushmaniga xos mazmun borligini takidlab javob yo'llaganlar. Bu o'rinda biz xusumat, hasad, g'araz kabi illatlar bulog'idan suv ichib semirgan do'stlikka duch kelyapmiz. Do'stlarning hasadi dushmanlarning xusumatidan yomondir, degan hikmat shu o'rinda o'z isbotini topadi. Ha, dushmanlardan ko'ra bazi do'stlar kishiga ko'proq zarar yetkazadilar. Chunki dushmandan ehtiyot bo'lasan, ammo do'stlarning dushmanligidan qutulish qiyin. Deydilarkim: В Ўн Chin dushmanning agarchi hiylasi tasir etmadi, makr etmakdin ojiz bo'lsa, hiyla bila do'stlik maqomig'a kelur va ondin so'ng do'stlig' surati bila andoq ishlarni qilurkim, hech bir dushman oni qila olmas Ўн.

Nojins kishining zarar yetkazishini o'ylamay, u bilan do'stlashib, suhbatdosh bo'lib yurgan odamning oxiri g'am-hasratga giriftor etilajagiga tog'am - Mirzakalon Ismoilning qamalishlariga doir hujjatlar bilan tanishib chiqqanimda ishongan edim. Tog'am bu voqealar haqida gapirishni istamasdilar. Meni ajablantirgan narsa -yozuvchiga qarshi tuhmat qilganlar uning eng yaqin do'stlari edi. Urush yillari yelkama yelka turgan do'stlar tuhmatdan o'zlarini tiya olmaganlar. Men u kishilarni tanir edim. Chunki tog'am qamoqdan chiqqanlaridan keyin ham ular bilan do'stliklarini uzmaganlar. Ularning tuhmatchi ekanliklarini bilganlar, ammo ayblarini kechirganlar. Tog'am-ku, do'stlikni saqlab qolish uchun kechirgandirlar. Ammo Alloh kechirganmikin? Donolar derlarkim: В Ўн Dushman so'zi bilan do'st paymonin sindurding. Ko'rgilkim, kimdin judo bo'lub, o'zungni kimga yetkurding? В Ўн Tuhmat bilan qamalganlar ozodlikka chiqqanlarida tuhmatchi do'stlari ularning ko'zlariga qanday qaradilar ekan, men shu haqda ko'p o'ylayman.

Jaloliddin Rumi hazratlari В Ўн Oqil do'sti bor kishining oynaga muhtojligi yo'q Ўн, degan ekanlar. Biz shuni sal o'zgartirib: В Ўн Xo'in do'sti bor kishining dushmanga muhtojligi yo'q Ўн, desak qalay bo'larkin? Avvalgi yili marhum bir yozuvchining tug'ilgan kuni nishonlandi. So'zga chiqqanlar unga do'st bo'lganlarini qayta-qayta takid etib u zotni sharafladilar. Ammo birortasi В Ўн biz u bilan do'st edik, oshxo'rlik yoki pivoxo'rlik qilardik, afsuski qamaladigan paytda uni himoya qila olmadik Ўн, demadi. Holbuki hujjatlar dalolat berishicha, do'stlarini himoya qilishga urinish u yoqda tursin, Yozuvchilar uyushmasi safidan o'chirish chog'ida yomonlaganlar, В Ўн xalq dushmani Ўн degan tamg'ani o'zlari tayyorlab berganlar. Bu do'stlar o'sha davrda qo'rqoqlik qilgandirlar yoki boshqa sabab bo'lgandir. U zamon uchun ayblashimiz balki noto'g'ridir. Endi nohaq jabr ko'rgan do'st vafot etgan, tuhmatchi, bevafo do'stlarning umri ham kuz yaprog'iga o'xshab bir shoxchaga ilinib turibdi. Shuni fahm etib, tavba qilib olsalar bo'lmasmikin? Ularni tavba qilmaganlari uchun ayblasak to'g'riroq bo'lar. Biroq, bizning maqsadimiz ularni ayblash va hukm chiqarish emas. Bu voqealarni eslashdan maqsad - yoshlarning etiborini tortishdir. Chunki bu kabi xoinliklar faqat bitta zamonga xos emas va butunlay yo'q bo'lmaydi. Bugunmi yo'rtagami boshqacha ko'rinishda yuz ochaveradi.

В Ўн Kimki birodariga, uning moliga yoki obro'siga zulm yetkazgan bo'lsa, dinor va dirham bo'lmagan kunda undan olinmasidan avval u bilan rozilashib olsin. Agar yaxshi amallari bo'lsa, zulmiga yarasha yaxshiliklaridan olinadi. Yaxshi amallari bo'lmasa, mazlumning gunohlaridan olinib, unga beriladi, keyin u do'zaxga tashlanadi Ўн. Sharafli hadisda bayon etilgan bu haqiqatni unutmamak durust bo'lar edi.

Do'stlar orasidagi muhabbat zanjiri qanchalik baquvvat bo'lmasin, uni uza oladigan kuch topiladi. Unutmamak kerakki muhabbatli, chin do'stlarning birodarligini ko'rolmaydigan hasadgo'ylar ko'p uchraydi. Ular shunchaki hasad qilib yura qolishmaydi, do'stlik zanjirini uzishga obdon urinishadi, uza olishsa rohatlanishadi. Bular В Ўн Faqat Alloh uchun birovni do'st tutish va faqat Alloh uchun dushman tutish Alloh taolo huzurida sevimli amallardandir Ўн, deyilgan hadisi sharifdan bexabar johil insonlardir. Yana bir masalning o'rnini keldi:

Bir orolda maymunlar saltanati mavjud edi. Podshohi aqli va dono edi. Biroq, umrining bahori o'tib, qarilik iskanjaga ola boshlagach, o'rnini peshanasida saodat nuri porlagan yoshga berib o'zi dengiz qirg'og'idagi o'rmonda yolg'iz yashay boshladi. U bir anjir daraxtiga chiqib, mevalaridan tanovul qildi. Shu onda bir anjir mevasi uzilib, suvga shaloplab tushdi. Bu ovoz maymunga yoqib qolib, dam-badam anjir uzib suvga tashlayverdi. Shu suvda bir toshbaqa suzib yurgan edi. U maymun tashlagan anjirlarni tutib maza qilib yegach: В Ўн Maymun bularni atayin men uchun tashlayapti, tanish bo'lmagani holda shunchalar mehribonlik ko'rsatyaptiki, agar do'stlashib olsam muhabbati bundanda ziyoda bo'lar Ўн, deb o'yladi-da, qirg'oqqa chiqib u bilan salomlashdi. Shu tarzda do'stlashib qoldilar.

Maymun podshoh bo'lganini, endi kuchdan qolib shu yerlarda hasrat bilan yashayotganini so'zlab berdi. Toshbaqa unga mahliyo bo'lib qoldikim, hatto uy-joyiga, xotini huzuriga qaytishni ham unutdi. Toshbaqaning xotini erining uzoq muddat xabarsiz ketganidan xavotirlanib, qo'shnisiga arz qildi. Qo'shnisi: В Ўн Men eshitdimki, ering bir maymun bilan do'stlashib, unga maftun bo'libdi, uning vaslini sening hijroningdan ustun tutib, sening firoqing olovini uning visoli suvi bilan o'chirib yuribdi. Endi g'am chekishning foydasi yo'q. Bir tadbir ko'rish kerakkim, toki ering uyga qaytsin va u do'stni unutsin Ўн, deb maslahat berdi. Ular o'ylay-o'ylay В Ўн maymunni o'ldirishdan boshqa chora yo'q Ўн, degan qarorga kelishdi. Toshbaqaning xotini В Ўн og'ir xastaman Ўн, deb eriga xabar jo'natdi. Toshbaqa maymunga uzr aytib uyiga kelib qarasaki, xotining aholi og'ir. Toshbaqa savol so'rasa javob bermaydi. Shunda qo'shnisi:

-Bemorning dardi og'ir, maymunning yuragini pishirib yemasa o'lishi tayin, - dedi.

Toshbaqa В Ўн Maymunning yuragini qaerdan topsam ekan? В Ўн-degan tashvishda g'amga botdi. Qancha o'ylamasin biron-bir chora topa olmadi. Oxiri do'sti bo'lmish maymun yodiga tushib, o'ziga o'zi dedi:

-Agar oramizdagi do'stlik va sadoqatga qaramay unga xiyonat qilsam, bu nomardlik va insofsizlik bo'ladi; agar ahdda vafo qilaman desam uyimning tayanchi, hayotimning bezagi, farzandlarimning panohi bo'lgan xotinimdan ajralib qolaman. Toshbaqa anchagina vaqt bu haqda o'ylab iztirob chekdi, shubha va taraddud ichida qolib, nihoyat xotining ishqi g'alaba qildi. Oqibatda u vafodorlikdan voz kechish qaroriga keldi. Lekin yaxshi bilardiki, maymunni bu yerga keltirmagunicha maqsadiga erisha olmaydi. Shu bois u maymunning huzuriga qaytdi. Ayрилиq o'tida yonayotgan maymun uni zo'r quvonch bilan kutib olib, oilasining hol-ahvoli, xotining sihat-salomatligi bilan qiziqdi.

-Sening firoqing o'ti shunday yondirdiki, ularni ko'rishdan biron ham lazzat ololmadim, - dedi toshbaqa. - Yolg'izliging esimga tushganida tinchligim buzilib, dunyo ko'zimga qorong'u bo'lib ketdi. Men seni uyimga olib ketgani keldim. Marhamat qilib borsang, farzandlarimni ko'rib, xasta xotinimni tashrifing bilan sevintirsang, qavm-qarindoshlarim, do'st-oshnalarim oldida boshim osmonga yetardi. Ular tayyorlab qo'ygan ovqatlarini oldingga qo'yib, mehmondo'stlik burchlarini bajarsalar. Shu bilan menga ko'rsatgan mehningga yarasha oz bo'lsada javob qaytara olganimdan quvonardim.

Bu gaplarni eshitgan maymunning qalbiga hayajon oralab dedi:

-Sen do'stlik va ahd-vafoda meni o'zingdan ustun qo'yma, chunki oramizdagi do'stlik ipini sen boshlab mustahkamlading. Endi men o'z ko'nglimning hoqoniman. Sen bilan do'stlashganimdan beri baxt-saodat ichida yashayapman. Agar bu do'stlikning rohatbahsh shamoli mening dimog'imga avval yetganda edi, bunday tinch, baxtli yashashning shunday shirin ekanligini bilsaydim, foydasi oz, g'ami esa ko'p hukmdorlikdan allaqachonlar voz kechib yuborgan bo'lardim. Saxovat ahli nazarida do'stlik g'oyat bebaho narsadir. Haqiqiy do'stlarning biri mashriqda boshqasi mag'ribda bo'lsa ham baribir, bir-birlarini eslab va shundan tasalli topib yashayveradilar. Dengiz safariga chiqqan odam o'ziga hamroh axtaradi, lekin do'stlari bunday safarga bormasalar, buni dushmanlik deb hisoblamaslik kerak. Sen mehmonga taklif qilyapsan, mayli boray, ammo suvdan suzib o'ta olmasligimni bilasanmi?

-Xotiring jam bo'lsin, seni o'z orqamda ko'tarib, manzilimga olib boraman. Sen u yerda rohat va farog'atda yashaysan, - dedi toshbaqa.

Xullas, maymun o'z taqdirini do'stiga topshirdi. Toshbaqa uni orqasiga mindirib, suvda suzib ketdi. Yarim yo'lga yetganda o'ylanib qoldi va o'z-o'ziga dedi:

-Olimlar вЂњvafosizlik va xiyonat, ayniqsa etiborsiz xotinlar uchun qilingan xiyonat eng katta gunohdirвЂќ, deyдилar.

Ulug'larning yana shunday gapi bor: вЂњOltinning sofligini o'tda, hayvonning kuchini og'ir yuk ortilganda, insonning to'g'riligini omonatga xiyonat etmasligida bilsa bo'ladi. Har holda donolar xotinlarning makr-xiyalariga aldanmaslikni alo ko'radilar.

Toshbaqa bir-biriga zid shunday fikrlarga bandi bo'lib, suv o'rtasida to'xtab qoldi. Uning qalbida qandaydir g'alayon mavjudligini sezgan maymun shubhalanib, do'stidan so'radi:

-Senga nima bo'ldi, fikrlar ummoni seni g'arq etyaptimi yo meni ko'tarish senga og'irlik qilyaptimi? Sezib turibman, seni vijdon azobi qiynayapti. Sen shu damda o'z nafsing bilan kurashyapsan.

-Vijdonim qiynalayotgani rost. Sen biznikiga birinchi marta boryapsan. Xotinim kasal, uy ivirsib yotgandir, seni ko'ngildagidek kutib ololmasam-chi, deb ko'nglim g'ashlanyapti, - dedi toshbaqa sir boy bermaslikka tirishib.

-Sening nomusli va to'g'ri bo'lganliging, meni dildan do'st hisoblab yaxshi niyat bilan uyingga olib borayotganligingni bilib turibman. O'tirishimiz qanchalik sodda, dasturxon qanchalik faqirona bo'lsa, suhbatimiz shunchalik samimiy va shirin bo'ladi. Sen bu borada tashvish tortma.

Toshbaqaga bu dalda maqul kelganday bo'lib yana bir oz suzdi-yu, o'y-xayolga berilib, yana to'xtadi. Bundan maymunning shubhasi ortdi va o'ziga-o'zi dedi:

-Do'stidan shubha qilgan odam o'sha soat tadbir ko'rib, unga nisbatan ehtiyotli munosabatda bo'lishi, o'zini saqlashi kerak. Agar shubhalari to'g'ri chiqsa, muqarrar bo'lgan falokatdan o'z jonini saqlab qolgan bo'ladi. Gumoni xato bo'lib chiqsa, ehtiyotkorlik qilgani uchun uni koyimaydilar.

Yurak tez-tez o'zgarib turgani uchun uni qalb* deb ataganlar. Har daqiqada u nima xayolga tushadi, niyati yaxshimi yo yomonmi bilib bo'lmay qoldi.

Maymun xayolidan shularni o'tkazib do'stidan вЂњYana nima bo'ldi, yana xayol daryosiga cho'kdingmi?вЂќ - deb so'radi.

-Nima qilay, xotinimning kasalligi, sihatining yomonligi xayolimni parishon qilmoqda.

-Do'stlik hurmati uchun yuragingdagi tashvishni ochiq aytding. Xotiningning dardiga nima davo ekan, tabiblar aytishibdimi?

вЂњQalbвЂќ - arab tilida вЂњaylanuvchiвЂќ, вЂњo'zgaruvchiвЂќ degan manoni anglatadi.

-Tabiblar shunday darmon belgilashganki uni topish mumkin emas.

-U qanday darmon ekan?

-Maymunning yuragi...

Buni eshitib maymunning quti uchib ketdi. Ko'z oldi qorong'ilashdi va o'ziga-o'zi dedi:

вЂњMeni bu dahshatli falokatga sudragan narsa badnafslilik va ochko'zlik bo'ldi; meni bu qo'rqinchli girdobga shuhratparastlik va harislik soldi. Endi esa meni hiyla va tadbirdan boshqa hech narsa xalos eta olmaydi. Agar orolga borsam, o'lishim muqarrar, o'zimni bu yerda suvga tashlab qochmoqchi bo'lsam, cho'kib ketishim tayin...вЂќ

Maymun shu fikrlarni xayolidan kechirib, do'sti toshbaqaga dedi:

-Olimlar aytubdirlarki, xalqqa zarur bo'lgan ozuqani yashirgan shoh, birodarlarining baxtli bo'lishi uchun kerak narsani bermagan do'st вЂњshohвЂќ va вЂњdo'stвЂќ degan nomlarga noloyiqdirlar. Men xotiningni qanchalik sevishingni bilaman, uning sog'ayib ketishi uchun zarur bo'lgan darmonni bermaslik do'stlikka xiyonat qilish demakdir. Menga xotiningning dardi malum, chunki bizning maymun xotinlarda ham bunaqa xastalik tez-tez uchrab turadi. Biz ularga yuraklarimizni berib, davolardik. O'zim esa yuraksiz ham yashab yuraverardik. Agar sen buni sohilda aytganingda, men yuragimni o'zim bilan birga olib chiqar edim. Qarigan vaqtimda menga yurakning sirayam keragi yo'q. Qaytaga uni ko'tarib yurish men uchun ortiqcha yuk, ortiqcha zahmat. Chunki shu paytgacha yuragimga qo'ngan g'am-anduhlar juda ham ko'p. Kecha yuragimning dardi bir oz kamaysin, deb joyidan olib qo'ygan edim.

-Yuragingni nima uchun uyda qoldirding? - deb so'radi toshbaqa ajablanib.

-Maymunlarda bir odat bor: yaqin do'stlarining uylariga ketayotganlarida mehmondorchilik yaxshi va shirin o'tsin, deb g'am va alam maskani hisoblangan yuraklarini o'zlari bilan olib bormaydilar. Aqlli va iffatli xotiningning xastaligini eshitgach, yuragimni olib borsam ezilib ketadi, deb o'yladim.

Albatta, sen mening do'stligimni sinagansan, shuning uchun so'zlarimga ishonasan. Lekin sening qavmu qarindoshing v Ёњqalin do'st bo'lsa ham o'ziga uncha zarur bo'lgan narsani bizga berishni istamayapti Ёќ, deb badgumon bo'lishlari mumkin. Yaxshisi, orqaga qaytaylik-da, yuragimni olvolaylik.

Toshbaqaga bu taklif maqul kelib, orqaga qaytdi. Qirg'oqqa yetishgach, maymun bir-ikki sakrab, daraxt ustiga chiqib ketdi... Masaldan olinajak mano shuki, do'stlik saroyini tiklash oson emas, tiklangan saroyini turli ofatlardan saqlash undanda qiyinroq. Ofatlardan biri aynan shu - fitna. Fitna bo'ronini har tomondan kutish mumkin. Avval aytganimizdek, o'zini do'st deb tanitgan uchinchi odam, farzandiga do'sti tomonidan yomonlik kelishidan gumonsiragan ota-ona yoki masalda bayon etilgan - xotin. Do'st libosidagi fitnachilar hayotda boshqalarga nisbatan ko'proq uchraydi. Ularning qo'llarida g'araz qilichi bordir va bu qilich ayovsizdir. Farzandini do'stidan ayirmoqchi bo'lgan ota-onada g'araz yo'q. Farzandlari tanlagan do'st ayrim hollarda ota-onalarga yoqmasligi mumkin. Ota-ona bu do'stga baho berishda ko'proq uning ota-onalari nufuziga etibor qaratadilar. v ЁњYaxshi oilaning farzandi, demak, u bilan albatta do'stlashish kerak Ёќ. Ularning hukmi shu! Bu hukm ko'pincha aldatchi xulosalarga asoslangani uchun xato bo'ladi. Ota-onalar o'zlarining kaltabinliklari va o'jarliklari tufayli farzandlarini yaxshi do'stlardan ham ayirib yuboradilar. Avval nasihat bilan, so'ng qat'iy talablar bilan, agar bular tasir etmasa biron-bir ig'vo bilan bo'lsa-da, muddaolariga erishadilar. Farzandlarining do'stdan ayrilishi ota-ona uchun jiddiy masala bo'lib tuyulmaydi. Farzandlari biron tugmacha yoki ro'molcha yo'qotsalar achinishlari mumkin, ammo do'stni yo'qotsalar achinmaydilar. Bu yo'qotish o'zlarining harakatlari natijasi bo'lsa v Ёњshu boladan uzoqlashganiga shukr Ёќ, deb quvonadilar.

Azizlar, ehtimol shu onda sizning ko'nglingizda ham o'g'lingiz yoki qizingizning biron do'stiga nisbatan norozilik bordir. Siz ularni ajratib yuborishga kirishishdan avval o'ylab ko'ring: u yigit (yoki qiz) sizning farzandingizga do'st bo'lishga noloyiq ekan. Xo'sh, o'zingizning farzandingiz boshqalarga do'st bo'lishga loyiqmi? Siz farzandingiz do'stini uzoqlashtirish choralarini o'ylab o'tirganingizda qaysidir xonadon sohiblari sizning farzandingizni noqobil do'st hisoblab o'z farzandlaridan nari qilishni o'ylashayotgandir? Ikki do'stni ajratishdan avval yana o'ylaylik: farzandimiz bundan keyin yana shunday do'st topa olarmikin? Ehtimol biz yomon deb tamg'a bosayotgan do'st darajasidagi boshqa odamga umr bo'yi muhtoj bo'lib yashar? Albatta farzandlarimizning do'st tanlashlariga etiborsiz qaramasligimiz kerak. Ularning bu borada tajribasiz ekanini unutishga haqqimiz yo'q. Ammo biz bilan yoshlar o'rtasida yigirma-o'ttiz yillik farq borligini ham unutmaylik. Zamonlar o'zgaruvchan ekanini ham hisobdan chiqarmaylik. v ЁњMening yoshligimda do'stim shunday ediv Ёќ, degan gaplar bugunga to'g'ri kelmay qolishi mumkin. Xotinlar masalasi nihoyatda nozikdir. Ikki bo'ydoq do'st orasida xotin paydo bo'lgach, ularning munosabatlarida islohgacha ehtiyoj seziladi. Oila qurgan yigit (yoki qiz) etiborini ko'proq oilaga qarashga majburdir. Endi oila mustahkamligi birinchi galdagi vazifaga aylanadi. v ЁњXotinni deb ulfatlarimdan voz kechmayman Ёќ deyidiganlarni kaltafahmlikda ayblashga haqqimiz bor. Deyarli har kuni choyxonadami yo boshqa yerdami ulfatchilik qiladiganlarni uchratib turamiz. Qanchadan qancha kelinchaklar bu serulfat, oilaga mehsiz erlarni tun yarmigacha kutadilar. Avval o'zlari so'ng farzandlari bilan kutadilar. Bu odamlar do'stlikni faqat ulfatchilik, ziyofatdan iborat deb yanglishadilar. (Bu haqda tarbiya bobida ham bir-ikki so'z aytgan edik, yodingizdami?) Yigitlar uylanishgandan keyin yangicha ulfat tashkil qiladigan bo'lib qolishdi. Bu ulfatda (v Ёњgap Ёќda) juft-juft bo'lib o'tirish. Do'stligimiz yanada mustahkamlansin, ahli ayollarimiz ham bir-birlari bilan bordi-keldi qilishsin, degan maqsadlari yaxshi. Ammo ulfatchilik tarzi yaxshi natija bermaydi. Ayollar orasida turli g'iybat chiqishi tabiiy.

Undan tashqari orada shaytoni lain borligini unutmaslik shart. Birgina behayo ko'z qarashi bilan do'stlikning ham, oilaning ham buzilib ketishiga misollar yetarli. Do'st qanchalik sodiq va solih bo'lmasin, u xotin uchun nomahram sanaladi. Do'stlikni saqlamoqchi bo'lgan birodarlar shu hukmga itoat etsalar maqsadga muvofiqdir (Oila bobidagi misolni eslaylik). Do'stlarni ajratishga urinish alohida shaxslar orasida uchrab turishiga guvoh bo'lamiz. Xuddi shu narsaning davlatlar orasida ham mavjudligiga uncha etibor bermaymiz. Holbuki ikki davlat do'stligining buzilishidan turli fojialar tug'iladi. Ikki shaxs do'stligining buzilishidan shu ikki kishining o'zi yoki atrofidagi besh-o'n yaqinlari aziyat chekishlari mumkin. Biroq, ikki davlat do'stligining buzilishidan minglarcha odamlarning yostig'i qurigani haqida tarixdan misollar ko'p. Afsus shuki, ikki shaxs va ikki davlat orasidagi do'stlikni buzishga urinish tirik jarayon, hech qachon o'lmaydi. O'ldirib ham bo'lmaydi. Kishining ehtiyot choralarini ko'rib yurishdan o'zga chorasi yo'q. Avvalgi jamiyatda v Ёњxalqlar do'stligiv Ёќ degan iborani ko'p ishlatardik. Shu do'stlikni mustahkamlash uchun tadbirlar o'tkazilardi. Harbiy xizmatda ekanimda yuz bergan bir voqeani hanuz unutmayman. Tabiiyki, qismda turli millat farzandlari bor edi. Kunlarning birida v ЁњXalqlar do'stligiv Ёќ kechasi o'tkazildi. v ЁњKlub Ёќ deb atalmish binoda xalqlar do'stligiga hamdu sanolar aytilardi, tashqarida esa o'sha turli millat farzandlari mushtlashardi. Oddiy mushtlashuv pichoqbozlik va qotillik bilan yakun topdi. v ЁњXalqlar do'stligiv Ёќ tantanasining ertasiga ikki askar yigitning murdasi uyiga jo'natildi. Bu fojiaga v Ёњmilliy ziddiyatv Ёќ degan tamg'a bosilmadi. Oddiy bezorilik natijasi sifatida qaralgani to'g'ri edi. Chunki boshlangan mushtlashuv zamirida millatni himoya qilish tushunchasi yo'q edi. Lekin lozim bo'lib qolgan taqdirda unga milliy adovat libosini kiydirish ham mumkin edi. 1988 - 89 yillarda Farg'ona va O'sh fojialarida shunday bo'ldi. Turklar ko'chirib kelingandan keyingi yillar davomida o'zbek va turk yigitlari orasida ozmi-ko'pmi mushtlashuv bo'lib turgan. Qotillik ham bo'lgandir. Ammo unga hech kim milliy adovat nuqtai nazaridan qaramagan edi. Masala aybdorlarni jazolash bilan yakunlangan edi. Lekin o'sha yillarga kelib qaysi bir nodon siyosatchilarga kattaroq janjal ko'tarish kerak bo'lib qoldi va oddiy to'qnashuvga siyosiy to'n kiydirildi. Oqibatda yuzlab begunoh odamlarning qoni to'kildi. Eng muhimi - dini bir, urf-odatlari bir xalqlarning qoni to'kildi. Necha yuz yillar davomida yonma-yon yashagan o'zbek yigiti bilan qirg'iz yigiti bir-biri bilan mushtlashmaganmi? Yigitchilikda bo'ladigan gaplar bular. Janjal kuchaygan taqdirda biri ikkinchisiga pichoq tortib yuborgan bo'lishi mumkin. Biroq to'da-to'da bo'lib uylarga bostirib kirmaganlar, begunoh odamlarni o'ldirmaganlar, chaqaloqlarni tiriklayin o'tga tashlamaganlar. Sovet Ittifoqi degan mamlakat parchalanishini oldini olish uchun biz tomonlardagi xalqlarni bir-birlariga yovlashtirish zarur edi. Bu fitna shu sababli amalga oshirildi. O'zbekiston tomonning og'ir-bosiqqligi, mulohazakorligi tufayligina fitnachilarning maqsadi to'la amalga oshmadi. Ular o'zbeklar O'shdagi birodarlarining himoyasiga tashlanishadi, degan umidda edilar. Agar shunday bo'lganda inson qonlari daryo bo'lib oqishi mumkin edi.

v ЁњXalqlar do'stligiv Ёќ degan narsa albatta yaxshi. Ammo buni risoladagiday amalga oshirish mumkin emas. Nazarimizda xalqlar orasidagi ayrim shaxslar o'zaro do'st bo'lishlari mumkin. Ularning bu do'stligi xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirib turadi. Ayrim xalqlar orasida ayrim odamlarning bir-birlariga yovligi biz xohlayotgan o'zaro do'stlik yo'liga hamisha to'g'on bo'lib turadi. Shu bois o'sha ayrim shaxslar do'stligini ehtiyot qilishimiz zarur. Albatta kaminaning bu fikri sizlarda bahs uyg'otishi mumkin. Shu bois bu mavzuni millat va din haqidagi bobda davom ettirsak, degan taklifim bor.

Demak, mavzuga qaytamiz: farzandingiz sizdan v Ёњu o'rtog'imni yomon dedingiz, bunisini yalpoq dedingiz, qanaqa odam bilan do'st bo'layin? Ёќ deb so'rab qolsa, javobga tayyormisiz? Ehtimol mana bu javob siz bilan bizga maqul kelar?

-Kim do'stlariga nisbatan makru hiyla bilan ish tutsa, do'stlari unga nisbatan yolg'onni v Ёh tuhfab Ёk qiladilar.

Dushman bilan yaqinlashgan kishidan uning do'stlari qochadilar. So'rasalarkim: v Ёh Nomunosib do'stdan qanday qutulmoq mumkin?v Ёk Javob buldirkim: v Ёh Ziyoratiga bormaslik va biron narsa so'ramaslik bilanv Ёk. So'rasalarkim: v Ёh Jondin ham shirinroq narsa nadir?v Ёk Javob buldirkim: v Ёh Beg'araz do'st suhbativ Ёk. So'rasalarkim: v Ёh Kimlar bilan do'stlashmoq mumkin?v Ёk Javob bundaydir:

-1. Qanoatli kishilar. 2. O'z so'zidan qaytmaydiganlar. 3. Olim va hunar sohiblarini qadrlyadiganlar. 4. Xiyonat va nomardlikdan nafrat etadiganlar. 5. Yaxshi xulqli nazokatli kishilar. 6. G'azab vaqtida o'zini qo'lga oladiganlar. 7. Saxiylar. 8. Badaxloq odamlarning ayshu ishrat majlislaridan nafratlanuvchilar bilan do'st bo'luvchilarning yo'li saodat yo'lidir.

So'rasalarkim: v Ёh Kimlar bilan do'stlashib bo'lmaydi?v Ёk Javob bundaydir:

-Aqldan mahrum bo'lganlarning maslahatlariga amal qiluvchilar; o'z so'zida turmaydiganlar, so'zidan tonuvchi va yolg'onchilar; buyuk ishlardan sabri tez tugaydiganlar va kam xafsalalilar; nonko'rlar; yoshining kattaligiga qaramay odob qonun-qoidalariga amal qilmaydiganlar; osonlikcha xiyonat yo'lga tushib ketadiganlar; pulni hayotdan afzal ko'ruvchi ochko'zlar; pastkash va maishatparastlar; hayosizlar; odamlardan sababsiz shubhalanib, ularni asossiz gunohkor qiluvchilar; o'zining zaif ekanini bila turib uzoq safarga chiqishni qasd qilganlar; o'z muallimini va boshlig'ini tanimagan xudpisandlar bilan do'st tutingan kimsaning yo'li oqibat xorlik yo'lidir.

Yana deylikki:

-Sening ranj-alamingni barobar tortadigan, shodligingga shodlanadigan do'stni izlasang, bunday do'st noyobdir. Senga o'zini do'st qilib ko'rsatadigan tasodifiy do'stlar esa juda ko'p.

So'rasalarkim: v Ёh Agar haqiqiy do'st topish menga muayassar bo'lsa, u bilan qanday muomala qilishim kerak?v Ёk Javob bundaydir:

-Haqiqiy do'st topsang, unga sodiq bo'l, xiyonat qilma. Hamma vaqt do'st tutmoqni odat qilgil. Zeroki, har kishining do'sti ko'p bo'lsa, ayblari shuncha sir tutilur va fazilati ko'payur. Har kishiki do'stlarini yod qilmasa, do'stlari ham uni yod qilmaslar va oqibat bu kishi do'stsiz qolg'usidir. Ko'nglingdagi do'stlik muhabbatini so'zing va ishing bilan ko'rsat, do'sting sirin oshkor qilishdan saqlan, uning yonida boshqalarni g'iybat qilma. Do'sting muhtojlikda qolsa, darhol unga yordam ber. Unda biror ayb sodir bo'lsa, holi joyda (!) aybini aytib, yumshoqlik bilan nasihat qil. Agar do'sting sening aybingni aytib, nasihat qilsa, undan minnatdor bo'l. Har do'stkim, sendan hech sababsiz ginali bo'lsa, uning do'stligidan tama qilmagilki, jahonda undan aybliroq va undan yomonrog'i bo'lmagay. Bilgilkim, jahonda aybsiz odam bo'lmas, ammo sen salohiyatli, muruvvatli bo'l, chunki bundaylarning aybi kam bo'lurligi ayon. Agar do'stingning ko'ngli hech gunohsiz sendin qolsa, uni qaytarishga mashg'ul bo'lmagil, bunday tamagir va kekchi do'stdan uzoqroq bo'lganing maqulroq. Bund

Abu Hamza Bag'dodiy debdurlarkim: v Ёh Faqirlarni do'st tutish og'ir, unga siddiqlardan boshqalar chiday olmaydilarv Ёk.

Hayotda ko'p uchratamizki, moldorlar qashshoqlarni xush ko'rmaslar. Shu bois kishi o'ziga teng do'st axtargani maqul. Ammo kishi moldor - boy bo'lsayu qashshoqdan do'sti bo'lsa bu uning alo fazilatidir. Bilmoq joizkim, do'st uch xil bo'ladi: 1) do'st; 2) do'stning do'sti; 3) dushmaningning dushmani. Dushman ham uch xil: 1) dushman; 2) do'stingning dushmani; 3) dushmaningning do'sti. Endi bilgilkim, do'stlarning do'stlari ham sening do'stlaringdir. Ehtimolki, uning o'sha odamga do'stligi sening do'stligingdan aloroqdir. Agar do'sting sening dushmaningni sevsa, bunday do'stdan ehtiyot bo'l. Chunki bunday do'st dushman tarafidan senga yomonlik qilishdan ham andisha qilmaydi. Sening do'stingga dushman bo'lgan do'stdan ham parhez qilganing yaxshi. Har do'stki, sening dushmaningni dushman tutmas, uni do'st demagil.

Yana so'rasalarkim: v Ёh Tasodifiy do'stlar bilan qanday munosabatda bo'lish lozim?v Ёk Javob bundaydir:

-Tasodifiy, yuzaki do'stlarga ham qo'lingdan kelganicha yaxshilik qil. Lekin siru asroringdan xabardor etma, ular yonida har xil so'zlar so'zlashdan tilingni tiy. Ularni yuzaki muomala bilan quvontirib, ko'ngillarini o'z tarafingga moyil qil. Ulardan biri ko'rinmay qolsa, boshqa shunday oshna-og'aynilardan uning ahvolini so'ra, biroq, mol-ashyolaringni ularga ayتما, o'z ahvolingni yashirin tut. Senga yarim do'st bo'luvchilar ham uchraydi. Ular bilan ham soz munosabatda bo'l, ular sendan yaxshiliklar ko'ravergach, yakdil do'st bo'lishlari mumkin. Iskandardan so'rabdilarkim: v Ёh Oz sarmoya bilan buncha ko'p mulkni qanday qo'lga kiritdingiz?v Ёk Iskandar debdiki: v Ёh Rahmdillik bilan dushmanlarimni qo'lga oldim, ahda vafo bilan do'stlarimni yo'lga soldimv Ёk. Yaxshi va yomon odamni bir-biridan ko'ngil ko'zi ila ajrata olgil. Ularning ikkoviga ham do'stlik qilgil. Yaxshilarga ko'ngil bilan, yomonlarga til bilan do'stlik qilgilkim, toki ikki toifaning ham do'stligi senga nisbatan paydo bo'lsin. Chunki kishining hojati bir do'st bilangina ravo bo'lmas. Bir vaqt bo'lurkim, kishining hojati z

-Aqlsiz odamlar bilan hargiz do'st bo'lmagil. Aqlsiz do'st aqlli dushmandan yomonroqdir. Chunki aqlsiz do'st shundoq ishlar qilurki, aqlli dushman uni qila olmas. Muruvvatli, ilmli va vafoli kishilar bilan do'st bo'lsang ularning fazilatlarini tufayli sening ham shuhrating ortgay. Bemuruvvat, mehr-shafqatsiz, ilmu hunarsiz kishilar bilan birga bo'lgandan ko'ra tanholik afzalroqdir. Do'stga loyiq odamni ikki narsadan bilsa bo'lur. Biri - do'stining holi tang bo'lib qolsa yoki qashshoqlikka yuz tutsa undan yuz o'girmaydi, balki molini undan darig' tutmaydi. Yana biri - do'sti vafot etganidan so'ng ham do'stining farzandlari, qarindoshlarini va do'stlarini ziyorat qilib turgay. Ularga yaxshilik qilgay. Do'stining mozoriga borib ziyorat qilgay, xasrat chekib duolar qilgay. Rivoyat qilurlarkim, Suqrot hakimga v Ёh Butparast bo'lv Ёk deb ko'p aytdilar. Ul zot v Ёh Bundoq so'zni ayurvedin til chekinglarkim, men hargiz ul ishni qilmasman!v Ёk - dedilar. Suqrot hakimni o'ldirishga olib bogardilar. Shogirdlari zorlig' qilib so'radilar: v Ёh Ey hakim, endi o'limga ko'ngil qo'yimshsiz, ayting, si

Biz talab qilayotgan do'stga xos fazilatlarining barchasini bir so'z bilan v Ёh Iymonv Ёk deb atasak adashmaymiz. Yani iymon egasidagina shu fazilatlar jam bo'ladi. Demochimizki, do'stni iymon egalari safidan qidiring. Iymonsizlar safida faqat dushmanni uchratasizkim, bu haqda adovat va dushmanlik bobida keyinroq alohida fikr yuritimiz.

Iymon osmoni ostidagi pokiza do'stlikning eng yuksak namunasi Alloh va banda orasidagi do'stlikdir. Tilimizda v Ёh valiuv Ёk atamasi bor. Bu v Ёh yaqinv Ёk (do'st) demakdir. Ko'plik manosida v Ёh avliyov Ёk bo'ladi.

Kishi ishq, iymon va taqvoda yuqori darajaga erishsa Alloh uni o'ziga do'st tutadi va unga malum karomatlar beradi. Tarixda hayoti biz - bandalarga ibrat bo'luvchi avliyolar ko'p o'tgan. Bu darajaga yetish ko'pchilikka haddan ziyod og'ir va mashaqqatli tuyulishi malum. Biroq v Ёh Tasavvuf haqida tasavvurv Ёk kitobining muallifi shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining yozishlaricha, Allohning do'sti bo'lish oson ekan. Buning uchun avvalo, Allohga iymon keltirish; ikkinchidan esa, taqvodor bo'lish, yani Allohning aytganini qilib, qaytarganidan qaytib yashash lozim ekan. Kimning iymonida zarracha xato bo'lsa yoki Allohning ko'rsatmalari asosida emas, o'zganing yo'lida hayot kechirsa yoxud o'z-o'ziga yo'llanma tuzib olsa, u odam Allohga do'st bo'lish baxtidan mahrumdir. Allohga do'st bo'lganlarga esa ikki dunyo saodatining xushxabari bor. Ular iymonlari va

This is not registered version of TotalDocConverter

taqvolari sababli jannatga doxil bo'ladilar. Bunga Arof surasidagi **В Ё Ogoh bo'linglarkim**, Allohning valiylariga xavf yo'qdir va ular xafa ham bo'lmaslar **В Ё k**, oyati karimasi, Yunus surasidagi **В Ё Ularga hayoti dunyoda ham, oxiratda ham xushxabar bor...** **В Ё k** oyati karimasi dalil ekanini eslaylik. Hadisi qudsiyda Alloh taborak va taolo shunday marhamat qilgan: **В Ё Ey Odam farzandi, sen ixlos va solih amal bilan menga xizmat qil. Zero, Men yaxshi amallar bilan xizmat qiladigan kishini do'st tutarman va unga ham solih insonlarni xizmatkor qilib qo'yaman...** **В Ё k** Yana marhamat qilinadiki: **В Ё Ey Odam farzandi, kimki mening biror do'stinga adovat va dushmanlik qilsa va unga ozor bersa, bilgilki, unday banda Menga qarshi jang qilishga qasdlanganlardan bo'ladi** **В Ё k**.

Ha, Alloh do'stlarini ana shunday himoya qiladi. Shu bilan birga talab etadiki: **В Ё Ey Odam farzandi, Men seni do'st tutuvchiman. Shunday ekan, shul do'stligim tufayli meni ham o'zingga do'st tutgil** **В Ё k**. **В Ё Do'st tutgil** **В Ё k** - yani toat-ibodat qil, deyilmoqchi. Imom Muhammad G'azzoliy hazratlari ibodatlarni ikki guruhga bo'ladilar. Birinchisi - biz bilgan va bajarayotgan odatdagi ibodatlar: namoz, ro'za, zakot, haj... Ikkinchisi - odat tarzidagi ibodatlar. Odat tarzidagi ibodatlarning eng yoqimlisi - do'stlik, birodarlik qilishdir. Odat tarzidagi ibodatlarning eng ajoyibi Alloh uchun sevmok, Alloh uchun do'stlik rishtalarini bog'lamoqlikdir. Alloh uchun ziyorat qilishning ulug' savobi bor. Ikki kishi bir-birlarini Alloh roziligi uchun yaxshi ko'rsa, shubhasiz har ikkovi Allohning sevgisiga musharraf bo'ladi. Islom dinimiz odamlarni bir-biridan yiroqlatishga undamaydi, aksincha, do'stlikni hayotda barqaror qilishga undaydi. Bu yo'lda yurishni istamaganlar esa Hadisi qudsiyda takid etilganiday Allohga qarshi qasdlanganlar toifasidan bo'ladi va shunga yarasha jazo oladi.

Valiylik darajasiga yetish baxtiga musharraf bo'lganlarning ham o'zlariga yarasha dardlari bo'lgan. Robi'a Adaviyya (rahmatullohi alayho) ko'p yig'lar edilar. **В Ё Nechun ko'p yig'laysan? В Ё k** -deb so'radilar. Dedilar: **В Ё Alloh bilan uns (do'st) tutdim. Ayriqliqdan qo'rqg'aymen. Mabodo o'lim vaqtida nido kelmasinkim: В Ё Sen bizga kerak emassan В Ё k**, - deb **В Ё k**. Bu holat har birimiz uchun ibratdir. Bundan anglashimiz lozimki, Alloh bilan banda orasidagi, xususan banda bilan banda orasidagi do'stlikni avaylashni, asrashni bir nafas ham unutmashimiz zarur. Robi'a doim zorlik bilan bo'zlar edilar. Aytishar edikim: **В Ё Ey oxirat ayoli, ko'ryapmizki, zohir bir kasaling darding yo'q. Nechun bunday bo'zlaysan? В Ё k** Javob qildilarkim: **В Ё Zohir xastaligim yo'q, ammo botinimda bir dard bor, tabiblar bu dardni hech muolaja qila olmagaylar. Dardimning darmoni do'st visolidir** **В Ё k**.

Do'st visoli - Allohning jamolini ko'rish baxtidir. Alloh jamolini bandalariga faqat jannatdagina ko'rsatadi. Do'stlik burchini yaxshi ado etishimiz barobarinda barchalarimizga Do'st visolini ko'rish nasib etsin, degan umidda duoga qo'l ochaylik:
Yo Rabbimiz Alloh! Bizlarga do'st nematini berganing uchun O'zingga behisob ravishda shukrlar qilamiz. O'zingga sig'inib so'raymizki, bu nematingni bizlardan olib qo'yma. Qiyomatga qadar tug'ilib, yashaydigan zurriyodlarimizni ham shu bebaho nemat bilan nematlantir. Do'stlarimiz bilan oramizdagi sadoqatni bardavom va mustahkam ayla.

Do'stlarimizning xonadonlariga qut va barakot berib, hamisha O'z panohingda asra. Do'stlarimiz orasida bemorlar bor, ularning dardlariga O'zing shifo ber. Do'stlarimiz orasida hojatmandlar bor, ularning hojatlarini O'zing ravo ayla. Do'stlarimiz orasida safarni ixtiyor qilganlar bor, ularning safarlarini bexatar qil. Adashgan bandalaring orasida do'stlarimiz ham bor, gunohlarini kechirib, ularga O'zing hidoyat ber. Do'stlarimiz orasida arazlashganlar bor, ularning dillarini O'zing kechirimlilik nuri bilan yorit. Do'stlarimizning ishlarida omadlarini berib, martabalarini baland ayla.

Yo Rabbimiz Alloh! **В Ё Ey orom oluvchi nafs, (umring tugadi), endi rozilik bilan Rabbingga qayt!** **В Ё k** degan nido yetishib va Haq chaqirig'iga **В Ё labbaykav Ё k** javobini berib, qabrlarga joylashgan do'stlarimiz bor. Ularni O'zing mag'firat ayla. Qiyomatdagi savol-javobni yengil qil. O'zlaridan keyin qolgan farzandlari, qarindoshlariga sabr ber. Do'stlarimizga do'stlik xizmatini yaxshi ado etolmagan bo'lsak, gunohlarimizni kechirib, ul haqqiga duolarimizni qabul ayla!

Yo Rabbimiz Alloh! Do'stlarimiz bilan bizlarni bu dunyoda topishtirding, O'zingga shukr, endi qiyomatda O'zingning jannatida bizlarni yana birga qovushtirishingdan umidvormiz, noumid qilma. Do'stlarimizdan qaysi birlarinidir do'zax o'tiga tashlab, do'st ayrilig'i azobi bilan jazolanishdan O'zing asra. O'zingning vaslingga do'stlarimiz bilan birgalikda yetishmoqlik saodatiga yetishtir. Omiyn ya Rab al-olamiyn!

AvvalgiII- qismB Keyingi